

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2022 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR Shuhrat Sirojiddinov
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI Karomat Mullaxo'jayeva
MAS'UL KOTIB Ozoda Tojiboyeva
TAHRIR HAY'ATI Zaynobiddin Abdirashidov Karl Rayxl (Germaniya) Isa Habibbeyli (Ozarbayjon) Seyhan Tanju (Turkiya) Almaz Ulvi (Ozarbayjon) Benedek Peri (Vengriya) Vahit Turk (Turkiya) Teymur Kerimli (Ozarbayjon) Eunkyoung Oh (Koreya) Mark Toutant (AQSh) Boqijon To'xliyev Qosimjon Sodiqov Hamidulla Dadaboyev Nurboy Jabborov G'aybulla Boboyorov Vali Savash (Turkiya) Onal Kaya (Turkiya) Kimura Satoru (Yaponiya) Aftondil Erkinov Rashid Zohidov Otabek Jo'raboyev Baxtiyor Abdushukurov Dilnavoz Yusupova Qo'ldosh Pardayev Nodirbek Jo'raqo'ziyev

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Oysara Madaliyeva Alisher Navoiy "Badoyi' ul-bidoya" devonining Mashhad qo'lyozmasi	4
Jamoliddin Jo'rayev Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror" asarining nashrlari xususida	20
ADABIYOTSHUNOSLIK	
Gavhar Rahmatova Qadimgi turkiy she'riyatda qo'llangan badiiy san'atlar va ularning matn stilistikasiga ta'siri	33
Diyora Abduljalilova Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" va Yahyobey Toshlijali "Gulshan ul-anvor" dostonlari qiyosi	47
Gulchin Sofiyeva Sharq klassik adabiyotida epistolyar janr	65
LINGVISTIKA	
Mahliyoxon Tuxtasinova L. Z. Budagov lug'atida eski o'zbek adabiy tili harbiy istilohlarining izohlanishi	77
Umida Radjapova "Lahjat ul-lug'ot" asarida ifodalangan zoonimlar	101

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
 DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
 EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojibaeva	
 EDITORIAL BOARD	
Zaynabiddin Abdirashidov	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Mark Toutant (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Kasimjan Sadikov	
Hamidulla Dadaboyev	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Vali Savash (Turkey)	
Onal Kaya (Turkey)	
Kimura Satoru (Japan)	
Aftandil Erkinov	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bakhtiyar Abdushukurov	
Dilnavoz Yusupova	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	

CONTENTS	
 TEXTOLOGY	
Oysara Madalieva ‘Ali Shīr Navā’ī’s Badāyi ‘al-bidāya divan’s Manuscript of Mashhad	4
Jamoliddin Juraev About the publication of the work “Gulshan ul- asror” by Haydar Khorazmiy	20
 LITERATURE	
Gavhar Rahmatova Artistic arts used in ancient Turkic oral poetry and their influence on the text stylistics	33
Diyora Abduljalilova Comparison of Alisher Navoi's "Hayrat ul-Abror" and "Gulshan ul-Anvar" epics by Yahyobey Tashlijali	47
Gulchin Sofieva Epistolary genre in Eastern classical literature	65
 LINGUISTICS	
Mahliyokhon Tukhtasinova Interpretation of military terms in the old Uzbek literary language in the Dictionary of L.Z. Budagov	77
Umida Radjapova Zoonyms represented in "Lahjatu-l-lug'ot"	101

MATNSHUNOSLIK
TEXTOTOLOGY**Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya”
devonining Mashhad qo’lyozmasi**Oysara Madaliyeva¹**Abstrakt**

Shu paytga qadar Alisher Navoiyning o’zi tomonidan tuzilgan dastlabki devoni – “Badoyi’ ul-bidoya”ning yettita nusxasi fanga ma’lum qilindi. Eronning Mashhad shahrida joylashgan Ostoni Qudsi Razaviy kutubxonasida 4783-raqami bilan saqlanib kelinayotgan qo’lyozma devon “Badoyi’ ul-bidoya”ning yana bir nusxasi ekanligi aniqlandi. 204 varaqdan iborat ushbu qo’lyozma muallif hayotlik chog’i – 896/1491-yil Hirotda kotib Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan ko’chirilgan. Ushbu maqolada “Badoyi’ ul-bidoya”ning Mashhad nusxasi haqida so’z boradi. Mazkur devonning yangi aniqlangan nusxalari va avval ma’lum bo’lgan qo’lyozmalari bilan qiyosiy tadqiq etilishi Navoiy lirikasi matnshunosligi oldida turgan dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Kalit so’zlar: devon, qo’lyozma, “Badoyi’ ul-bidoya”, g’azal, Ostoni Qudsi Razaviy kutubxonasi.

Kirish

XX asrning 30-40-yillaridan boshlab Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (1441–1501) lirikasi, xususan, shoir devonlarining qo’lyozmalari jiddiy o’rganila boshladi. S.L. Volin (1909–1943), O.S. Levend (1897–1978) kabi navoiyshunoslar tomonidan boshlangan bu an’anani [Volin 1946, 203-235; Levend 1958, 127-209] professor H.Sulaymonov (1910–1979) doktorlik dissertatsiyasi darajasida o’rgandi va bu qo’lyozma devonlar yuzasidan zamonasining sara ilmiy farazlarini yozib ketdi [Suleymanov 1955–1961, 415]. H.Sulaymonov ushbu mavzu yuzasidan faqat

¹Madaliyeva Oysara Rustamovna – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim, O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

E-pochta: oysara19@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-0932-9570

Iqtibos uchun: Madaliyeva, O. R. 2022. “Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonining Mashhad qo’lyozmasi”. *Oltin bitiglar* 4: 4–19.

nazariyani emas, salmoqli amaliy ishlarni ham meros qoldirdi. U "Xazoyin ul-maoniy" nomli to'rt devon majmuasining ilmiy-tanqidiy matni ustida ishladi va 1959–1960-yillarda devonning kirill alifbosidagi ilk nashrini e'lon qildi [Навоий 1959–1960].

Aytish mumkinki, 2010-yillar Navoiy lirikasi manbashunosligi tarixida yangi burilish yasadi. Xuddi shu yillardan Navoiy devonlarining yangi qo'lyozmalari topila boshladi [Эркинов 2012, 8-16]. Quvonarlisi, "Oqqo'yunli muxlislar devoni"ning topilishi bilan boshlangan bu an'ana "Badoyi' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya"ning yana bir necha qo'lyozmalari aniqlanishi bilan davom etmoqda [Эркинов 2018, 51-57; Турдалиев, Эркинов 2018, 57-62; Эркинов 2018, 18-31; Maksudov 2020, 9-18; Boltabayev 2022, 438-466; Erkinov 2022]. Eng muhimi, aniqlangan yangi qo'lyozmalar ustida jiddiy tadqiqotlar ham amalga oshirilib kelmoqda [Навоий 2015; 2021, 411; 2021, 260; Imomnazarov 2021, 207; 2017, 6-10; 2022, 510; 2018, 12-17; 2021, 64; Эркинов 2017, 19-38; Erkinov, Madaliyeva 2020, 19-21; Юсупова 2016, 152-158; 2017, 54-60; Boltabayev 2022, 263; Jabborov 2021, 247; Madaliyeva 2021, 679].

"Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlari matnshunosligi

Ma'lumki, Navoiy "Xazoyin ul-maoniy"ni tartib berishdan avval "Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" nomli ikki devon tuzgan. Navoiy lirikasi matnshunosligi akademik tarzda o'rganila boshlaganiga bir asrdan oshdi hamki, mazkur ikki devon xususida ba'zi masalalar hali-hanuz o'z yechimini topgan emas. Buning sabablaridan biri orada katta bir muddat qo'lyozmalar bilan bog'liq tadqiqotlarning kamayib ketishi bilan, yana bir sababi so'nggi yillarda navoiyshunoslikning manbashunoslik, matnshunoslik tarmog'i ancha rivojlanib, yangi qo'lyozma devonlarning aniqlanishi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Ushbu devonlarning nechanchi yillarda tartib berilgani masalasi shular sirasiga kiradi.

Hamid Sulaymon "Badoyi' ul-bidoya"ni 1470-yillarda Husayn Boyqaro buyrug'i bilan, deb hisoblaydi [Suleymanov 1955–1961, 63]¹.

O'z davrida A.Abduq'afurov (1931–2005) Navoiy devonlarining tuzilish sanalariga bag'ishlangan bir nechta ilmiy

¹ Olim doktorlik dissertatsiyasining yana bir o'rnida "Badoyi' ul-bidoya" devoni 1469–1585-yillar orasida tuzilgan, deb aytadi [Suleymanov 1955–1961, 66].

maqolalarini e'lon qilgan edi [Абдуғафуров 1989, 3-9; 1994–2000]. U, xususan, “Badoyi’ ul-bidoya”ning tuzilish sanasini aniqlash masalasiga S.L. Volin va Y.E.Bertels (1890–1957) kabi olimlardan so'ng Hodi Zarif (1905–1972) 1959-yil diqqat qaratganini, ammo 30 yildirki (bunda maqola e'lon qilingan 1989-yilgacha bo'lgan vaqt nazarda tutilmoqda – *O.M.*) olimlar yetarlicha e'tibor bermayotgani haqida yozadi [Абдуғафуров 1989, 3]. A.Abdug'afurov dastlabki devonning tartib sanasini aniqlashda uning debochasidagi ayrim lavhalar, shuningdek, devondan o'rin olgan ba'zi she'rlarning mazmuniga e'tibor qaratadi. Shu tariqa, olim “Badoyi’ ul-bidoya” 884/1478–1479-yilda tuzilgan, degan xulosaga keladi [Абдуғафуров 1989, 8].

A.Abdug'afurovning bu borada keltirgan dalillari asosli va bu fikrga qo'shilish mumkin. Faqat yana bir narsani nazardan chetda tutmaslik lozim. Bu ham bo'lsa, devon debocha yozilishidan bir-ikki yil avval tuzilgan bo'lishi ham mumkin. Fikrimizning dalili sifatida Navoiy kulliyotining muallif hayotligi chog'i tartiblangan nusxasida “Xazoyin ul-maoniy” devoni mavjud bo'lsa-da, uning debochasi yo'qligi bilan dalillash mumkin [Navoiy 1496–1497]. Ya'ni ilk kulliyot tuzilgan 901/1496–1497-yilda hali “Xazoyin ul-maoniy”ga debocha bitilmagan bo'lsa kerak. Aks holda muallif rahnamoligida tartib berilayotgan kulliyotga devonlar majmuasi debochasi bilan ko'chirilar edi, bizningcha. Zero, shoirning o'zi debochada: “... bu fihrastdin bu arzadoshtni ayirmasqa vasiyyat etkaymen”, deya ta'kidlaydi. Shuning uchun, avval devon tartib berilib, hatto undan nusxalar ko'chirilib, so'ng maxsus debochalar yozilgan bo'lishi ham mumkin, deb o'ylaymiz.

M. Imomnazarov ta'kidlaganidek, “Badoyi’ ul-bidoya” devonining hali mukammal nashri mavjud emasligi masalasi ham mavjud [Imomnazarov 2022, 107]. To'g'ri, MATning birinchi tomida “Badoyi’ ul-bidoya” devoni chop etilgan. Ammo tadqiqotlar ushbu nashrning ishonchli emasligini ko'rsatmoqda [Imomnazarov 2022, 105-150].

Shu o'rinda, mavzudan biroz chetlashish bo'lsa-da, shoirning ikkinchi devoni “Navodir un-nihoya” borasida ham o'z echimini kutayotgan ko'pgina masalalar borligini eslatib o'tmoqchimiz. Olimlar mazkur devonni 1486-yil tuzilgan deb hisoblashadi [Boltabayev 2022, 24]. So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, ushbu devonning beshta nusxasi mavjud. Bular bilan quyidagi jadvalda tanishish mumkin.

Alisher Navoiy “Navodir un-nihoya” devoni nusxalari

№	Ko’chirilgan davri	Kotibi	Saqlanish joyi	Katalog va tadqiqotlardagi nomi	Qo’lyozma raqami
1	893/1487–88	Abduljamil kotib	O’zR FASHI, O’zbekiston	“Navodir un-nihoya”	11675
2	905/1499–1500	Sultonali Mashhadiy	Metropolitan san’at muzeyi, AQSH	“Devoni Navoiy”/“Terma devon”	21 ¹
3	–	Sultonali Mashhadiy	O’zR FASHI, O’zbekiston	“Navodir un-nihoya”	1995
4	XV asr	Alisher Navoiy	Koxi Guliston muzeyi, Eron	“Devoni Navoiy”/“Navoiy dastxati”/“Navodir un-nihoya”	1799
5	XVII asr	–	TJU, Tojikiston	“G’aroyib us-sig’ar”/“Navodir un-nihoya”	736

Ma’lumki, Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”ning debochasida bundan avval ikki devon tartib bergani va ularga ham debocha bitganini yozadi [Навоий 1988, 4-22]. Afsuski, yuqorida “Navodir un-nihoya” nusxalari bo’lishi mumkinligi taxmin qilingan qo’lyozmalarning birortasida debocha mavjud emas. Yana bir qiziq tomoni, ushbu qo’lyozmalarning hech birida devon nomi – “Navodir un-nihoya” ham keltirilmagan. Nusxalar orasida eng qadimiysi Abduljamil kotib tomonidan ko’chirilgan qo’lyozma devondir [Navoiy 1487, 149].

Fanda ilk bora “Navodir un-nihoya” nomi bilan taqdim qilingan Sultonali Mashhadiy qo’lyozmasining ko’chirilish tarixi mavjud emas. Ushbu nusxaning kitobat sanasi borasida H. Sulaymonov XV asrning 80-yillarini, M. Hakimov esa 1475–1480-yillar orasini, qayd etganlar. Har holda, qo’lyozma taxminan 1506-yildan avval, ya’ni Sulton Husayn vafotidan avval ko’chirilgan. Boisi devonni yakunlab beruvchi kolofonda nusxaning Sulton Husayn Boyqaro (h.y. 1469–1506) saroy kutubxonasi uchun Hirotida kitobat qilingani haqida qaydlar mavjud [Navoiy, 205^b]. Shuningdek, uning tarkibida qo’lyozma devon shoir “Xamsa”ni tugallagach kitobat qilinganini dalillovchi bayt bor. Nusxaning 5-g’azali 6-baytiga diqqat qiling [Navoiy, 3^a]:

بولماغای ایردی میسرّ خمسہ یعنی پنج کنج

¹ Bu qo’lyozma hozircha shartli tarzda “Navodir un-nihoya” deb atalmoqda.

*Bo'lmag'ay erdi muyassar "Xamsa", ya'ni panj ganj
Qilmasa erdi madad holimg'a besh Oli abo.*

Olimlar 1995 va 11675-raqamli qo'lyozmalar kolofonidagi "devoni jadid" birikmasiga tayanib, ularni "Navodir un-nihoya" nusxalari sifatida baholashgan. Ularning kolofonlaridagi mazkur so'zlarning qofiyali tarzda bir xil kelishi kishi diqqatini tortadi. Mashhadiy 1995-raqamli qo'lyozmaning deyarli har bir janrdagi she'rlari yakunida alohida xotimalar qoldirgan. Ushbu nusxaning birinchi va so'nggi g'azali 11675-raqamli Abduljamil kotib qo'lyozmasi bilan bir xil ekanidan tashqari o'xshash yana bir jihati mavjud. Unda aynan g'azallarning tugash qismida Abduljamil kotibning kolofon matni keltirilgan [Navoiy, 149^a; 185^a]:

بعون الله الملك المجيد توکاندی دیوان جدید

(Bi'avnillohi al-maliku-l-majid, tugandi devoni jadid). Mazkur "devoni jadid" birikmasi aynan "Navodir un-nihoya" bo'lishi mumkin, albatta. Ammo ayni paytda bu jumlaning "Terma devon" ma'nosida ham tushunish mumkin. Sababi har ikki qo'lyozmaning tarkibida "Badoyi' ul-bidoya"dan olingan she'rlar soni talaygina. Ushbu mavzu alohida masala bo'lib, navoiyshunoslar yetarli diqqat qilishlari lozim, deb hisoblaymiz.

Ushbu maqolada ko'tarilgan mavzuga qaytamiz. "Badoyi' ul-bidoya" devonining muallif ko'zi ochiqligi chog'ida ko'chirilgan bir necha qo'lyozmalari fanga ma'lum bo'lib borayotgani quvonarli holdir.

Professor H.Sulaymonov doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan choqlarda "Badoyi' ul-bidoya" devonining muallif hayot vaqti kitobat qilingan to'rtta nusxasi ma'lum edi.

So'nggi besh yil ichida A.Erkinov, A.Turdialiyev va S.Boltabayev kabi olimlar tomonidan ushbu devonning Navoiy vafotiga qadar ko'chirilgan yana uch nusxasi borligi e'lon qilindi va "Badoyi' ul-bidoya"ning dunyo fondlarida yettita sanali nusxasi mavjudligi o'rta qildi [Erkinov 2018, 51-57; Turdialiyev, Erkinov 2018, 57-62; Erkinov 2018, 18-31; Boltabayev 2022, 438-466].

Bular quyidagi qo'lyozmalardir:

1. Parij nusxasi. Franitsiya Milliy kutubxonasi, № 746.

¹ "Navodir un-nihoya" nashrida *oliy abo* tarzida xato berilgan. Sababi bu o'rinda *Oli abo. Oli nabi* deganda, Payg'ambar oilasi: Muhammad payg'ambar, uning qizi Fotima, kuyovi hazrat Ali, uning o'g'illari Hasan va Husan ko'zda tutiladi. Oliy (عالی) va ol (آل) so'zlari imlosi arab yozuvida farq qiladi. [NAL, 481-482]

885/1480-81-y. Kotibi noma'lum.

2. London nusxasi. Britaniya muzeyi, № 401. 887/1482-83-y. Kotibi noma'lum.

3. Tehron nusxasi. Islom sho'ro majlisi kutubxonasi, № 14197. 888 yil, safar oyi /1483-y., mart-aprel. Kotibi noma'lum.

4. Boku nusxasi. Ozarbayjon Respublikasi qo'lyozmalar fondi, № 3010. 889/1484-y. Ko'chiruvchi noma'lum.

5. Istanbul nusxasi. Turkiya, Sulaymoniya kutubxonasi, Ayasofya № 3981. 889/1484-1485-y. Hirot, Sultonali Mashhadiy.

6. Toshkent nusxasi. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat Adabiyot muzeyi, № 216. 891/1486-y. Hirot, Ali ibn Nur.

7. Tehron nusxasi II. Eron Milliy kutubxonasi, № 1082924. 906/1500-1501.

"Badoyi' ul-bidoya" devonining ushbu yettita qo'lyozmasi ustida turli tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda [Suleymanov 1955-1961, 415; Салоҳий 2004, 133; Жўрабоев 2016, 32-38; Imomnazarov 2017, 6-10; 2018, 12-17; 2021, 64; 2021, 207; 2022, 510; Juraboyev 2020, 14-27; Boltabayev 2022, 263; 2022, 438-466].

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Eron Islom Respublikasining Mashhad shahrida joylashgan Kitobxonai Ostoni Qudsi Razaviy tashkiloti o'rtasida hamkorlik o'rnatilib, ushbu kutubxonaning taklifiga muvofiq ikki qo'lyozma fondidagi ikki mo'tabar qo'lyozmaning raqamlashtirilgan nusxasi o'zaro almashindi.

Eron tomonidan O'zbekistonga tuhfa etilgan qo'lyozma tegishli kutubxonaning fehrest va nashr etilgan boshqa kataloglarda "Devon-i Navoiy" nomi bilan tavsif etilgan. Fehrest va kataloglarda Navoiy lirikasi bilan jiddiy shug'ullanmagan mutaxassislar tomonidan shoir devonlarining umumiy nom bilan tavsif etilishi odatiy holat hisoblanadi.

Xususan, 2008-yil Doktor Shodi Oydin (Şadı Aydın) tomonidan Istanbulda chop qilingan "Eron kutubxonalaridagi turkiy yozmalar katalogi"da (İran kütüphaneleri türkçe yazmalar katalogu) mazkur devon qo'lyozmasi quyidagicha tavsif etilgan: "Alisher Navoiy. Devon-i Navoiy. Kotib Darvesh Muhammad Talaqoniy (aslida Toqiy, mazkur katalogda kotib nomi Talaqoniy tarzida keltirilgan (!) – O.M.) tomonidan jumodi I 896/1491-yil mart-aprel oylarida ko'chirilgan. Nasta'liq xatida. 17 satr. 204 varaq. 24,3x15,5. Inv.№ 4783" [Aydın 2008, 120].

Ushbu tavsifning diqqatni tortgan tomoni qo'lyozmaning to'liq ekani va shoir hayotligi chog'i ko'chirilganida edi. Shuning

uchun, ustozimiz A.Erkinov bilan maslahatlashgan holda Ostoni Qudsi Razaviy kutubxonasi mutasaddilaridan aynan shu qo'lyozma devonning raqamlashtirilgan nusxasini so'radik. Ikki tomonlama muzokaralar yaxshi natija berdi. Ayni paytda ushbu qo'lyozma devonning to'liq elektron nusxasi qo'lga kiritildi [Navoiy 1491, 204]¹.

Qo'lyozmani dastlabki o'rganish uning hijriy jumodi I oyi 896-yilda (milodiy 1491-yil mart-aprel oylari) Hirotda Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan nihoyatda yuksak did bilan kitobat qilingan "Badoyi' ul-bidoya" nusxasi ekanini oydinlashtirdi. Muhimi shundaki, ushbu qo'lyozma Navoiy ko'zi ochiqligida ko'chirilgan "Badoyi' ul-bidoya" devoni nusxalarining sakkizinchisi bo'lib chiqdi.

Darvesh Muhammad Toqiy XV asrning o'rtalarida tug'ilgan va XVI asrning birinchi yarmiga qadar yashagan. Uning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar yetarlicha saqlanmagan. O'rta Osiyo xattotlari faoliyati tarixi bilan shug'ullangan olim M.Murodov (1893–1974) keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra: "Muhammad Toqiy nozik tabiat shoir hamdir" [Муродов 1971, 58]. Darvesh Muhammad umri davomida ulug' zotlarning asarlarini ko'chirish bilan shug'ullangan. Darvesh Muhammad Toqiy Navoiyning kulliyotidan tashqari uning "Terma devon"lari, Abdurrahmon Jomiyni (1414–1492) "Bahoriston" va Husayn Koshifiyning (1440–1505) "Lubbi lubobi ma'naviy intixobi masnaviy" nomli asarlarini ham kitobat qilgan [Муродов 1971, 58; Ҳакимов 1991, 14].

Qo'lyozma devonning avvalida Navoiyning "Arba'in" ("Chihil hadis") asari to'liq ko'chirilgan [Navoiy 1491, 1^b–6^a]. Bu jihatdan mazkur nusxa "Arba'in" bilan birga kitobat qilingan ikkinchi "Badoyi' ul-bidoya" nusxasi hisoblanadi². Devonning boshlanishida debocha mavjud emas.

Qo'lyozma devon

اشرفت من عكس شمس كائس انوار الهدا

يار عكسين ميذا كور ديب جام دين جقتى صدا

g'azali bilan boshlanadi.

U quyidagi fard bilan yakunlangan:

سيل يوليدا فنا دشتيدا مژكانيم اماس

¹ Ushbu mo'tabar qo'lyozmani qo'lga kiritishda yaqindan yordam bergan O'zR FA Sharqshunoslik instituti ma'muriyatiga, institut bo'lim boshlig'i Sanjar G'ulomovga, institut xalqaro bo'lim boshlig'i Umidjon Rahmonovga va Eron Islom Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasiga o'zimizning cheksiz minnatdorchiligimizni bildiramiz.

² "Badoyi' ul-bidoya"ning Istanbul nusxasi ham "Arba'in" asari bilan birga kitobat qilingan. [Qarang: Navoiy 1484-1485, 1^b–5^b varaqlar; Turdialiyev, Erkinov 2018, 57-62].

Ta'kidlash joizki, qaysi she'r bilan boshlanishi va yakunlanishiga ko'ra Mashhad qo'lyozmasi "Badoyi' ul-bidoya"ning boshqa nusxalaridan farqlanmaydi.

Qo'lyozma devon Navoiyning g'azal (7^b-169^a), musta'zod (169^a-170^b), musaddas (170^b-172^a), muxammas (172^a-175^a), tarji'band (175^a-183^b), qit'a (183^b-189^a), ruboiy (189^a-196^a), lug'z (196^a-197^b), muammo (197^b-200^b), tuyuq (200^b-201^b), fard (201^b-204^b) kabi janrlardagi she'rlardan iborat.

"Badoyi' ul-bidoya" Mashhad nusxasi tarkibidagi she'riy janrlar va ularning soni quyidagicha:

1. G'azallar: 630 ta.
2. Musta'zodlar: 3 ta.
3. Musaddaslar: 2 ta.
4. Muxammaslar: 5 ta.
5. Tarji'bandlar: 3 ta.
6. Qit'alar: 49 ta.
7. Ruboiylar: 82 ta.
8. Chistonlar: 10 ta.
9. Muammolar: 52 ta.
10. Tuyuqlar: 10 ta.
11. Fardlar: 53 ta.

Bu jihatdan u "Badoyi' ul-bidoya"ning Toshkent nusxasi tarkibiga juda yaqin turadi.

Hamid Sulaymon o'z davrida ma'lum bo'lgan "Badoyi' ul-bidoya"ning 4 ta nusxasi haqida shunday yozgan edi: "Ushbu to'rt nusxa "Badoyi' ul-bidoya" devoni ekani to'liq asosli. *Birinchidan*, har to'rt nusxaning janriy tarkibi bir-birini aynan takrorlaydi; *ikkinchidan*, ularning tarkibidagi janriy o'xshashlik muallifning ushbu devon debochasida yozgan so'zlariga mos keladi; *uchinchidan*, ushbu nusxalarning har to'rtalasida aynan birinchi devon – "Badoyi' ul-bidoya"ning debochasi mavjud [Suleymanov 1955-1961, 66]¹.

Hamid Sulaymon "Badoyi' ul-bidoya" devoni tarkibi haqida shunday yozgan: "To'rt qo'lyozma haqidagi jadvalda aks etganidek, Parij nusxasidan tashqari qolgan nusxalarning janriy tarkibi bir-biriga mos keladi va bu 11 janr muallifning o'zi qayd etgan janr nomlariga ham muvofiqdir. Faqat bizga noma'lum sababga ko'ra,

¹ Hamid Sulaymon "Badoyi' ul-bidoya"ning Boku nusxasida debocha yo'qligini dissertatsiyasining 68-sahifasi 1-jadvalda bergan. Noma'lum sababga ko'ra, bu o'rinda har to'rt nusxada debocha mavjud deb ma'lumot berilgan.

Parij nusxada she'riy janrlardan 6 tasi (muxammas, musaddas, qit'a, mustazod, muammo, tarji'band) yetmaydi. London, Boku va Toshkent nusxalaridagi yangi she'rlarning qo'shilib borishi, bizning fikrimizga ko'ra, ular shoirning "Badoyi' ul-bidoya" tuzilib bo'lgach, yozgan yangi she'rlarini qo'shib borishi hisobiga amalga oshgan" [Suleymanov 1955-1961, 69].

Mashhad nusxaning 127^a, 155^a, 161^a, 169^a, 204^b varaqlarida muhrlar mavjud. Ulardan 204^b varaqdagi muhrning matni o'qishli, qolganlarini o'qish imkoniyati yo'q.

204^b varaqdagi muhr matnida quyidagilarni o'qiyimiz:

٦٢٣١ ضياء لشكر (Ziyo-i lashkar, 1326).

Muhimi shundaki, "Badoyi' ul-bidoya"ning oltita qo'lyozmasi 1480–86-yillar orasida kitobat qilingan. So'nggi aniqlangan qo'lyozmalar orasida faqat Tehron nusxasi II. 1500–1501-yillarda ko'chirilgan, ammo S.Boltaboyevning ma'lumotiga ko'ra u noto'liq qo'lyozmadir.

Xulosa

Xulosa shuki, ushbu maqolada so'z yuritganimiz nusxa 1491-yil ko'chirilgani va to'liqligi – qo'lyozmaning boshlanishi va yakuni mavjudligi, shuningdek, uning orasida uzilishlar yo'qligi bilan diqqatga loyiq. Bizningcha, mazkur qo'lyozma tarkibi, she'rlari matnini "Badoyi' ul-bidoya"ning boshqa nusxalari bilan qiyosiy o'rganish muhimdir. Zero, Navoiyning doimiy tarzda o'z ustida ishlagani, she'rlarini takomillashtirib borgan ma'lum. Shuning uchun, ushbu qo'lyozmalar matnining qiyosi shoir lirikasi laboratoriyasining 1486- va 1491-yillar orasidagi o'zgarishlarini o'rtaga chiqarishi mumkin. Biz kelajakdagi faoliyatimizda ushbu mavzuga jiddiyoq kirishib boramiz.

Adabiyotlar

- Абдуғафуров, А. 1989. "Бадоеъ ул-бидоя"нинг тузилиш санаси". *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 3-9. Тошкент.
- Абдуғафуров, А. 1994. "Хазойин ул-маоний" жумбоқлари (1 мақола)". *Ўзбек тили ва адабиёти* 4-6: 9-16. Тошкент.
- Абдуғафуров, А. 1995. "Хазойин ул-маоний" жумбоқлари (2 мақола)". *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 10-18. Тошкент.
- Абдуғафуров, А. 1998. "Хазойин ул-маоний" жумбоқлари (3 мақола)". *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 3-10. Тошкент.
- Абдуғафуров, А. 2000. "Хазойин ул-маоний" жумбоқлари". *Ўзбек тили ва адабиёти* 5: 3-11. Тошкент.
- Алишер Навоий. 2021. "Оққўюнли мухлислар девони": табдил ва факсимил матн. Нашрга тайёрловчилар: А.Эркинов,

- Р.Жабборов. – 411 б. 1-том. Лойиҳа раҳбари: Г.Рихсиева. Лойиҳа илмий раҳбари: А.Эркинов. Тошкент: Донишманд зиёси.
- Алишер Навоий. *Арбаъин*. Котиб: Дарвеш Муҳаммад Тоқий. Ҳирот. 896/1491. Эрон, Остони Қудси Разавий кутубхонаси. № 4783. 1⁶–6^а җарақлар.
- Алишер Навоий. *Арбаъин*. Котиб: Султонали Машҳадий. Ҳирот, 889/1484-1485. Туркия, Сулаймония кутубхонаси, Аясофя № 3981. 1⁶–5⁶ җарақлар.
- Алишер Навоий. *Бадойиъ ул-бидоя*. Котиб: Дарвеш Муҳаммад Тоқий. Ҳирот, 896/1491. Эрон, Остони Қудси Разавий кутубхонаси., № 4783. 204 җарақ.
- Алишер Навоий. *Бадойиъ ул-бидоя*. Котиб: Дарвеш Муҳаммад Тоқий. Ҳирот, 896/1491. Эрон, Остони Қудси Разавий кутубхонаси., № 4783. 1⁶–6^а җарақлар.
- Алишер Навоий. *Бадойиъ ул-бидоя*. Котиб: Султонали Машҳадий. Ҳирот, 889/1484-1485. Туркия, Сулаймония кутубхонаси, Аясофя № 3981. 16–56 җарақлар.
- Алишер Навоий. 1988. *Ҳазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар*. МАТ. 20 томлик. 3 том. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 2021. *Ғазалиёт девони*. Нашрга тайёрловчи: О.Мадалиева. Тадқиқот қисми муаллифлари: ф.ф.д. А.Эркинов, О.Мадалиева. Масъул муҳаррир: т.ф.д., проф. Б.Абдуҳалимов. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. *Қуллёт*. Тўпқопи кутубхонаси, Реван фонди: № 808. Ҳирот, 901/1496–1497. Котиб: Дарвеш Муҳаммад Тоқий.
- Алишер Навоий. *Наводир ун-ниҳоя*. Котиби: Абдулжамил котиб. ЎЗРФАШИ асосий фонди. № 11675. 149 җарақ.
- Алишер Навоий. *Наводир ун-ниҳоя*. Котиби: Султонали Машҳадий. Метрополитейн санъат музейи. №21.
- Алишер Навоий. *Наводир ун-ниҳоя*. Котиби: Султонали Машҳадий. ЎЗРФАШИ асосий фонди. №1995. 207 җарақ.
- Алишер Навоий. 1987. *Наводир ун-ниҳоя*. МАТ. 20 томлик. 2 том. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 2015. *Оққуюнли мухлислар девони*. 1471 йили кўчирилган қўлёзманинг факсимиле нашри. Нашрга тайёрловчи: А.Эркинов. Tokyo: Research Institute for languages and cultures of Asia and Africa.
- Алишер Навоий. 1959. *Ҳазойинул-маоний. Ғаройибус-сиғар*. I том. Ҳ. Сулаймонов илмий-танқидий матни асосидаги нашр. Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти.
- Алишер Навоий. 1959. *Ҳазойинул-маоний. Наводируш-шабоб*. II том. Ҳ. Сулаймонов илмий-танқидий матни асосидаги нашр. Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти.
- Алишер Навоий. 1960. *Ҳазойинул-маоний. Бадойиулул-җасат*. III том. Ҳ. Сулаймонов илмий-танқидий матни асосидаги нашр. Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти.
- Алишер Навоий. 1960. *Ҳазойинул-маоний. Ғавойидул-кибар*. IV том.

- Ҳ. Сулаймонов илмий-танқидий матни асосидаги нашр.
Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти.
- Aydın, Ş. 2008. *İran kütüphaneleri türkçe yazmalar kataloğu*. İstanbul: Timaş yayınları.
- Boltabayev, S. 2022. *Alişir Nevayî divanlarının dibaceleri (Giriş – Metin – Aktarma – Dizin – Tıpkıbasım)*. Ankara: Akçağ.
- Болтабаев, С. 2022. “Навоий девонининг шоир ҳаётлигида қўчирилган янги топилган нусхаси ҳақида”. *Алишер Навоий ва Шарқ Ренессанси (халқаро симпозиум материаллари)*, 438-466. Тошкент.
- Eckmann Janos. 1970. “Nevai’nin ilk divanları üzerine”. *Türk dili araştırmaları yillığı. Belleten* 13: 253-262. Ankara.
- Эркинов, А. 2018. “Бадойиъул-бидоя”нинг Навоий даврида қўчирилган ва янги аниқланган санали бешинчи қўлёзмаси (888 йил, сафар ойи/1483 йил, март-апрел)”. *Алишер Навоий ва XXI аср*, 51-57. Тошкент: Турон иқбол.
- Эркинов, А. 2017. “Алишер Навоий “Ҳазойин ул-маоний”си ва унинг протодевони масаласи”. *Алишер Навоий ва XXI аср*, 19-38. Тошкент: Тамаддун.
- Erkinov, A. 2018. “Badoye’ ul-bidoya”ning Navoiy davrida ko’chirilgan va yangi aniqlangan qo’lyozmalari (1483 va 1485-yillar)”. *Oltin bitinlar* 1: 18-31. Toshkent.
- Эркинов, А. 2021. *Мустақиллигимизнинг 31 йиллигига муносиб туҳфа: Алишер Навоий “Бадоеъ ул-бидоя”сининг саккизинчи нусхаси аниқланди. Мустақиллигимизнинг 31 йиллигига муносиб туҳфа: Алишер Навоий “Бадоеъ ул-бидоя”сининг саккизинчи нусхаси аниқланди (uza.uz)*.
- Эркинов, А. 2012. “Навоийнинг мухлислари томонидан тузилган яна бир девони”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 8-16. Тошкент.
- Эркинов, А., Мадалиева, О. 2020. “Терма девон” ёки Навоий “Наводирун-нихоя”сининг сўнгги редакцияси? (Машҳадий қўлёзмаси асосида, 905/1499-1500 йил)”. *Алишер Навоий ва XXI аср (халқаро илмий-назарий анжумани материаллари)*: 19-21. Тошкент: Машхур-пресс.
- Ҳакимов, М. 1991. *Навоий асарларини қўчирган хаттотлар*. Тошкент: Фан.
- Имомназаров, М. 2017. “Алишер Навоий лирик мероси матншу-нослигининг долзарб масалалари”. *Алишер Навоий ва XXI аср (халқаро илмий-назарий анжумани материаллари)*: 6-10. Тошкент: Тамаддун.
- Имомназаров, М. 2022. *Мусулмон минтақа маданияти ривожига “мажоз тариқи” босқичи. Алишер Навоий. 2-китоб*. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Имомназаров, М. 2018. “Уч девон муқоясаси (Алишер Навоий шеърляти лирик жанрлар хронологиясига доир)”. *Алишер Навоий ва XXI аср (халқаро илмий-назарий анжумани материаллари)*: 12-17. Тошкент: Турон иқбол.
- Имомназаров, М. 2021. *XXI аср: Алишер Навоий лирик мероси*

- матншунослиги муаммолари. Тошкент: Донишманд зиёси.
- Имомназаров, М. 2021. *XXI аср: Алишер Навоий лирик мероси матншунослиги муаммолари*. 2-том. Лойиҳа раҳбари: Г.Рихсиева. Лойиҳа илмий раҳбари: А.Эркинов. Тошкент: Донишманд зиёси.
- Жабборов, Р. 2021. *Алишер Навоий «Оққўюнли мухлислар девони» ва унинг давр адабий муҳитида тутган ўрни*. 4-том. Лойиҳа раҳбари: Г.Рихсиева. Лойиҳа илмий раҳбари: А.Эркинов. Тошкент: Донишманд зиёси.
- Жўрабоев, О. 2016. "Навоий асарлари қўлёзма ва матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари". *Алишер Навоий ва XXI аср (Халқаро илмий-назарий анжумани материаллари)*: 32-38. Тошкент.
- Juraboyev, O. 2020. "Kitabet Sanatının Bir Örneği Olarak Ali Şir Nevayî'nin "Bedayîü'l-Bidaye" Divanının Taşkent Nüshası". *Uluslararası Beşeri Bilimler ve Sanat Dergisi* 1: 14-27. Bolu.
- Levend A. 1958. "Türkiye kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları". *Türk dili araştırmaları yillığı. Belleten* 6: 127-209. Ankara.
- Мадалиева, О. 2021. *Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи*. 5-том Лойиҳа раҳбари: Г.Рихсиева. Лойиҳа илмий раҳбари: А.Эркинов. Тошкент: Донишманд зиёси.
- Мадалиева, О. 2019. "Навоий девонлари қўлёзмаларига битилган колофонлар: матн тили ва ифода услуби". *Алишер Навоий ва учинчи мингйиллик: Навоий меросини ўрганишнинг янги уфқлари илмий амалий анжуман тўплами*, 96-105. Тошкент, 2019.
- Максудов, Б. "Кодикологическое описание списка «Навадир ан-нихая» Наваи, хранящегося в библиотеке таджикского национального университета". *Alisher Navoiy va XXI asr (xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari)*: 9-18. Toshkent: Mashhur-press.
- Муродов, М. 1971. *Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан*. Тошкент: Фан.
- Навоий дастхати* (Наводир ун-нихоя). 1991. Нашрга тайёрловчи, сўз боши муаллифи: С.Ғаниева. Тошкент: Фан.
- Салоҳий, Д. 2004. *"Бадойиъ ул-бидоя" малоҳати*. Тошкент: Фан.
- Навоий асарлари луғати*. 1972. Тузувчилар Шамсиев П., Иброҳимов С. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
- Сулейманов, Х. С. 1955-1961. *Текстологическое исследование лирики Алишера Навои*. В трех томах. Том первый. Ташкент–Москва.
- Турдиалиев, А., Эркинов, А. 2018. "Бадойиъ ул-бидоя"нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали олтинчи қўлёзмаси (Султонали Машҳадий, Ҳирот, 889/1484-1485 йил)". *Алишер Навоий ва XXI аср* (халқаро илмий-назарий

- анжумани материаллари): 57-62. Тошкент: Турон иқбол.
- Волин, С. 1946. «Описание рукописей произведений Навои в Ленинградских собраниях». *Алишер Навои*, 203-235. Под ред. К. Боровкова. Москва–Ленинград: Издательство АН СССР.
- Юсупова, Д. 2017. “Наводир ун-ниҳоя” фақат ғазаллардан иборат девонми?” *Алишер Навоий ва XXI аср* (халқаро илмий-назарий анжумани материаллари): 54-60. Тошкент: Тамаддун.
- Юсупова, Д. 2016. “Хазойин ул-маоний”: тузилиш қонуниятлари, таркибий хусусиятлари”. *Алишер Навоий ва XXI аср* (Республика илмий-назарий анжумани материаллари): 152-158. Тошкент.

‘Ali Shīr Navā’ī’s *Badāyi’ al-bidāya* divan’s Manuscript of Mashhad

Oysara Madaliev¹

Abstract

To date, science knows seven copies of the first divan of ‘Ali Shīr Navā’ī’s *Badāyi’ al-bidāya*, compiled by himself. Manuscript No. 4783, kept in the library of Astan Quds Razavi, located in the city of Mashhad, Iran, was found to be another copy of the *Badāyi’ al-bidāya* manuscript. This manuscript, consisting of 204 pages, was copied by the scribe Darvish Muḥammad Tāqī in Herat during the author’s lifetime – 896/1491. This article is about the Mashhad copy of *Badāyi’ al-bidāya*. According to the author of the article, a comparative study of the newly discovered copies of this divan with previously known manuscripts is one of the topical issues facing the textual criticism of Navā’ī’s lyrics.

Key words: ‘Ali Shīr Navā’ī, divan, manuscript, *Badāyi’ al-bidāya*, *gazel*, the library of Astan Quds Razavi.

References

- Abdug‘afurov, A. 1989. “Badoe’ ul-bidoya”ning tuzilish sanasi”. *O‘zbek tili va adabiyoti* 4: 3-9. Toshkent.
- Abdug‘afurov, A. 1994. “Xazoyin ul-maoniy” jumboqlari (1 maqola)”. *O‘zbek tili va adabiyoti* 4-6: 9-16. Toshkent.
- Abdug‘afurov, A. 1995. “Xazoyin ul-maoniy” jumboqlari (2 maqola)”. *O‘zbek tili va adabiyoti* 1: 10-18. Toshkent.

¹ Oysara R. Madaliev¹ – doctor of philosophy (PhD) in philology, Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Republic of Uzbekistan.

E-mail: oysara19@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-0932-9570

For citation: Madaliev, O. R. 2022. “‘Ali Shīr Navā’ī’s *Badāyi’ al-bidāya* divan’s Manuscript of Mashhad”. *Golden scripts* 4: 4–19.

- Abdug'afurov, A. 1998. "Xazoyin ul-maoniy" jumboqlari (3 maqola)". *O'zbek tili va adabiyoti* 6: 3-10. Toshkent.
- Abdug'afurov, A. 2000. "Xazoyin ul-maoniy" jumboqlari". *O'zbek tili va adabiyoti* 5: 3-11. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 2021. "*Oqqo'yunli muxlislar devoni*": *tabdil va faksimil matn*. Nashrga tayyorlovchilar: A.Erkinov, R.Jabborov. – 411 b. 1-tom. Loyiha rahbari: G.Rixsieva. Loyiha ilmiy rahbari: A.Erkinov. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Alisher Navoiy. *Arba'in*. Kotib: Darvesh Muhammad Toqiy. Hirot. 896/1491. Eron, Ostoni Qudsi Razaviy kutubxonasi. № 4783. 1^b–6^a varaqlar.
- Alisher Navoiy. *Arba'in*. Kotib: Sultonali Mashhadiy. Hirot, 889/1484-1485. Turkiya, Sulaymoniya kutubxonasi, Ayasofya № 3981. 1^b–5^b varaqlar.
- Alisher Navoiy. *Badoyi' ul-bidoya*. Kotib: Darvesh Muhammad Toqiy. Hirot, 896/1491. Eron, Ostoni Qudsi Razaviy kutubxonasi. № 4783. 204 varaq.
- Alisher Navoiy. *Badoyi' ul-bidoya*. Kotib: Darvesh Muhammad Toqiy. Hirot, 896/1491. Eron, Ostoni Qudsi Razaviy kutubxonasi. № 4783. 1^b–6^a varaqlar.
- Alisher Navoiy. *Badoyi' ul-bidoya*. Kotib: Sultonali Mashhadiy. Hirot, 889/1484-1485. Turkiya, Sulaymoniya kutubxonasi, Ayasofya № 3981. 1^b–5^b varaqlar.
- Alisher Navoiy. 1988. *Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar*. MAT. 20 tomlik. 3 tom. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 2021. *G'azaliyot devoni*. Nashrga tayyorlovchi: O.Madalieva. Tadqiqot qismi mualliflari: f.f.d. A.Erkinov, O.Madalieva. Mas'ul muharrir: t.f.d., prof. B.Abdusalimov. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. To'pqpqi kutubxonasi, Revan fondi: № 808. Hirot, 901/1496–1497. Kotib: Darvesh Muhammad Toqiy.
- Alisher Navoiy. *Navodir un-nihoya*. Kotibi: Abduljamil kotib. O'zRFASHI asosiy fondi. № 11675. 149 varaq.
- Alisher Navoiy. *Navodir un-nihoya*. Kotibi: Sultonali Mashhadiy. Metropoliteyn san'at muzeyi. №21.
- Alisher Navoiy. *Navodir un-nihoya*. Kotibi: Sultonali Mashhadiy. O'zRFASHI asosiy fondi. №1995. 207 varaq.
- Alisher Navoiy. 1987. *Navodir un-nihoya*. MAT. 20 tomlik. 2 tom. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 2015. *Oqquyunli muxlislar devoni*. 1471 yili ko'chirilgan qo'lyozmaning faksimile nashri. Nashrga tayyorlovchi: A.Erkinov. Tokyo: Research Institute for languages and cultures of Asia and Africa.
- Alisher Navoiy. 1959. *Xazoyinul-maoniy. G'aroyibus-sig'ar*. I tom. H. Sulaymonov ilmiy-tanqidiy matni asosidagi nashr. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
- Alisher Navoiy. 1959. *Xazoyinul-maoniy. Navodirush-shabob*. II tom. H. Sulaymonov ilmiy-tanqidiy matni asosidagi nashr. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.

- Alisher Navoiy. 1960. *Xazoyinul-maoniy. Badoyiul-vasat*. III tom. H. Sulaymonov ilmiy-tanqidiy matni asosidagi nashr. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
- Alisher Navoiy. 1960. *Xazoyinul-maoniy. Favoyidul-kibar*. IV tom. H. Sulaymonov ilmiy-tanqidiy matni asosidagi nashr. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
- Aydın, Ş. 2008. *İran kütüphaneleri türkçe yazmalar kataloğu*. İstanbul: Timaş yayınları.
- Boltabayev, S. 2022. *Alişir Nevayi divanlarının dibaceleri (Giriş – Metin – Aktarma – Dizin – Tıpkıbasım)*. Ankara: AkÇağ.
- Boltabaev, S. 2022. "Navoiy devonining shoir hayotligida ko'chirilgan yangi topilgan nusxasi haqida". *Alisher Navoiy va Sharq Renessansi (xalqaro simpozium materiallari)*, 438-466. Toshkent.
- Eckmann Janos. 1970. "Nevai'nin ilk divanları üzerine". *Türk dili araştırmaları yillığı. Belleten* 13: 253-262. Ankara.
- Erkinov, A. 2018. "Badoyi' ul-bidoya"ning Navoiy davrida ko'chirilgan va yangi aniqlangan sanali beshinchi qo'lyozmasi (888 yil, safar oyi/1483 yil, mart-aprel)". *Alisher Navoiy va XXI asr*, 51-57. Toshkent: Turon iqbol.
- Erkinov, A. 2017. "Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy"si va uning protodevoni masalasi". *Alisher Navoiy va XXI asr*, 19-38. Toshkent: Tamaddun.
- Erkinov, A. 2018. "Badoye' ul-bidoya"ning Navoiy davrida ko'chirilgan va yangi aniqlangan qo'lyozmalari (1483 va 1485-yillar)". *Oltin bitiplar* 1: 18-31. Toshkent.
- Erkinov, A. 2021. *Mustaqilligimizning 31 yilligiga munosib tuhfa: Alisher Navoiy "Badoe' ul-bidoya"sining sakkizinchi nusxasi aniqlandi. Mustaqilligimizning 31 yilligiga munosib tuhfa: Alisher Navoiy "Badoe' ul-bidoya"sining sakkizinchi nusxasi aniqlandi (uza.uz)*.
- Erkinov, A. 2012. "Navoiyning muxlislari tomonidan tuzilgan yana bir devoni". *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 8-16. Toshkent.
- Erkinov, A., Madaliev, O. 2020. "Terma devon" yoki Navoiy "Navodir un-nihoya"sining so'nggi redaksiyasi? (Mashhadiy qo'lyozmasi asosida, 905/1499-1500 yil)". *Alisher Navoiy va XXI asr (xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari)*: 19-21. Toshkent: Mashhur-press.
- Hakimov, M. 1991. *Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar*. Toshkent: Fan.
- Imomnazarov, M. 2017. "Alisher Navoiy lirik merosi matnshunosligining dolzarb masalalari". *Alisher Navoiy va XXI asr (xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari)*: 6-10. Toshkent: Tamaddun.
- Imomnazarov, M. 2022. *Musulmon mintaq madaniyati rivojida "majoz tariqi" bosqichi. Alisher Navoiy*. 2-kitob. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Imomnazarov, M. 2018. "Uch devon muqoyasasi (Alisher Navoiy she'riyati lirik janrlar xronologiyasiga doir)". *Alisher Navoiy va XXI asr (xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari)*: 12-17. Toshkent: Turon iqbol.
- Imomnazarov, M. 2021. *XXI asr: Alisher Navoiy lirik merosi matnshunosligi*

- muammolari*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Imomnazarov, M. 2021. *XXI asr: Alisher Navoiy lirik merosi matnshunosligi muammolari*. 2-tom. Loyiha rahbari: G.Rixsieva. Loyiha ilmiy rahbari: A.Erkinov. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Jabborov, R. 2021. *Alisher Navoiy «Oqqo'yunli muxlislar devoni» va uning davr adabiy muhitida tutgan o'rnini*. 4-tom. Loyiha rahbari: G.Rixsieva. Loyiha ilmiy rahbari: A.Erkinov. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Jo'raboev, O. 2016. "Navoiy asarlari qo'lyozma va matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari". *Alisher Navoiy va XXI asr (Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari)*: 32-38. Toshkent.
- Juraboyev, O. 2020. "Kitabet Sanatının Bir Örneği Olarak Ali Şir Nevayî'nin "Bedayîü'l-Bidaye" Divanının Taşkent Nüshası". *Uluslararası Beşeri Bilimler ve Sanat Dergisi* 1: 14-27. Bolu.
- Levend A. 1958. "Türkiye kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları". *Türk dili araştırmaları yillığı. Belleten* 6: 127-209. Ankara.
- Madaliev, O. 2021. *Alisher Navoiy devonlari qo'lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi*. 5-tom Loyiha rahbari: G.Rixsieva. Loyiha ilmiy rahbari: A.Erkinov. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Madaliev, O. 2019. "Navoiy devonlari qo'lyozmalariga bitilgan kolofonlar: matn tili va ifoda uslubi". *Alisher Navoiy va uchinchi mingyillik: Navoiy merosini o'rganishning yangi ufqlari ilmiy amaliy anjuman to'plami*, 96-105. Toshkent, 2019.
- Maksudov, B. "Kodikologicheskoe opisanie spiska «Navadir an-nixaya» Navai, xranshiesgosya v biblioteke tadjiksogo natsionalnogo universiteta". *Alisher Navoiy va XXI asr (xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari)*: 9-18. Toshkent: Mashhur-press.
- Murodov, M. 1971. *O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan*. Toshkent: Fan.
- Navoiy dastxati* (Navodir un-nihoya). 1991. Nashrga tayyorlovchi, so'z boshi muallifi: S.G'anieva. Toshkent: Fan.
- Salohiy, D. 2004. *"Badoyi' ul-bidoya" malohati*. Toshkent: Fan.
- Navoiy asarlari lug'ati*. 1972. Tuzuvchilar Shamsiev P., Ibrohimov S. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Suleymanov, X. S. 1955-1961. *Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi*. V trex tomax. Tom perviy. Tashkent-Moskva.
- Turdialiev, A., Erkinov, A. 2018. "Badoyi' ul-bidoya"ning Navoiy davrida ko'chirilgan va yangi aniqlangan sanali oltinchi qo'lyozmasi (Sultonali Mashhadiy, Hirot, 889/1484-1485 yil)". *Alisher Navoiy va XXI asr*, 57-62. Toshkent: Turon iqbol.
- Volin, S. 1946. «Opisanie rukopisey proizvedeniy Navoi v Leningradskix sobraniyax». *Alisher Navai*, 203-235. Pod red. K. Borovkova. Moskva-Leningrad: Izdatelstvo AN SSSR.
- Yusupova, D. 2017. "Navodir un-nihoya" faqat g'azallardan iborat devonmi?" *Alisher Navoiy va XXI asr*, 54-60. Toshkent: Tamaddun.
- Yusupova, D. 2016. "Xazoyin ul-maoniy": tuzilish qonuniyatlari, tarkibiy xususiyatlari". *Alisher Navoiy va XXI asr (Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari)*: 152-158. Toshkent.

Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror” asarining nashrlari xususida

Jamoliddin Jo'rayev¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” nomli masnaviysi nashrlarining tahlili o'z aksini topgan. Asarning butun dunyo bo'ylab qo'lyozma nusxalari mavjud. Jumladan, Istanbul, Nyu-York, Parij, Tehron, Qozon, Vena, Tbilisi va boshqa joylar. Nashrga tayyorlovchilar asar nashrini ana shu qo'lyozma nusxalar asosida tayyorlagan. Asarning eng birinchi bosma nashrlar XIX asrda Qozon shahrida amalga oshirilgan. Keyinchalik XX asrga kelib O'zbekistonda va XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib turkiyalik olimlar tomonidan ham nashr qilindi. Tadqiqotda mazkur nashrlarning farqli va o'xshash jihatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: *nashr, nusxa, arxiv, tarix, madaniyat, kutubxona, meros.*

Kirish

Haydar Xorazmiyning shu paytga qadar “Maxzan ul-asror” deb nomlanib kelingan, ammo so'nggi tadqiqotlarda uning nomi “Gulshan ul-asror” ekanligi aniqlandi. Mazkur asarni o'rganishga qiziqish, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmida Rus va Yevropa shaqshunos-turkologlari tomonidan boshlandi. Biroq shuni aytish kerakki, bu sohada olib borilgan ishlar dastlabki ish bo'lib, “Maxzan ul-asror” (“Gulshan ul-asror”)ni nashr ettirish, uning qo'lyozmalari haqida ma'lumot berish, asardan olingan ayrim parchalarning nasriy tarjimlarini keltirishdan iborat edi, xolos [Абдуллаев 1976, 4].

XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib turkiyalik olimlarda ham Haydar Xorazmiy ijodiga qiziqishning paydo bo'lganini ular tomonidan amalga oshirilgan turli hajmdagi tadqiqotlardan ko'rish mumkin.

Hozirgi kunda dunyoning turli qo'lyozma fondlarida “Gulshan

¹ Jo'rayev Jamoliddin Aminjonovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti.

E-pochta: dzhuraev_dzhamoliddin@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2337-5767

Iqtibos uchun: Jo'rayev, J. A. 2022. “Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror” asarining nashrlari xususida”. *Oltin bitiglar* 4: 20–32.

ul-asror"ning o'n beshdan ziyod nusxasi saqlanadi. Ular quyidagilar:

- 1) Istanbul universiteti kutubxonasidagi 1423 FY raqamli nusxa;
- 2) Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Ayosofya bo'limida 4757-raqamli nusxa;
- 3) Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasida 978-raqamli nusxa;
- 4) Spenser Koll Nyu-York jamoat kutubxonasidagi 41-raqamli nusxa;
- 5) Gruziya Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar institutidagi L 22-raqamli nusxa;
- 6) Qozon davlat universiteti qo'lyozmalar kutubxonasida ham asarning ikki nusxasi mavjud bo'lib, birinchisi Gotvald tomonidan 1858-yilda yozilgan. Ikkinchi nusxa esa T 1356-raqami bilan saqlanib kelinmoqda.
- 7) Kanada qo'lyozma fondlarining birida 04291-raqamli nusxa;
- 8) Eron milliy kutubxonasida 13524-raqami bilan qayd qilingan nusxa;
- 9) Istanbuldagi To'pqopi saroy muzeyi kutubxonasidagi hujjatlar xazinasida TSMK E.H 1460-raqamli nusxa;
- 10) Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi Asad Afandi kolleksiyasida 2578-raqamli nusxa;
- 11) Dublindagi Chester Beatty kutubxonasida 433-raqamli nusxa;
- 12) Venadagi Xofburg imperator saroyi va Avstriya milliy kutubxonada N. F. 148 11-raqamli ikki nusxa;
- 13) Londondagi Britaniya kutubxonasida 7914 va Or. 3491-raqamli nusxa.

XIX asrning o'rtalarida Qozon universitetining Sharq adabiyoti bo'limi musulmon Sharq xalqlari tarixi va madaniyatini o'rganuvchi o'quv va ilmiy markazga aylanadi. Bu davrda ilmiy fanlar – turkologiya, eronshunoslik, arabshunoslik va boshqa ilmfanlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Bu borada Qozon universiteti sharqshunoslari X. D. Fren, I. Xalfin, F. I. Erdman, A. K. Kazem-Bek, S. I. Nazaryans, I. N. Beryozin, V. F. Dittel, I. F. Gotvald va boshqalarning tadqiqotlari e'tiborga molik ishlar hisoblanadi [Валеев, Абидулин, Валеева 2016, 101-116]. Shular orasidan I. N. Beryozin va I. F. Gotvald Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asari xususida tadqiqot olib boradi. Xususan, 1857-yil rus olimi I. N. Beryozin tomonidan Qozon shahrida "Turk adabiyoti xrestomatiyasi" [Берёзин 1857,

274-287] nomli to'plam nashr etiladi. Unda turkiy adabiyotga oid ko'plab asarlardan lavhalar keltirilgan. Jumladan, "Qutadg'u bilig", "To'xtamish yorlig'i", "Temur Qutlug' yorlig'i", "Me'rojnoma", "Tazkirat ul-avliyo", "Baxtiyornoma", "Boburnoma", "Majolis un-nafois", "Vaqfiya", "Munshaot" kabi asarlardan olingan parchalar bilan bir qatorda Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asaridan ham ayrim lavhalar keltirilgan. Biroq asar muallifi va nomini "Отрывок из поэмы Мир Алишер Навои в Пятёрнице "مخزن الاسرار", ya'ni Alisher Navoiyning "Xamsa"sidagi "Maxzan ul-asror" asaridan lavha deb atagan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, Beryozin "Gulshan ul-asror"ni nashrga tayyorlashda to'rt qo'lyozmadan foydalangan. Biroq qaysi nusxalardan foydalanganini aniq ko'rsatmagan. Jami baytlar soni 231 bayt.

Qozon toshbosma nusxasi Yusuf Kutvol tomonidan 1858-yil 19-mart kuni tayyorlangan. "Maxzan ul-asror" ("Gulshan ul-asror") ning bosma nusxasiga ruxsat berildi" jumlasini asarning so'nggi betida keltirilgan. Qozon universitetining professori I. Gotvald ("Gulshan ul-asror"ning Qozon bosma nashrining oxirgi varag'ida nashrga tayyorlovchining ismi يوسف كوتوال deb yozilgan, demak yevropacha ko'rinishdagi Iosif Gotvaldning ismi Sharq an'anasiga ko'ra "Yusuf Kutvol" shaklida ifodalangan) Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" asarini ikki qo'lyozma (Qozon va Vena) nusxalari asosida nashrga tayyorlab, 1858-yilda arab imlosida e'lon qiladi [Gotvald, 1858, 32].

Kitobda masnaviylar ikki ustunda yozilgan, sarlavhalar yo'q. Toshbosma bo'lishiga qaramay, har bir varaqda sahifa raqamlari bilan birga poygirlar ham mavjud. Kitobdagi baytlar soni 607 ta.

A.Pave de Kurteyl tomonidan 1882-yili Fransiyada "Me'rojnoma" nomli tayyorlangan nusxaning 62-95-sahifalarida Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" ("Maxzan ul-asror") asari joylashtirilgan [Courteille 1882, 62-95].

Rieu, Charles Pierre Henrining "Britaniya muzeyidagi turk qo'lyozmalari katalogi"da Britaniya kutubxonasidagi "Gulshan ul-asror" ("Maxzan ul-asror") nusxalarining ikkinchisi, Or. 3491-raqamli qo'lyozmasi to'g'risida qavs ichida ma'lumot keltiriladi (Qo'shimcha 7914, folga. 121a-123a) (Pave de Kurteylning uchinchi ko'chirmasi, Me'rojnoma, 59-bet.) [Rieu 1888, 298-299].

Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan A. Pave de Kurteyl tomonidan 1882-yil ko'chirilgan "Merojnoma" nomi ostidagi 62-95-sahifalarga joylashtirilgan Haydar Xorazmiyning

"Gulshan ul-asror" asari tavsifi quyidagicha: (Exstrais du مخزن میر حیدر manuscript ougour appartement a Monsieur Guy le Strengé) مخزن میر حیدر "Maxzan mir Xaydar" qo'lyozmasidan lavha [Iosif Gotvald, 1858, 32]. Sarlavhadan oldin noma'lum o'quvchi tomonidan ingliz tilida "Brition bib. Add. 7914 (pp 115-141)" jumlasini keltirilgan. Ya'ni Britaniya kutubxonalarida 7914-raqami ostida (115-141 sahifalar) saqlanayotgan nusxadan olingani yozilgan.

Kurteyl asarning kirish qismida "Gulshan ul-asror" ("Maxzan ul-asror")ni eski uyg'ur yozuvidagi qo'lyozmaga asoslanib nashrga tayyorlagani, asar uyg'ur yozuvida xattot Alishoh baxshi tomonidan ko'chirilgani, undagi ba'zi xatolarni esa kotib Malikshoh baxshi tuzatganini eslatib o'tadi. [Абдуллаев 1976, 5]. Kitobda jami baytlar soni 249 ta.

XX asrga kelib o'zbek adabiyotshunosligida akademik Oybek, V. Zohidov, H.Zarif, I. Sultonov, A. Hayitmetov, A.Abdug'afurov, E.Rustamov, S.Erkinovning XV asr o'zbek adabiyotiga oid tadqiqotlari yaratildi. Professor Xodi Zarif Haydar Xorazmiy ijodiga diqqat qaratib, Nizomiy Ganjaviyning 800 yillik yubileyi arafasida (1947-yil) nashrga tayyorlangan "Guldasta" to'plamiga ilk marta "Maxzan ul -asror" ("Gulshan ul-asror") asaridan namuna e'lon qiladi [Абдуллаев 1976, 5].

1963-yili E. Rustamovning "Узбекская поэзия в первой половине XV века" [Рустамов 1963, 82] kitobida Haydar Xorazmiyga tegishli ayrim baytlar kiritilgan. Manba sifatida Britaniya kutubxonasida mavjud bo'lgan 337 varaqli, arxiv raqami 7914 bilan ro'yxatga olingan nusxa asos qilib olingan. Ushbu nusxaning 115-141-sahifalarida "Maxzan ul-asror" keltirilgan bo'lib, u hijriy 914 (milodiy 1509) yili Hirotda Hasan Jahon Ansoriy ismli kotib [Charles Pierre Henry 1971, 209] tomonidan ko'chirilgan.

E. Rustamov "Gulshan ul-asror"ning *Ko'fada bir piri laduniy sabaq, / Sayr eta bozorg'a qo'ydi ayaq* deb boshlanuvchi hikoyasidan olingan 9 baytni XV asr o'zbek adabiy tili namunasi sifatida keltiradi:

کوردي بو بزاز بوزيني آچيب
يورقولردي بير نيچه توکروک ساچيب
کيم ماموغي سست و ايبي دور يوغان
بوزچي اشوقوب ني کيراک توقوغان
تونقه یرمسکه بویا تسه کيشی
يوسا خود انجاق دور انینگ ايشی

[Рустамов 1963, 82] کونگلاک و ايشتانغه جولايق ایماس

Ammo olim o'z kitobida baytlarni ketma-ketlikda bermagan.

Hatto quyidagi bir misra tashlab keltilgan:

هر نی بها بیر لا موافق ایماس

Keyin esa ushbu bayt bilan davom etadi:

قاییسی خریدار غه بولسون پسند
قیدا تبیین منکا من بیر لوند

Orada yana quyidagi besh bayt qoldirilib, so'ngra ushbu baytlar bilan davom ettiriladi:

کوز بیله هم کیلتوروب اول بوزنی کم
خواجه انکه بیردی بیر ایکی درم
تارتیب آیاق استیدا تورلوک ملال
بیقلا قوپا اوز اوینه باردی زال
بیلگولادی بوزنی اول ابدال راه
کوز اوچیدین باش توتوب کینه خواه
کیلدی بوز آماقچه بیر او ناگهان
دیدى کیم ای خواجه روان بول روان
اینچکه و نازک و هموار و پاک
بیکیں بر زناک بولماسون ایفت
خواجه دیدیکیم اوزاتما سوزونگ
بوز بیراین کورمامیش اولسون کوزنگ
ماموغودور پیله دین ظریف
ایپ لیگی کتان ایپیدین لطیف
پخته و هموار توقولغان بوزی
کورماکا روسی دین اریغراق اوزی
کورماس ایکاج بولدی خریدار لال
تاپلادی و قیلدی بهاسین سوال
اوردی بهاسین تینگیز دین تیرینک
سالدی اوشال بیزنی کتان بیر لا تینک [Рустамов 1963, 82]

E. Rustamov qadimgi adabiy o'zbek tilining shaklini ko'rsatish maqsadida faqat kerakli bo'lgan baytlarni keltirish bilan kifoyalangan bo'lishi mumkin.

1963-yili turkiyalik olim Rashid Rahmatiy tomonidan "Gulshan ul-asror"ning 33 baytdan iborat qismini qadimgi turkiy (o'zbek) va turk tillarida nashr qildiradi [Arat 1963, 121-138]. Rashid Rahmatiyning "Bir Yazı Nümûnesi Münâsebeti ile" (Bir yozuv namunasiga munosabat) nomli maqolasida Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asarini "Maxzan ul-asror" nomi bilan keltiradi. Muallif maqolada Britaniya kutubxonasida 7914-raqami bilan ro'yxatga olingan hijriy 914 (milodiy 1509)-yili Hirotda Hasan Jahon

Ansoriy ismli kotib tomonidan ko'chirilgan nusxa haqida ma'lumot beradi. Unda jami 16 qismdan iborat masnaviy mundariyasi keltiriladi. Ammo maqolada asarning jami necha baytdan iborat ekanligi ko'rsatilmaydi. Buning sababi masnaviy tartibsiz holatda yozilganligi bo'lishi mumkin. Chunki ba'zi masnaviylar hoshiyaga yozilgan, ba'zi baytlar esa noma'lum kotib tomonidan keyinchalik kiritilgan.

Maqolada har bir masnaviyning birinchi va oxirgi baytlari mundarija sifatida beriladi. So'ngida "Maxzan ul-asror" ("Gulshan ul-asror")ning "Kitob yozilishining sababi" qismida 33 bayt lotin yozuvidagi transkripsiyasi, arab alifbosida va turk tilidagi tarjimasi beriladi. Berilgan matnning 28 baytidan boshlab 6 baytdan iborat "So'z boshi" davom etadi. Maqola oxirida ushbu masnaviylarning izohli turkcha tarjimasi ham keltirilgan.

Professor O.Jo'rayev tomonidan ham Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asarini uch marotaba nashr qildirilgan. Birinchisi, 1982-yilda mumtoz o'zbek adabiyotidan namunalar sifatida "Asrlar nidosi" nomli to'plamda chop etildi [Хоразмий 1982, 3-33]. Ikkinchisi, 1987-yil "O'zbek adabiyoti bo'stoni" ruknidagi "Muborak maktublar" nomli to'plamda ham qayta nashr qilinadi [Муборак мактублар 1987, 211-246]. Uchinchisi, 1990-yil "Alisher Navoiyning epik poeziyadagi turkigo'y salafi" nomli monografiyasiga ilova sifatida ham asar to'liq berilgan [Жўраев 1990, 49-79].

O. Jo'rayev tadqiqotlaridagi "Maxzan ul-asror"ning asl nomi "Gulshan ul-asror" ekani to'g'risidagi fikrlar e'tiborlidir: "Haydar Xorazmiy bilan bir asrda yashagan Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy va Bobir "Gulshan ul-asror"ni original asar sifatida baholaydilar. Davlatshoh Samarqandiy Haydar Xorazmiy haqida "...u shayx Nizomiy "Maxzan"iga turkiy tilda javob yozib, uni shahzoda Iskandarga bag'ishlagan" desa, Alisher Navoiy "Majolisun-nafois"da Haydar ijodi to'g'risida gapirib, she'riy misol keltiradi va uni "Bu aning masnaviysidurkim (tarjimasidan emas - O.J.)", deb yozadi. Bobirning "Muxtasar"ida esa, quyidagilarni o'qiymiz: "Masnaviy vaznlaridan biri budur. Bu vaznda dog'i xeyli masnaviylar aytibdururlar, ul jumladan, shayx Nizomiyning "Maxzan ul-asror"idur, yana Mavlono Haydar Xorazmiy turkiygo'ylikning "Gulshan ul-asror"idur pand-u nasihatga yaxshi abyoti bor..." [Жўраев 1985, 72].

"Muborak maktublar" nomli to'plamining kirish qismida filologiya fanlari nomzodi M. Abduvahidova tomonidan keltirilgan fikrlar ham diqqatga sazovor: "To'plamga kiritilgan asarlardan yana biri Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asaridir. Bu

ilgari “Maxzan ul-asror” deb nomlanar edi. Bu asar mohiyat e’tibori bilan Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” asarining oddiy tarjimai bo’lmay, balki original kashfiyot darajasiga ko’tarilgan”. Ushbu asarni nashrga tayyorlashda asosan Londonning Britaniya muzeyi qo’lyozmalari fondida saqlanayotgan Hirot, Qohira hamda 1858-yilda Qozonda nashr etilgan nusxalardan foydalanilganligi ta’kidlangan [Муборак мактублар 1987, 8]. Biroq asarning qaysi raqamli qo’lyozmalarga oid ekanligi berilmagan. Jami baytlar soni 526 ta.

Turkiyalik tadqiqotchilar tomonidan ham ikkita nashr amalga oshirilgan. Birinchisi, 2000-yili Istanbulda Ayet Abdulaziz Xoja tomonidan nashr etilgan [Ayet 2000, 2-56]. Noshir asarni turk tilida nashr qildirgan. Ushbu nashr Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Ayosofya bo’limida 4757-raqami bilan ro’yxatga olingan, Istanbulda Shayhzoda Abdurazzaq Baxshi tomonidan uyg’ur yozuvida ko’chirilgan nusxa asosida tayyorlangan. 559 ta bayt bor [Serkar 2019, 3].

Ikkinchisi, 2008-yil Istanbulda Avni Go’zo’tok tomonidan turk tilida nashr qilingan. Avni Go’zo’tok bu nashrga 1858-yilgi Qozon nusxasi (Yusuf Kutvol nashri), shuningdek, Istanbuldagi Milliy kutubxonaning Ali Amiriy kolleksiyasidagi 951-raqamli nusxa, Fransiya milliy kutubxonasidagi 978-raqamli qo’lyozma, Sulaymoniya kutubxonasining Ayosofya bo’limida saqlanuvchi 4757-raqamli qo’lyozma va To’pqopi saroyining Evrak xazinasidagi 1460-raqamli qo’lyozmalar asos qilib olingan. Kitobdagi jami baytlar soni 619 ta [Gözütok 2008, 7].

2019-yili nashr qilingan “XIV-XV Yüzyıllar Türk Edebiyatı” kitobida ham Haydar Xorazmiy haqida qisqacha ma’lumot berilib, unda shoirning “So’z ta’rifida” masnaviysining 5 bayti va uning turk tiliga tarjimai berilgan [XIV-XV. Yüzyıllar türk edebiyati, 2019, 93].

Yuqorida nomlari keltirilgan nashrlar bir xil hajmga ega emas. Masalan, Beryozin tayyorlagan nashrda to’qqizta masnaviy, jami 231 bayt bor. Bu nashrda Alloh taologa hamd va Muhammad (s.a.v.) na’ti keltirilmagan.

Kurteyl nashrida ham to’qqizta masnaviy keltirilgan, ammo baytlar soni 249 ta. Bu nashrda ham hamd va na’t qismidan quyidagi ilk ikki bayt berilmagan:

جمله رسول سروری دور مصطفی
کان کرم معدن صدق و صفا

قرب مقامیدا آجیب اله
عالم و آدم غه قیلیل انی شاه

Bunga sabab Kurteylning uyg'ur yozuvida yozilgan nusxaga asoslangani bo'lsa kerak. Chunki ushbu qo'lyozmada ham "Jumla Rasullar sarvaridur Mustafo" deb boshlanuvchi yuqoridagi ikki bayt yo'q.

Iosif Gotvald (Yusuf Kutvol) nashrida yigirma ikkita masnaviy, jami 607 bayt bo'lib, bu nusxani bosma nashrlar ichida eng to'lig'i deyish mumkin.

O. Jo'rayev tomonidan tayyorlangan nashrlarning ikkisi ham sobiq ittifoq davrida nashr qilingani sababli yuqoridagi nashrlardagi kabi Alloh taologa hamd va Muhammad sallohu alayhi vasallam na'ti keltirilmagan. "Asrlar nidosi" to'plamida esa "Amir Temur" hikoyati nashrga kiritilmagan. Uchinchi marotaba nashr qilinganda, hamd va na'tlar bilan birga to'liq nashr qilinadi.

Ushbu nashrlarning qiyosiy tadqiqi natijasida baytlar joylashuvida ham har xilliklar borligi ma'lum bo'ladi. Masalan, *Ey sharaf ichra iki olamg'a toj, / Yetti falak masnadungg'a ber davoj* deb boshlanuvchi masnaviy Kurteyl nashriga umuman kiritilmagan. Hikoyat Iosif Gotvald (Yusuf Kutvol) nashrida 29 baytdan iborat bo'lsa, Beryozin nashrida 20 baytdan iborat. Shuningdek, Beryozin nashrida quyidagi 9 bayt mavjud emas.

شيشه نى سالغىل كيم اوشالسون تمام
كورگىل ايچيده نه قالور و السلام
شامى نفس چيكتى و صبح اوردوى دم
قالدى ارا يرده شفق منتهم
زلفينى كيستى بُت خورشيد روى
توشتى مجالس ايچيندا گفت گوى
باغلادى اول غمزه ارا بيرده راه
بولدى اييلغان كيشيدىن باج خواه
قيلىدى فدا گلشن ايچيدا نسيم
زلزلة الساعة شئ عظيم
مين كه نظاره بيلا سالدیم نظر
كوز اوچيدىن باقتيم و تاپديم اثر
سوزدا ايتوردوم خبرين انگلاماي
حرفدا تابديم اوزيني تينگلاماي
سين تقى همت بيله اور غيل قدم
سير و سلوك ايچره كوتركيل علم
همتينگ اول يرگه نظرلار قيلور
خوار ساغينيمه كه اثرلار قيلور

Ushbu baytlarning Beryozin nashriga kiritilmagani sababli masnaviy tugallanmay qolgan.

Yana:

*Chunki Temurbek burun etti xuruj,
Davlati topmaydur erdi bu uruj!*

Mazkur Amir Temurga bag'ishlangan hikoya matnida ham ba'zi nashrlarda farqli jihatlar bor. Professor O. Jo'rayev tomonidan nashrga tayyorlangan "Muborak maktublar" to'plamda bor bo'lgan quyidagi:

همتى بولسه كيشنينگ جاندا دورور
اير يوليده جان بيروور آسان بولور

bayti Kurteyl, Beryozin va Qozon bosmada yo'q.

Kurteyl va Beryozin, 29 baytdan iborat bo'lsa O. Jo'rayev nashrlarida 26 bayt, Gotvald nashrida esa bu uch nashrda mavjud bo'lmagan yana 9 bayt bor. Ammo ushbu bayt Beryozin nashrida *Bo'l nafsi dunyo ishindin malul, / Oqil esang qil bu nasihat qabul!* deb boshlanuvchi masnaviyning oxirgi 8 bayti sifatida keladi. Quyidagi bir bayt esa Amir Temurga bag'ishlangan oxirgi 9 baytning orasida Gotvald nashrida bor bo'lgan, ammo Beryozin nashrida yo'q:

ای یرینگیز توری اویاتلیغ یوزوم
برچه سیزینک بیرلا دور اوشبو سوزوم

Turkiyalik tadqiqotchilar nashrida ham farqli jihatlar mavjud. To'qqiz baytli "Ayn hayotikim erur ul ayyon" deb boshlanuvchi bayt Avni Go'zo'tok nashrida Gotvald nashridagi kabi Amir Temurga bag'ishlangan hikoyaning oxirgi 9 bayti sifatida kiritilgan. Abdulaziz Xoja tomonidan nashrga tayyorlangan uyg'ur yozuviga asoslangan nashrida esa yo'q. O'sha baytlar quyida keltiriladi:

عين حياتی کيم ايرور اول عيان
خضر بيروور ظلمت ايچيندا نشان
کوب غم و مخنت که کورينور کزند
يحتشی کورار بولسنگ ايرور سودمند
شیواسی کوب سلمه الله درد
کوچ بيله توپراقنى قيلور مُرد مُرد
محنت ايوانيدای جکر خوارلار
فقر يولنداغی طلبکارلار
ای یرینگیز توری اویاتلیغ یوزوم
برچه سیزینک بیرلا دور اوشبو سوزوم
درد يولیدا قوينگیز اوستوار
صبر تحمل قدمين مروار
بی غلط ایتمنک بو دورور راه راست
مین نیتاین تاکی نیدور سنکا خوست

هر نه کی تحقیق بولوبدور منکا
برچه سینی بیر بیر ایندیم سنکه
قابل ایسانک یحشی قبول ایت نفس
[Gotvald 1858, 29-30] قابل و مقبول غه بو حرف بس

Beryozin nashridagi "Qofilai bir arabdin magar" deb boshlanuvchi masnaviy 27 baytdan iborat. Ammo Gotvald, Pave de Kurteyl, O. Jo'rayev, Avni Go'zo'tok va Abdulaziz Xoja nashrida ham 22 baytdan iborat. Beryozin nashri quyidagi baytlar bilan tugaydi:

خوار قیلور ایرانی بو غوزونگ غمی
شوم بو غوزین یوغسا آزار آدمی
چرخ که قان تیلار گردیشین
قویماغای ایل کونگلی اوچون درانشین
گرد و غباری که ساچر بیر یوزی
بیرقرا ساحینینگ یوزی دورو یا کوزی
سنبل اتیکیم ساچادور مشکتاب
تاکی ساچر رنگین الدی خصاب
کوردی قرا یرده صنم لار یوزین
دین آجتی کوزین نرگیسی اوشول سرو
کیمکه نیچون نقدین اینگدوک غبار
ارتوق اسورکان قوسار ا تیلار توتار
الماق و بیرماک خوشنورجهان
ایستین بیر کین که بو دور قوت جان [Beryozin 1857, 287]

Yuqorida ta'kidlanganidek, Beryozin nashrida bunday holatda bo'lishining sababi, bizningcha nashrga tayyorlash uchun asos qilib olingan qo'lyozma nusxasi tartibsiz holatda bo'lgan, Beryozin shu 7 baytni ushbu hikoyaning oxiriga joylashtirgan. Demak, Beryozin xato nashr qilishi oqibatida boshqa nashrlardan yetti bayt ortiqcha bo'lib qolgan. Aslida oxirgi 7 bayti ushbu masnaviyga tegishli bo'lmay, balki to'rtinchi xalifa hazrati Ali roziyallohu anhuga bag'ishlangan masnaviyga taalluqlidir. Yana shuni aytish joizki, ushbu yetti bayt boshqa nashrlarda Hazrat Aliga bag'ishlangan hikoyatning oxirgi 7 bayti bo'lib keladi.

Xulosa

Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asari yaratilganiga olti yuz yil bo'lgan bo'lsa-da, uning ijoodiga qiziqish susaygani yo'q. XIX asrga kelib asar ko'plab nusxada nashr etildi. Asarning eng birinchi bosma nashrlari XIX asrda Qozon shahrida Beryozin va Gotvaldlar tomonidan amalga oshirilgan. Keyinchalik XX asrda

O'zbekistonda Xodi Zarif, Olimjon Jo'rayev, shuningdek, XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib turkiyalik olimlar Rashid Rahmatiy, Avni Go'zo'tok va Abdulaziz Xoja tomonidan ham nashr qilindi.

Baytlar turli nashrlarda o'rni almashib qolinishi sabablari qo'lyozma nusxalar asosida nashrga tayyorlanishida deb hisoblaymiz. Bu noyob asarni tadqiq etish va ilmiy-tanqidiy nashrlarini amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, Н. 1976. *Ҳайдар Хоразмий ва унинг “Махзан ул-асрор” асари*. Тошкент: Фан.
- Асрлар нидоси. 1982. Мумтоз ўзбек адабиётидан намуналар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Ayet Abdulaziz Goca. 2000. *Haydar tilbe'nin Mahzenu'l esrar mesnevisi*. Istanbul.
- Березин, И.Н. 1857. *Турецкая хрестоматия*. Печатоно в типографии университета. Казан.
- Валеев, Р. М., Абидулин А. М., Валеева Р. З. 2016. Университетская тюркология в казани: традиции и новации (XIX – нач. XX вв.)”. Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. *Филологические науки* 2 (68): 101–116.
- Gözütok, Avni. 2008. *Haydar Tilbe Mahzenü'l-Esrâr*. Erzurum: Fenomen Yayınları.
- Жўраев, О. 1990. *Алишер Навоийнинг эпик поэзиядаги туркизўй салафи*. Тошкент: Фан.
- Жўраев, О. 1985. *Ўзбек классик адабиётида фалсафий-дидактик дostonчилик*. Тошкент: Фан.
- Haydar Xorazmiy. 1858. *Gulshan ul-asror*. Nashrga tayyorlovchi Iosif Gotvald (Yusuf Kutvol). Qozon.
- A. Pavet de Courteille. 1882. *Miradj-name*. Pubiya pour la premeyre fois d'apreis le manuskrit ougour de la Bibliotheque Nationale, Paris.
- Rieu, Charles Pierre Henri. 1888. *Catalogue of The Turkish Manuscripts in British Museum*. London: Gilberi and Rivington, Limited, St. John's Houer Clarkenwell Road.
- Муборак мактублар. 1987. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Çakmak, Serkan. 2019. “Mahzenü'l-Esrâr'ın Uygur Harfli Ali Şah Bahşı Nüshası”. *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi TAED*-66: 331-354. DOI: 10.14222/Turkiyat4226

About the publication of the work "Gulshan ul-asror" by Haydar Khorazmiy

Jamoliddin Juraev¹

Abstract

This article reflects the analysis of the editions of Haydar Khorazmi's masnavi "Gulshan ul-asrar". There are manuscript copies of the work all over the world. Including Istanbul, New York, Paris, Tehran, Kazan, Vienna, Tbilisi and other places. The editors prepared the edition of the work based on these manuscripts. The first printed editions of the work were made in the 19th century in the city of Kazan. Later, it was published in Uzbekistan by the 20th century and by Turkish scientists at the end of the 20th century and the beginning of the 21st century. Different and similar aspects of these publications were studied in the research.

Key words: *publication, copy, archive, history, culture, library, heritage.*

References

- Abdullaev N. 1976. *Haydar Xorazmiy va uning "Maxzan ul-asror" asari*. Toshkent: Fan.
- Asrlar nidosi*. 1982. Mumtoz o'zbek adabiyotidan namunalar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Ayet Abdulaziz Goca. 2000. *Haydar tilbe'nin Mahzenü'l esrar mesnevisi*. Istanbul.
- Beryozin, I.N. 1857. *Tureskaya xrestomatiya*. Pechatono v tipografii universiteta. Kazan.
- Valeev R. M., Abidulin A. M., Valeeva R. Z. 2016. Universitetskaya tyurkologiya v kazani: traditsii i novatsii (XIX – nach. XX vv.)". Uchenie zapiski Krimskogo federalnogo universiteta imeni V. I. Vernadskogo. *Filologicheskie nauki* 2 (68): 101–116.
- Gözütok, Avni. 2008. *Haydar Tilbe Mahzenü'l-Esrâr*. Erzurum: Fenomen Yayınları.
- Jo'raev, O. 1990. *Alisher Navoiyning epik poeziyadagi turkigo'y salafi*. Toshkent: Fan.
- Jo'raev, O. 1985. *O'zbek klassik adabiyotida falsafiy-didaktik dostonchilik*.

¹ Jamoliddin A. Juraev – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor of Jizzakh State Pedagogical University.

E-mail: dzhuraev_dzhamoliddin@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2337-5767

For citation: Juraev, J. A. 2022. "About the publication of the work "Gulshan ul-asror" by Haydar Khorazmiy". *Golden scripts* 4: 20–32.

Toshkent: Fan.

Haydar Xorazmiy. 1858. *Gulshan ul-asror*. Nashrga tayyorlovchi Iosif Gotvald (Yusuf Kutvol). Qozon.

A. Pavet de Courteille. 1882. *Miradj-name*. Pubiya pour la premeyre fois d'apreis le manuskrit ougour de la Bibliotheque Nationale, Paris.

Rieu, Charles Pierre Henri. 1888. *Catalogue of The Turkish Manuscripts in British Museum*. London: Gilberi and Rivington, Limited, St. John's Houer Clarkenwell Road.

Muborak maktublar. 1987. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

Çakmak, Serkan. 2019. "Mahzenü'l-Esrâr'ın Uygur Harfli Ali Şah Bahşı Nüshası". *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi TAED-66*: 331-354. DOI: 10.14222/Turkiyat4226

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE**Qadimgi turkiy she'riyatda qo'llangan
badiiy san'atlar va ularning matn
stilistikasiga ta'siri**Gavhar Rahmatova¹**Abstrakt**

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asari ilk turkislom muhiti, madaniyati, ilm-fanining yorqin namunalaridan biri, turkiy xalqlar og'zaki she'riyatini o'zida jamlagan qimmatbaho manbadir. Asar umumturkiy madaniyat va badiiy tafakkurini o'zida aks ettiruvchi xalq og'zaki ijodi namunalarini jamlagani uchun unga qiziqish katta. Asardan joy olgan she'rlar o'zining tematikasi, badiiy qiymati va semantikasi bilan o'zgacha.

"Devonu lug'ati-t-turk"dagi she'riy uzindilarda keltirilgan tashbih, tazod, istiora, tajnis, takrir, mubolag'a, irsoli masal kabi badiiy san'atlar turkiy xalqlar adabiyotida dastlabki qo'llangan badiiy tasvir vositalaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu bois maqolada asarda keltirilgan marsiya, lirik, jangnoma va pandnoma turkum she'rlardagi badiiy san'atlar tahlilga tortilgan. She'rlardagi badiiy san'atlarning qo'llanish doirasi ochib berilgan.

Kalit so'z: *she'riy uzindi, xalq og'zaki ijodi, badiiy tavsir vositasi, badiiy san'at, semantika, stilistika.*

Kirish

She'r ma'lum qonun-qoida asosida shakllantirilar ekan, bunda badiiy tasvir vositalarining o'ziga xos o'rni mavjud va ular adabiy asarlarda yuksak mahorat bilan aks etadi. Xususan, "bu mahorat dastlab, xalq og'zaki ijod namunalarida o'z aksini topgan" [Рустамий 2017, 7].

"O'zbek lirik she'riyatining boshlanishi deganda, biz aso-

¹ *Rahmatova Gavhar Omonovna* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Oriental universiteti.

E-pochta: gokki1990@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-8142-6465

Iqtibos uchun: Rahmatova, G. O. 2022. "Qadimgi turkiy she'riyatda qo'llangan badiiy san'atlar va ularning matn stilistikasiga ta'siri". *Oltin bitiglar* 4: 33–46.

san, o'rta asrlar klassik adabiyotini tushunamiz. Aslida esa turkiy, xususan, o'zbek lirik she'riyati ildizini, poetik mahorat masalalarini ancha naridan – qadimgi og'zaki she'riyatsdan boshlaganimiz to'g'ri" [Содиқов 2016, 20]. Aynan, xalq og'zaki ijodi namunalarida keyingi davr yozma adabiyoti uchun manba vazifasini o'tagan go'zal tashbih, tajnis, irsoli masal, tanosub, mubolag'a, istiora kabi badiiy san'atlar qo'llangan. Buning isboti sifatida "Devonu lug'ati-t-turk" asaridagi uzindilarni keltirish mumkin. Shu jihatdan, asardagi parchalarda mumtoz adabiyotimizdagi an'anaviy tashbih, tazod va istioralarning o'q ildizlariga duch kelamiz.

Bugungi kunga qadar turkiy, xususan, o'zbek adabiyoti tarixida qo'llangan badiiy san'atlarga bag'ishlangan ilmiy asarlar yaratilgan.

Ularning ko'pi, turkiy adabiyot yoki Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan. Bunga A. Husayniy [Хусайний 1981], A. Hojiahmedov [Хожиаҳмедов 2001], Y. Is'hoqov [Исҳоқов 2006], A. Rustamov [Рустамов 1979], S. Rustamiy [Рустамий 2017; 2023] va boshqa tadqiqotlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'ati-t-turk" asarida turkiy so'zlar ma'nosini ochiqlash uchun xalq og'zaki ijodi namunalari: maqol, matal hamda she'riy uzindilardan misollar keltirilgan. Asardagi she'riy parchalarning umumiy soni 253 ta bo'lib, ularning to'rttasi arabcha, qolganlari turkiy. Shundan 12 ta turkiy she'r ikki martadan takror qo'llangan.

Og'zaki she'riyat namunalari turkiy xalqlarda juda qadimdan xalq qo'shiqlari ko'rinishida shakllangan ekan, u, albatta, yozma adabiyot uchun mustahkam zamin vazifasini bajargan. Buni asarda keltirilgan uzindilar, ularda qo'llanilgan badiiy san'atlar misolida ko'rish mumkin.

Tashbih

"So'z san'at darajasiga ko'tarila borganda paydo bo'lgan birinchi san'at – tashbih"dir [Паҳмонов 2001, 3]. "Devonu lug'ati-t-turk"dagi uzindilarda keltirilgan tashbihlar o'zining o'quvchi ko'ngilga yaqinligi, sodda va ayni paytda mazmundorligi bilan ajralib turadi.

Asardagi she'riy parchalar mavzusi rang-barang. Shu bois tashbihlar ham o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Uzindilarda tashbihning ham vositali, ham vositasiz turlari teng qo'llangan. Lirik va ov tasviriga bag'ishlangan parchalarda, asosan, vositasiz tashbih, jangnoma va pandnoma qo'shiqlarda vositali tashbih ko'p uchraydi.

Odatda, lirik she'rlarda ko'p o'rinda ma'shuqa go'zalligi ta'rifida to'liq bo'lmagan tashbih [Исхoқов 2006, 86]dan keng foydalanilgan. Misol uchun, quyidagi uzindida ma'shuqaning yor oldidagi qo'nimsizligi musofirning o'tkinchiligiga, uning go'zalligi esa oyning chiroyiga mengzaladi:

يَلْوِيْنَ اَنَكْ كوزى	Yelwin anij kōzi,
يَلْكِيْنَ اَيَكْ اوزى	Yelkin anij ōzi.
تولُنْ اَيْنْ يوزى	Tolun ayin yūzi,
يَرْدِيْ مَنِيْكَ يورَكْ	Yardī meniñ yüräk.

Mazmuni: Uning ko'zi kishi (ko'ngli)ni ovlaydigan sehgardir. O'zi yel singari, qo'nimsiz, ko'zdan g'oyib bo'luvchi, yuzi (esa) to'lin oydir. (Bir boqishi bilan mening), yurak-bag'rimni pora-pora qildi [Кошғарий 2017, 334].

She'riy parchada yorning qadam bosib oshiq oldidan har mahal o'tib turishi go'yo *musofirga* o'xshatiladi [Содиқов 2014, 25]. Bu o'rinda mahbubaning qo'nimsizligi, diydorini juda oz fursat ko'rsatishiga ishora bor.

Bu to'rtlikda tashbihning uchta qismi ifodalangan: birinchi tashbihda *ma'shuqa*, ikkinchisida esa *yuz* mushabbih – o'xshatilayotgan narsa. Mushabbahun bih esa *yelkin* va *tolun ay*, ya'ni o'xshayotgan narsadir. Vajhi shabih, ya'ni o'xshatish sababi bu yerda bayon qilinmagan bo'lsa-da, ular *qo'nimsizlik* va *go'zallik* ekani mazmunan anglashilib turibdi. Vositai tashbih – o'xshatishli konstruksiyadagi grammatik vosita *kibi* ham har ikkala tashbihda qo'llanmagan.

She'riyatda ma'shuqa tolga o'xshatilsa, majnuntolga muhabbat ramzi sifatida qaraladi.

Mana bir misol:

أردى سَنَى قِيز	Ardī seni qiz,
بُودى اَيَكْ تالْ	Bodī anij tal.
يَيَلر اَيَكْ اَرْتُجى	Yaylir anij artučı,
بُرْنى تَقى قِقالْ	Burni taqi qıwal.

Mazmuni: Joriyani maqtab aytmoqda: Seni yumshoq badanli qiz aldadi. (Uning) badani yumshoqligidan ar'ar novdalari kabi egilar edi. Burni ham chiroyli, qirra burun edi [Кошғарий 2017, 165].

Ushbu parchada joriyaning bo'yi tolga [DTS, 528] mengzalmoqda. Bu to'rtlikda *bo'y* mushabbih, mushabbahun bih esa *tal*, vajhi shabih, ya'ni o'xshatish sababi bu yerda bayon qilinmagan bo'lsa-da, uning *nozikligi* mazmunan anglashilib turibdi. Vositai tashbih *-tek* ko'shimchasidir.

Maqtoʻv turkumidagi sheʼrlardan birida gʻam-tashvishsiz maskan (ark) jannatga qiyoslanadi:

مندا بلنر سقنج اتى قذغو اتار Mendä bulnur sewinç otı qađǵu atar,
قرشى كرب سغدىج انى اجمق اتار Qarşı körüp sağdıç anı uçmaq atar.

Mazmuni: Menda sevinch, quvonchning davosi bor, u qaygʻularni daf qiladi. Yaqinlar mening imorat(ark)imni koʻrsalar, yaxshiligidan uni jannat deb ataydilar [Кошғарий 2017, 450].

“Devonu lugʻati-t-turk”da keltirilgan jangnoma va oʻyin-kulgu turkumidagi sheʼrlarda *vositali tashbih*, yaʼni *tashbihi mutlaq-dan* [Ҳожиаҳмедов 1999, 18] keng foydalanilgan. Bunda *goʻyo*, *sin-gari*, *-day*, *-dek* kabi maʼnolarni beruvchi *-layu*, *-lāyü*, *kibi*, *bolup* soʻz va qoʻshimchalar tashbihni hosil qilishda muhim rol oʻynaydi.

Sheʼriy parchalarda *tashbih hosil qiluvchi eng faol qoʻshimcha* *-layu*, *-lāyü* dir.

Mana bir misol:

اِفرِقْ بَشي قَزْلايُو	İwriq başı qazlayu,
سَغْرَقْ تَلُو كُزْلايُو	Sağraq tolu közlāyü,
سَقْينْچ قَزَى كُزْلايُو	Saqinç quđi kezlāyü,
تُنْ كُنْ بِلَا سَقْينْلِم	Tün-kün bilä sewnālim.

Mazmuni: Ivriq [may idishi]ning boshi gʻoz boshi kabi tikdir, qorni [may turadigan qismi] koʻz (kosasi) kabi toʻlgan. Qaygʻuni uning tagiga koʻmaylig-u, kech-kunduz sevinaylik [Кошғарий 2017, 53].

Misolda *iwriq* – may solinadigan idish (mushabbah) – koʻzaning bosh qismi gʻozga oʻxshatilgan. Qorin qismi esa koʻz kosalariga qiyoslangan (mushabbahun bih). Bu tashbihda faqat oʻxshatish sababi bayon qilinmagan boʻlsa-da, sheʼr oʻqilganda oʻquvchi koʻz oʻngida oʻxshash jihatlar namoyon boʻladi.

Turkiy xalqlarda oʻz alplarini madh qilish, ularning jangovar xislatini ajratib koʻrsatishda *-layu*, *-lāyü* qoʻshimchasi faol ishtirok etgan. Bu tashbih aynan jangnoma turkumidagi sheʼrlarda koʻp uchraydi.

Misol uchun:

أَبْكَمْ كَلِبْ أَعْرَدِمْ	Öpkäm kelib oğradim,
أَرْسَلَنْ لَيُو كُكْرَدِمْ	Arslanlayu kökrädim,
أَلْبْ لَارْ بَشِنْ تُعْرَدِمْ	Alplar bašin toğradim,
أَمْدِي مَنِي كَيْمِ تُتَارْ	Emdi meni kim tutar.

Mazmuni: Yovga qarshi gʻazab bilan, nafrat bilan xezlandim,

arslonlar kabi na'ra tortdim, botirlarning boshlarini tilmaladim, so'ng ma'raka o'rtasida, «Emdi meni kim tuta oladi?» deb baqirdim [Кошғарий 2017, 63].

Qahramonning jangga kirishdagi holati arslonga qiyoslanadi. Urushga kirgan jangchining hayqirishi arslonning na'ra tortishiga o'xshatilgan.

Quyidagi misolda ham shunday holat mavjud:

تَكْرًا أَلْبَ أَكْرَلَمْ	Tegrä alir egrälim,
أَتَيْنَ تُشْبُ يُكْرَالَمْ	Attin tüşür yügrälim,
أَرْسَلَنَ لَيُو كُكْرَلَمْ	Arslanlayu kökrälim,
كُوجَى أَيْنَ كُفْلُسُونْ	Emdi meni kim tutar?

Parcha mazmuni quyidagicha: Tevarakni o'rab olib, yov yo'lini kesib qo'yaylik. Otdan tushib, g'azab bilan (yovga) hamla qilaylik. Arslonlardek na'ra tortaylik, bu harakatimizdan yov kuchi kesilib zaiflashsin [Кошғарий 2017, 212].

Afrosiyobning o'limiga aza ochgan erlar bo'ridek ovoz chiqardilar.

Bu o'xshatishlarda tashbihning har bir qismi mavjud. Birinchi she'rda lirik qahramonning o'zi, ikkinchi she'rda esa eranlar mushabbihdir. Mushabbahun bih esa *arslan* va *böri*, ya'ni o'xshayotgan narsadir. Vajhi shabih, ya'ni o'xshatish sababi esa *kökrädim*, *ulišib* fe'llaridir. Ya'ni ular aynan na'ra tortish va uvlashda arslon va bo'riga o'xshatilgan. Vositai tashbih – o'xshatishli konstruksiyadagi grammatik vosita *-layu*, *-läyü* qo'shimchasidir.

Keyingi davrlarda tashbih hosil qilishda serunum vosita bo'lgan *kibi* yordamchi so'zi “Devonu lug'ati-t-turk”dagi parchalarda ham ishtirok etgan. Bu, asosan, pandnoma va jangnoma turkum she'rlarda uchraydi.

Masalan:

يَقِيْنُ يَأْغُوْقُ كُورْمَادِيْپِ نَانْجِيْ كُودُورْ	Yaqin yaғuq körmädip nänjini küdür,
قَدْشَن تَبَا اِتْ كِيْ قِيْڭُرُوْ باقار	Qadaş tapa it kibi qıñru baqar

[Кошғарий 2017, 333].

Yana bir misol:

بَجْكَمِ أَرْبُ أَتْلَقَا	Bečkäm urup atlaqa,
أَيْغُرْ دَقَى تَتْلَقَا	Uyğurdaqi tatlaqa,
أَغْرَى يَغُرْ اِتْلَقَا	Oğrı yawuz itlaqa,
قُشْلَرِ كِيْ اُچْتُمِيْزْ	Quşlar kibi uçtumiz.

Parcha mazmuni quyidagicha: Otlarga belgi taqib, *Uyğur* (eli)dagi *tat* larga, ya'ni o'g'ri, muttaham itlarga qasd qildik. Qush

uchgandek uchib, ularning ustiga yopirildik [Кошғарий 2017, 191].

Ushbu parchada dushman ustiga qilingan ayovsiz hamla qushlarning parvoz qilishi yanglig' tez amalga oshirilganligidan darak beradi.

Shuningdek, asarda tashbihning murakkab turlaridan tashbihi izmor ham uchraydi:

أَعْلَمُ أَكْتُ أَلْغُلْ يَلِكُ سِرْلِكُ كِتَارُ Oğlum, ögüt alğil, biligsizlig ketär,
تَلْقَانُ كِمِنْكَ بُلْسَا أَنْكَرُ بَكْمَسُ قَتَارُ Talqan kimniñ bolsa, añar bekmäs,
qatar.

Aytmoqdaki: O'g'lim, o'git-kengashimni qulog'ingga ol, bilimsizlikni tashla. Kimning talqoni bo'lsa, shinniga qoradi. Shuningdek, aqlli kishi nasihatni qabul qiladi [Кошғарий 2017, 175].

She'rda biron narsaning ikkinchi narsaga o'xshatilayotgani haqida hech bir ishora bo'lmasa-da, zamirida o'xshatish borligi sezilib turadi. Misolda talqon inson aqli bo'lsa, shinni – o'git, nasihatdir. Kimningkki aqli bo'lsa, uni o'git va nasihatlar bilan boyitadi.

"Devonu lug'ati-t-turk"dagi she'riy parchalar turkiy adabiyotda tashbihning paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlarini o'rganishda muhim manbalardan biridir. Asarda tashbihning murakkab turlariga ham misollar uchraydi. Bu turkiy xalqlar badiiy tafakkurining boyligidan darak beradi.

Tajnis

Tajnis mumtoz she'riyatda eng ko'p qo'llaniladigan badiiy tasvir vositalaridan biri hisoblanadi. Uzindilarda muzori' tajnis [Ҳожиаҳмедов 1998, 70] hamda tajnisi tom keng qo'llanilgan. Quyidagi she'rda muzori' tajnis *bulnar* va *bulnap* so'zlari oxiridagi *r-p* tovushlari orqali hosil bo'lmoqda:

بُلْنَار مِينِي أُولَاسْ كُورُ Bulnar meni ulas köz,
قَرَا مَنَكِيزُ قِيزِيلُ يُوْرُ Qara meniz, qizil yüz.
أَنْدِينُ تَمَارُ تُوْكَالُ تُوْرُ Andin tamar tükäl tüz,
بُلْنَابُ يَنَا أُولُ قَجَارُ Bulnap yana ol qaçar

[Кошғарий 2017, 37].

She'riy parchalarda keng qo'llangan yana bir tajnis turi tajnisi tom bo'lib, uni quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

قَاتُنْ سِنِي جَغِيلَادِي Qatunsini čog'iladi,
تَنْكُتْ بَاكُنْ يَغِيلَادِي Tanjut begin uağ'iladi.

قنى اقب يغىلادى

بين سوفن قزل سغدى

Qanī aqīr uağīladī,

Boyun suwīn qizil sağdı

[Кошғарий 2017, 432-433].

Parchadagi *yağīladī* so'zlari o'zaro tajnisi tom bo'lib kelgan. Ikkinchi misrada *yağīladī* – dushman bildi, uchinchi qatordagi *yağīladī* – jang qildi (DLT, 434) ma'nosida kelib, shakldoshlik hosil qilgan. Ushbu uzindida qo'llangan *uağīladī* so'zi parchaga badiiylilik baxsh etishi bilan birga she'r ohangdorligini oshirishga ham xizmat qilgan.

Quyida esa *oğurladī* so'zi ham tajnisi tom san'atini vujudga keltirgan va birida – «fursatini kutmoq», boshqasida – «yashirindi» ma'nolarini anglatmoqda:

بكم وزن اغزلادى

يرغ بيلب اغزلادى

الغ تئكرى اغزلادى

انن قوت قوت تئرى تئغدى

Begim özin oğurladī,

Yarağ bilir oğurladī.

Uluğ Täñri ağīrladī,

Anīn qut-qīw tōri tuğdı.

Mazmuni: *Taḡut* larning begi yovni qo'lga tushirish uchun pistirmaga yashiringanini ta'riflab aytmoqda: Begim fursat kutib, o'zini askardan chetga olib yashirindi, Xudo unga zafar berdi. Ko'ksi ko'tarilib, kuch-qudrati, davlati ortdi [Кошғарий 2017, 124].

Tahlil qilingan har ikki parchada tajnisi tom bo'lib kelgan shakldosh so'zlarga ohang jihatidan moslashishi uchun tovushi shulardan biroz farq qilinadigan so'z qofiyaga keltirilgan. Natijada, uch qatorda ham go'yo bir xil shakldagi so'z qo'llanganday o'qiladi. Bu turkiy til leksikasi boy ekanligining tasdig'idir.

Takrir

Asarda keltirilgan she'riy parchalarda qo'llanilgan yana bir badiiy san'at *takrir* [Ҳожиаҳмедов 2001, 20]dir. Takrorlash vositasida so'z ma'nosi, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish asosiy xususiyat sanaladi. Misol uchun:

قۇيغاشیر یئسا انک یوزینکا

السقار اوکن انک سوزینکا

مینک کشی یلغی بولب اوزینکا

بیرکالر اذن انک کوزینکا

Qoyğašir yatsa anīñ yūziñä,

Alsīqar ögin anīñ söziñä.

Min kişi yuluğī bolup öziñä,

Bergälär ödin anīñ köziñä.

Mazmuni: Uning qo'ynida unga qarab yotgan kishi mayin va yoqimli so'zlariga o'zini yo'qotadi. Bir jonni emas, mingta jonni uning husniga baxsh etadilar [Кошғарий 2017, 105-106].

Aniñ so'zi tarjimada "uning" olmoshining ma'nosiga teng

bo'ladi. Bu so'z she'rda uch o'rinda qofiya oldidan qo'llanib, undagi ohangdorlikni ta'minlabgina qolmay, ta'kid ma'nosini ham anglatib kelmoqda. Sevgi-muhabbat turkumiga oid uzindilarda ushbu olmoshdan takrir san'atining hosil qilinishi ancha ko'p uchraydi.

Bu san'at pandnoma turkum she'rlarda ham "ta'kidlash" ma'nosida keng qo'llanilgan.

Misol uchun:

قُش يَفْزِي سَعِزْ غَانْ Quš yawuzi – saǧziǧan,
يِغَاج يَفْزِي أَرْ غَانْ Yīǧač yawuzi – azǧan,
يِير يَفْزِي قَرْ غَانْ Yer yawuzi – qazǧan,
بُذُن يَفْزِي بَرْ سِغَانْ Bodun yawuzi – barsǧan.

Mazmuni: Kishining eng yaramasi, yovuzi – zag'izg'on, daraxtning eng yaramasi – azg'on daraxti. Bu shunday daraxtki, uning oq va sariq guli, zirakka o'xshash osilib turadigan qizil mevasi bo'ladi. Bizda bu daraxtni tokzorlarning etagiga ekiladi. Chunki u o'tinlikka yaramaydi, yoqilganda parchalanib, sachrab ketadi, uydagi kiyim va boshqa narsalarni kuydiradi. Yerlarning yaramasi o'nqircho'nqir yer. Chunki o'tov qurishga ham, ekin ekishga ham yaramaydi. Odamning yaramasi *Barsǧan* da turuvchilardir, chunki ular yomon axloqdi, baxil kishilardir [Кошғарий 2017, 175].

Yoki yana bir misol:

قَذْغَل مَنكَ أَقِيلِقْ Qođǧıl meñä aqiliq,
بَلْسُن مَنكَ أَيَا غَا Bolsun meñä ayaǧ-a.
اِذْغَل مَنِي تَقْشَا Īđǧıl meni toqışqa,
يَقْكَل مَنكَ الْاِغَا Yöwǧil meñä ulaǧ-a.

Mazmuni: Meni o'z holimga qo'y, to'sqinlik qilma, toki birovlariga foyda beruvchi saxiy nomi menga qolsin. Meni jangga eltuvchi ot ber. U meni jangga eltsin [Кошғарий 2017, 382].

Mubolag'a

"Devonu lug'ati-t-turk"da *mubolag'*ali misra, bayt yoki to'rtliklarga ham duch kelish mumkin. Mubolag'a usulidan yozma adabiyotda ham, xalq og'zaki ijodida ham keng foydalanilgan. O'tmishda, shuningdek, keyingi davrlarda yaratilgan mumtoz poetikaga oid tadqiqotlarda ham mubolag'a to'g'risida fikrlar uchraydi. Jumladan, Atoulloh Husayniy bu tasvir vositasi haqida "... mubolag'a andin iboratturkim, so'zlaguchi bir nimani vasf etarda aning kuchlulugi yoki kuchsuzlugining ortiqlig'in, ul ortiqliq odattin tashqari yoki eshitkuchi ul vasf yetuk ermas degan xayolga bormayturg'an darajada, da'vo qilur" [Хусайний 1981, 152], – deb yozsa, Fitrat "Adabiyot

qoidalarini” risolasida “Tuyg’ularimizdan birining juda kuchli ekanini bildirmak, uni bo’lg’anidan bir oz orttirib ko’rsatmakka mubolag’a deymiz. Mubolag’a chin (samimiy) bo’lsa, judayam oshirilib yuborilmasa, zo’raki, yasama bo’lmasa, tuyg’ulardagi kuchlilik – o’tkirlikni onglatishka katta yordam qiladir” [Фитрат 2006, 59], – deb qayd etadi.

Asardagi lirik she’rlarda ko’proq oshiqning iztirobli holatlarini bo’rttirish yetakchi o’rin tutadi:

أَقْلَبُ مِنِّي فَيَمْنُكُزْ	Awlar meni qoymañiz,
أَيُّ أَيِّ فَيَمْنُكُزْ	Ayiq ayir qaymañiz.
أَقَرُّ كُزْمُ أَشْنُ تَنْكُزْ	Aqar közü-m-uş teñiz,
تَكْرًا يُرَا قُشُّ أَجَارْ	Tegrä yürä quş uçar.

Mazmuni: Meni ovlab o’zingizga asir qilganingizdan keyin, xo’rlab tashlab qo’ymangiz, va’daga vafo qilingiz, dengiz suvlari kabi ko’z yoshlarim daryo kabi oqayotir [Кошғарий 2017, 221].

Ma’shuqa va’dasiga vafo qilmaganligi sababli oshiqning ko’zidan tinimsiz yosh oqadi. Shoir fikricha, bu yoshlar yig’ilib, dengiz hosil qilyapti. Ko’z yoshlaridan paydo bo’lgan dengiz atrofida esa qushlar uchib yuribdi. Mubolag’a usuli bu yerda oshiqning ma’shuqa dardidagi azoblarini kuchaytirayapti.

Mubolag’a tablig’, ig’roq, g’uluv deb atalgan uch turga bo’linadi [Ҳожиаҳмедов 1999, 10]. “Devonu lug’ati-t-turk”da keltirilgan parchalar ichida mubolag’aning g’uluv turidan ham foydalanilgan. G’uluv – bu aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo’lmaydigan tarzda tasvirlash [Ҳожиаҳмедов 1999, 11].

Misol uchun:

يُكْرِدِي كَعْلَ أَتْ	Yügürdi kewäl at,
جَعْلَدِي قِزْلَ أَتْ	Čaqıldi qizil ot.
كُيْرِدِي أَرُتْ أَتْ	Küyürdi arut ot,
سَجَرَبْ أَيْنَ أَرْتَنُورْ	Saçrap anin örtänür.

Yovning otini ta’riflamoqda: Uchar ot chopganda, tuyoqlaridan qizil o’t chaqnadi. Undan chaqnagan o’t (sahro) xashaklarini kuydirib yubordi [Кошғарий 2017, 284].

Bu parchada uchar ot chopganda, tuyoqlaridan o’tlar chaqnaydi. Undan chaqnagan olov (sahro) xashaklarini kuydirib yuboradi. Bu baytga e’tibor bersak, unda g’uluv qo’llanganiga ishonch hosil qilamiz. Zero, uchar ot chopganda, uning oyoqlari ostidan olov chiqib, sahro o’t-o’lanlarini kuydirishi mumkin emas.

Istiora

"Devonu lug'ati-t-turk"da *istioradan* ham o'rinli foydalanilgan. Istiorada so'z yoki iboralar asli emas, balki boshqa ma'no-da ishlatiladi va so'zlarning ko'chma ma'nosi tashbihiy bog'lanish asosida yuzaga keladi. Demak, so'zning ma'no ko'chishiga asoslanish istioraning mohiyatini tashkil etadi:

بیرنک منکا سوز کینا	Berınk menä söz-kiyä,
منکلک قرا تز قیا	<i>Menlig qara</i> tuz-qıya.
یلفن تتر کز کینا	Yalwın tutar köz-kiyä,
منکم منک بلنکا	Muñum meniñ bilin-ä.

Mazmuni: Menga birgina so'z ayt, va'da ber, ey qora xolli, yuzlari yoqimli, ey sehrli ko'zlari bilan o'z domiga ilintiradigan go'zal. Sevgidagi mening dard-u alamlarimni tushun [Кошғарий 2017, 444-445].

Mahmud Koshg'ariy *men* so'ziga misol tariqasida keltirayotgan mazkur to'rtlikda *istiora* mavjuddir. Chunki ikkinchi misradagi *menlig qara* birikmasi o'z ma'nosida qo'llanayotgani yo'q, balki u orqali shoir mahbubaga murojaat etmoqda. Demak, bu yordagi birikma zamirida chiroyli qora xolli ma'shuqa tushunilayotganini sezish qiyin emas. Bu esa istioraning mahsulidir.

Navoiy asarlarida ham bu so'z ikki xil ma'no kasb etgan. Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida *men* so'ziga quyi-dagicha ta'rif keltirib o'tadi: "... Va husn ta'rifida ulug'roq xolg'akim, turklar *meng* ot qo'yupturlar, alar (ya'ni forslar) ot qo'ymaydurlar. Turk bu ta'rifni bu nav' ado qilibdurkim,

Bayt:

Aniñ-kim, ol eñindä men yarattı,

Boyi birlä saçiniñ ten yarattı" [Navoiy 1988, 13].

Yana bir she'riy parcha shunday keladi:

قانی آقیر یُمُلْدی	Qanı aqır yoşildı,
قاری قَمُعُ تَشِلْدی	Qarı qamuğ teşildi.
أَلْکُ بِلَا قُشِلْدی	Ölüg bilä qoşuldı,
تُغْمِشْ کُنی اُش بَتَار	<i>Tuğmıš küni-uş batar.</i>

Mazmuni: O'lgan (narsa) haqida aytmoqda: Huddi mesh yorilib, ichi to'la suyuq narsa to'lib oqqanday, uning qoni to'lib-toshib oqdi. Hozir o'likka yaqinlashdi. Uning tuqqan quyoshi, ya'ni baxtu davlati, hayoti endi botayotir [Кошғарий 2017, 246].

Ushbu parchaning so'nggi *tuğmıš küni uş batar* misrasi orqali umrni qayta nomlamoqda. Ya'ni uning quyoshi botmoqda deb, umr

Tanosub

She'riy baytlarda ma'no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'ati *tanosub* deb ataladi.

Biz buni quyidagi parchada ko'rishimiz mumkin:

أَمْدِي أَوْذُنُ أَذْنَدِي	Emdi <i>uḍun uḍundi</i> ,
كَيْدِيْنُ تَلْمُ أَكْنَدِي	Kedin telim ökündi,
اَيْلُ بُلْغَالِ اِغْنَدِي	El bulğali igändi,
أَنْدَغُ ارْكُ كَيْمِ أَتَارُ	Andağ erig kim utar?

Mazmuni: Yov uyqusidan endi uyg'ondi, keyin (el bo'lishdan bosh tortganidan) ko'p o'kindi. Unday odamni mendan boshqa kim ham yengardi [Кошғарий 2017, 92].

Bu parchada *uḍin uḍundi* so'zlari bir-biriga yaqin ma'noli so'z bo'lib, tanosub san'atini hosil qilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, janrlarning takomilida badiiy tasvir vositalarining vazifasi muhim omil ekani namoyon bo'ladi. Uzindilarda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari ilgari surilayotgan fikrlarni, misralarda berilayotgan mazmunni ifodalash uchun vosita bo'lib xizmat qiladi va, shu bilan birga, ular misra, bayt yoki asarning jozibaliligi, obrazlilik, ta'sir kuchi va estetik jozibasini oshirish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi.

"Devonu lug'ati-t-turk" asaridagi uzindilarda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari keyinchalik turkiy yozma adabiyotining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi va o'ziga xos turkiy she'riyatning yuzaga kelishida poydevor bo'lib xizmat qildi.

Turkiy adabiyotning mumtoz davriga kelib tashbih san'ati ham boshqa adabiy tur va janrlar, badiiy tasvir vositalari kabi turkiy adabiyotda o'zining tadrijiy rivojlanish bosqichlaridan o'tib, yuksak darajalarga yetdi. Bunda "Devonu lug'ati-t-turk"dagi parchalarning o'rni beqiyos. She'riy uzindilardagi tashbihlarning katta qismining keyingi davr o'zbek klassik adabiyotida an'anaviy tashbihlarga ko'chganini bunga misol qilib keltirish mumkin. "Devonu lug'ati-t-turk"dagi she'riy uzindilarda tashbih yasaliishi o'ziga xos. Marsiya va jangnoma turkum she'rlarda *-layu*, *-läyü*, pandnoma turkum she'rlarda esa *kibi* ko'shimchasi yordamida yasalgan tashbihlar keng qo'llangan. Lirik she'rlarda vositasiz tashbihdan foydalanilgan.

Adabiyotlar

- Фитрат, Абдурауф. 2006. *Танланган асарлар*. 5 жилдлик. 4 жилд. Адабиёт қоидалари. Тошкент: Маънавият.
- Навоий, Алишер. 1988. *Мукаммал асарлар тўплами*. 20 томлик. 16 том. *Муҳокамату-л-луғатайн*. Тошкент: Фан.
- Атоуллоҳ Ҳусайний. 1981. *Бадойиғу-с-санойиғ*. Тошкент: ДЛТ. 1969. *Древнетюркский словарь*. Ленинград: Наука.
- Исҳоқов, Ёқубжон. 2006. *Сўз санъати сўзлиги*. Тошкент: Zarqalam.
- Кошғарий, Маҳмуд. 2017. *Девону луғати-т-турк*. Нашрга тайёрловчи: Қ. Содиқов. Тошкент: Ғафур Ғулом.
- Раҳмонов, Ваҳоб. 2001. *Шеър санъатлари*. Тошкент: Ёзувчи.
- Рустамий, Салима. 2023. “Алишер Навоий ғазалларида ташбиҳ воситасида тилнинг бадиий вазифасидан фойдаланиш”. *Al-Buxoriy* 3: 19-22.
- Рустамий, Салима. 2017. *Балоғат илмида лингвистик назариялар ва тил ҳодисаларининг ёритилиши*. Тошкент: Наврўз.
- Рустамов, Алийбег. 1979. *Навоийнинг бадиий маҳорати*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Содиқов, Қосимжон. 2016. “Девону луғати-т-турк”да асарида келтирилган лирик шеърлар семантикасига бир боқиш”. *Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги кун ва келажаги* республика илмий-амалий конференция тўплами: 15-19.
- Содиқов, Қосимжон. 2014. “Девону луғати-т-турк”да кечган *yelkin~elkin* сўзи ва унинг шеърий узиндилардаги семантикаси”. *Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги кун ва келажаги* 2: 24-28.
- Ҳожиаҳмедов, Анвар. 2001. *Шеър санъатларини биласизми?* Тошкент: Шарқ.
- Ҳожиаҳмедов, Анвар. 1998. *Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия*. Тошкент: Шарқ.
- Ҳожиаҳмедов, Анвар. 2008. *Мумтоз бадиият луғати*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Ҳожиаҳмедов, Анвар. 1999. *Мумтоз бадиият малоҳати*. Тошкент: Шарқ.
- Ҳусайний, Атоуллоҳ. 1981. *Бадойиғу-с-санойи*. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. Тошкент: Адабиёт ва санъат.

Artistic arts used in ancient Turkic oral poetry and their influence on the text stylistics

Gavhar Rahmatova¹

Abstract

“Divoni lugati-t-turk” by Makhmud Kashgari is one of the brightest examples of the early Turkic-Islamic environment, culture, and science, a valuable source containing the oral poetry of the Turkic peoples. The work is of great interest since it contains samples of folk art, reflecting national culture and artistic thinking. The poems included in the work are unique in their subject matter, artistic value, and semantics.

Such artistic techniques as tashbih, tazod, metaphor, tajnis, takrir, exaggeration, irsoli masal presented in the poetic passages of “Divoni lugati-t-turk”, are of great importance as the first used methods of artistic means of depiction in the literature of the Turkic peoples. Therefore, the article is devoted to the analysis of artistic techniques such as marsia (ode), lyrics, heroic epic, and pandnoma (edification) presented in the work. The scope of the application of artistic techniques in poetry is revealed.

Key words: *poetic fragment, folk oral art, means of artistic expression, art, semantics, stylistics.*

References

- Fitrat, Abdurauf. 2006. *Tanlangan asarlar*. 5 jildlik. 4 jild. Adabiyot qoidalari. Toshkent: Ma'naviyat.
- Navoiy, Alisher. 1988. *Mukammal asarlar to'plami*. 20 tomlik. 16 tom. Muhokamatu-l-lug'atayn. Toshkent: Fan.
- Atoulloh Husayniy. 1981. *Badoyi'u-s-sanoyi'*. Toshkent.
- DLT. 1969. *Drevnetyurkskiy slovar*. Leningrad: Nauka.
- Is'hoqov, Yoqubjon. 2006. *So'z san'ati so'zligi*. Toshkent: Zarqalam.
- Koshg'ariy, Mahmud. 2017. *Devonu lug'ati-t-turk*. Nashrga tayyorlovchi: Q. Sodiqov. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Rahmonov, Vahob. 2001. *She'r san'atlari*. Toshkent: Yozuvchi.
- Rustamiy, Salima. 2023. “Alisher Navoiy g'azallarida tashbih vositasida tilning badiiy vazifasidan foydalanish”. *Al-Buxoriy* 3: 19-22.

¹ *Govkhar O. Rahmatova* – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Assistant Professor, Oriental University.

E-mail: gokki1990@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-8142-6465

For citation: Rahmatova, G.O. 2022. “Artistic arts used in ancient Turkic oral poetry and their influence on the text stylistics”. *Golden scripts* 4: 33–46.

- Rustamiy, Salima 2017. *Balogʻat ilmida lingvistik nazariyalar va til hodisalarining yoritilishi*. Toshkent: Navroʻz.
- Rustamov, Aliybeg. 1979. *Navoiyning badiiy mahorati*. Toshkent: Adabiyot va sanʻat.
- Sodiqov, Qosimjon. 2016. “Devonu lugʻati-t-turk”da asarida keltirilgan lirik sheʼrlar semantikasiga bir boqish”. *Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi*” respublika ilmiy-amaliy konferensiya toʻplami: 15-19.
- Sodiqov, Qosimjon. 2014. “Devonu lugʻati-t-turk”da kechgan yelkin~elkin soʻzi va uning sheʼriy uzindilardagi semantikasi”. *Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi 2*: 24-28.
- Hojiahmedov, Anvar. 2001. *Sheʼr sanʻatlarini bilasizmi?* Toshkent: Sharq.
- Hojiahmedov, Anvar. 1998. *Sheʼriy sanʻatlar va mumtoz qofiya*. Toshkent: Sharq.
- Hojiahmedov, Anvar. 2008. *Mumtoz badiiyat lugʻati*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Hojiahmedov, Anvar. 1999. *Mumtoz badiiyat malohati*. Toshkent: Sharq.
- Husayniy, Atoullloh. 1981. *Badoyiʼu-s-sanoyi*. Forschadan A. Rustamov tarjimasi. Toshkent: Adabiyot va sanʻat.

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” va Yahyobey Toshlijali “Gulshan ul-anvor” dostonlari qiyosi

Diyora Abduljalilova¹

Abstrakt

Adabiyotshunoslikda muayyan adabiy an’ana va o’zaro ta’sir doirasida yaratilgan asarlarni o’rganish har ikki xalq adabiyoti miqyosida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, sakkiz asrlik tarixga ega bo’lgan xamsanavislik an’anasi doirasida yaratilgan asarlarni o’zaro ta’sir va aks ta’sir, obyektivlik va sinkretizm tamoyillari asosida o’rganish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shu ma’noda tili, madaniyati, urf-odat va an’analari bir-biriga yaqin bo’lgan o’zbek va turk xalqlari o’rtasidagi adabiy aloqalarni xamsanavislik an’anasi asosida tadqiq etish davr talabidir.

Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” hamda Yahyobey Toshlijali “Gulshan ul-anvor” dostonlarining qiyosi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: *xamsanavislik, “Hayrat ul-abror”, “Gulshan ul-anvor”, syujet, muqaddima.*

Kirish

Sharq musulmon adabiyoti tarixida xamsachilik an’anasi alohida o’rin egallaydi. Vujudga kelish va shakllanish davriga ko’ra XII asrga mansub bo’lgan bu adabiy hodisa sakkiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab naziralar – javob dostonlariga ega bo’ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo’lib “Xamsa” yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydir. U 1170 – 1204-yillar oralig’ida birin-ketin 5 ta doston yaratdi, bu dostonlar shoir vafotidan so’ng yax-lit bir to’plamga birlashtirilib “Panj ganj” (“Besh xazina”) deb ata-la boshlandi va keyinchalik “Xamsa” nomi bilan mashhur bo’ldi [Алиев 1985].

An’anani davom ettirib necha asrlar davomida yuzlab

¹Abduljalilova Diyora Abduljalol qizi – mustaqil tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: d.abduljalilova@mail.ru

ORCID ID: 0009-0007-2656-9894

Iqtibos uchun: Abduljalilova, D.A. 2022. “Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” va Yahyobey Toshlijali “Gulshan ul-anvor” dostonlari qiyosi”. *Oltin bitiglar* 4: 47–64.

shoirilar "Xamsa" yaratishga muvaffaq bo'ldilar, biroq mashhur xamsanavislar safidan joy olish barchaga ham nasib etmagan. Adabiyotshunoslikda mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Usmonli turklar adabiyotida XVI-XVII asrlarda "Xamsa" nomi ostida masnaviy yozgan shoirlarning soni o'n oltitaga yetadi. Lekin ularning hammasi ham o'z asarlarini mukammal beshlik holiga keltirishmagan yoki nomi ma'lum bo'lgan asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Onado'lida masnaviy yozish va fors shoiri Nizomiydan ilhom olish Navoiydan ancha avval boshlangan bo'lsa-da, ko'pgina shoirlar uchun masnaviylarni yozishlariga usmoniy imperiyasida ko'p o'qilgan Alisher Navoiyning "Xamsa"si turtki bo'lgan, degan ehtimol ko'proq. Levend Turkiya kutubxonalarida Navoiy "Xamsa"sining o'n bitta to'liq (ikkitasi kulliyotlar tarkibida), hamda dostonlardan biri yoki birdan ortig'i bor bo'lgan yana yettita qo'lyozma mavjudligini qayd etgan [Levend 1965].

Xamsashunoslikda Usmonli turklar adabiyotida beshlik yaratgan shoirlar sifatida quyidagilar eslanadi: Hamdiy, Behishtiy, Yahyobey Toshlijali, Nav'izoda Atoyi, Fayziy, Subhizoda Fayzulloh, Chokariy, Ahmad Rizvon, Hojatiy, Jaliliy, Muidiy, Fathulloh Orif Chalabiy, Fazliy, Lome'iy va b.

Toshlijali Yahyobey haqida ma'lumotlar

Alisher Navoiydan so'ng unga ergashib, turkiy tilda "Xamsa" yozgan shoirlardan biri Toshlijali Yahyobeydir. U XVI asr Usmonlilar davrida yashab ijod etgan shoir, devon va "Xamsa" sohibi hisoblanadi. Yahyobey 1498-yilda tug'ilgan (Ba'zi manbalarda tug'ilgan yili noma'lum deb keltiriladi) [Ислом энциклопедияси 2011, 156-157 б]. U o'z asarlarida Sangiston, Toshli degan joydan ekanligini e'tirof etadi. Toshlijali taxallusi ham shundan kelib chiqqan.

Arnavud'un hassları yegleri

Nesl-i kadīmüm Dukakın begleri

Mülk-i Arab'dan ki firar itdiler

Taşlu vilayetde karar itdiler [Yahyabey 2016, 25].

Bolaligida Usmonlilar davlatiga qarashli harbiy bo'linma – Yanicharlar bo'linmasiga olib kelinadi. Harbiy bo'linmada o'zining ilmga bo'lgan ishtiyoqi bilan bo'linma kotibi Shahobiddin Beyning e'tiboriga tushadi va ba'zi majburiyatlardan ozod bo'ladi. Oshiq Chalabiy so'zlariga ko'ra, u Kamolposhshozoda, Fenarizoda Muhiddin kabi olim va shoirlar majlislarida qatnashadi.

Ijod bilan birga jangovorlikda ham o'zini tarbiyalab bora-

di. Toshlijali Yahyobey Sulton Sulaymon taxtga o'tirganidan so'ng ijodkor sifatida ham nom qozonadi. Rustam poshoning qanoti ostida saroyda xizmat qila boshlaydi. Manbalada uning shahzoda Mustafoning yaqin do'sti bo'lgani, sanjak (Usmonlilar davrida shahzodalar ma'lum yoshga yetgach, ularga biror viloyat boshqaruvi topshirilgan) boshqaruvida maslahatchisi bo'lgani haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Yahyobey Toshlijalining bizgacha bir devoni, devondan o'rin olgan Istanbul haqidagi ikkita manzumasi va besh dostonidan iborat "Xamsa"si yetib kelgan. Latifiy bulardan tashqari, shoirning "Noz-u niyoz" nomli bir asari ham borligini aytib o'tadi [Latifi 2000, 235]. Lekin bu asar hozirgacha topilmagan. Shuningdek, adabiyotshunoslikda Toshlijalining 2000 baytli "Sulaymonnoma" hamda Payg'ambar (s.a.v) mo'jizalari haqidagi asarlari ham mavjudligi to'g'risida ayrim ma'lumotlar uchraydi. Lekin shoirning o'zi "Gulshan ul-anvor" dostonining "Xotimat ul-kitob" qismi va devonining debochasida Sulton Sulaymon homiyligida "Xamsa" yozganini va uni Sultonga bag'ishlaganini aytib o'tadi.

Toshlijali devoniga uch marta tartib berib, har safar unga muhim o'zgartirishlar kiritgan. Mehmed Chavusho'g'lu tomonidan Yahyobey devoninig olti nusxasi solishtirilib, ilmiy-tanqidiy matni nashr etilgan [Islom ans., 1997, 345].

Yahyobey devon sohibi bo'lsa-da, uning turkiy adabiyotdagi asosiy o'rnini "Xamsa" belgilab berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Toshlijalining besh dostonidan iborat "Xamsa"si "Gulshan ul-anvor", "Shoh-u gado", "Ganjinai roz", "Yusuf va Zulayho" va "Usulnoma" dostonlaridan iborat.

Toshlijali Yahyobey "Xamsa"si

Adabiyotshunoslikda Toshlijalining "Gulshan ul-anvor", "Ganjinai roz" va "Usulnoma" dostonlarining har uchalagi ham Nizomiy "Maxzan ul-asror"iga javob tarzida vujudga kelgan degan qarash bor [Arasli 1980, 91]. Lekin uning "Gulshan ul-anvor" dostoni Alisher Navoiy ta'sirida, "Ganjinai roz" dostoni esa Abdurahmon Jomiyning "Subhat ul-abror" dostoni ta'sirida yozilgan. Dostonning kompozitsion qurilishi (Jomiy dostoni singari 40 maqolatdan iborat ekanligi) va unda qo'llanilgan she'riy o'lchov ham fikrimizni tasdiqlaydi. Muallif ushbu dostonida Nizomiy va Dehlaviylar qatorida Abdurahmon Jomiyning nomini ham alohida ehtirom bilan yodga oladi:

Jarashur Chamiji yerbabi nizam,

Olsa zerrin naleh ol bag'a mudam [Yahyabey 2016, 30].

Yahyobey Toshlijalining xamsanavislikka munosabati ko'p jihatdan Jomiyi eslatadi. Xususan, uning dostonlarida falsafiy yo'nalishga ko'proq urg'u berilganligi va Yusuf payg'ambar qissasiga doir alohida doston yaratgani mazkur muallifning beshlik yaratishda Nizomiydan ko'ra ko'proq Jomiyga ergashganligini ko'rsatadi [Юсупова 2008]. Bu ikki ijodkor beshligidagi o'zaro o'xshash jihatlar haqida to'liqroq tasavvur hosil bo'lishi uchun quyidagi jadvalni keltiramiz:

№	Jomiy beshligidagi dostonlar	Toshlijali beshligidagi dostonlar
1.	“Tuhfat ul-ahror”	“Gulshan ul-anvor”
2.	“Subhat ul-abror”	“Ganjina'i roz”
3.	“Yusuf va Zulayho”	“Yusuf va Zulayho”
4.	“Layli va Majnun”	“Shoh va gado”
5.	“Xiradnomai Iskandariy”	“Usulnoma”

Endi shu dostonlarda qo'llanilgan she'riy o'lchovlarni ham qiyoslasak:

Jomiy beshligida qo'llanilgan vaznlar va ularning taqti'i	Toshlijali beshligida qo'llanilgan vaznlar va ularning taqti'i
“Tuhfat ul-ahror” sari' bahri -VV- -VV- -V-	“Gulshan ul-anvor” sari' bahri -VV- -VV- -V-
“Subhatul abror” ramali maxbun - V - - VV- - VV-	“Ganjina'i roz” ramali maxbun -V - - VV- - VV-
“Yusuf va Zulayho” hazaji mahzuf V- - - V- - - V- -	“Yusuf va Zulayho” hazaji mahzuf V- - - V- - - V- -
“Layli va Majnun” hazaji axrab - -V V-V- V- -	“Shoh va gado” hazaji axrab - -V V-V- V- -
“Xiradnomai Iskandariy” mutaqorib bahri V- - V- - V- - V-	“Usulnoma” mutaqorib bahri V- - V- - V- - V-

Ko'rinadiki, Yahyobey Tojlijoli beshligi ham Jomiy beshligi singari 3 ta falsafiy yo'nalishdagi va ikkita ishqiy dostonidan iborat.

Shoir ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri

shundaki, u nafaqat "Xamsa"sida, balki g'azallarida ham sodda va xalqona uslubdan foydalangan. Xamsanavislikda Yahyobey o'zidan avval yaratilgan "Xamsa"lardan farqli o'laroq, o'z "Xamsa"sini yangi mavzular, voqealar va uslub bilan boyitgan. O'z asarlari debochasida shoir buni alohida ta'kidlab o'tadi.

Yahyobey qalami o'tkir ijodkor, qilichi keskir sarkarda bo'lgan. U devoni hamda masnaviylarida o'zi haqida so'z yuritarkan, jasurligi va janglarda ko'rsatgan qahramonliklarini faxr bilan shunday ta'riflaydi:

Ïki h ner verdi bana Z 'l-cel l

Biri ŗeca t, biri fazl u kem l [Yahyabey 2016, 30].

Toshlijali o'zining "Gulshan ul-anvor" dostonidan olingan ushbu baytda Alloh taolo tomonidan unga kuch-qudrat hamda zehn berilganini faxr bilan ta'kidlaydi. Shoir o'z asarlarida, xususan, qasida, musammat va "Xamsa"sida askarlik hamda shoirlik faoliyati haqida juda ko'plab ma'lumotlarni keltiradi.

Yahyobey Toshlijali Xayoliy Bey bilan birgalikda Sulton Sulaymon Qonuniyning Bag'dod yurishida qatnashgan va mashhur ozar shoiri Fuzuliy bilan uchrashgan. Toshlijali "Qilich va qalam sohibi" unvonini olib, harbiy shoir sifatida taniladi.

Bizga ma'lumki, Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida eng ishonchli va asosli ma'lumotlar, albatta, o'zining asarlarida keltirilgan. Navoiy garchi o'z tarjimaiy holini maxsus yozib qoldirmagan bo'lsa-da, lekin shoirning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar keltiriladi. Xususan, "Vaqfiya", "Munshaot" asarlarida ulug' shoirning ijtimoiy faoliyati aks etsa, "Majolis un-nafois", "Xamsa", "Munjojt", "Xazoyin ul-maoniy" kabi asarlarida shaxsiy hayoti, "Muhokamat ul-lug'atayn", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba'zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog'liq ma'lumotlarni uchratamiz [Юсупова 2016, 55].

Alisher Navoiyning shaxsiyati, ijodiy faoliyati o'zbek adabiyotshunosligida yetarlicha o'rganilgani uchun biz bu o'rinda asosan ikki ijodkorning ijtimoiy faoliyatini muayyan tarzda qiyoslaymiz. Agar ularning hayot yo'liga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular orasida o'zaro mushtarak jihatlarini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Yuqorida biz Yahyobeyning harbiy sohada ham muayyan tarzda muvaffaqiyatga erishganligi haqida gapirdik. Bizda, garchi, Alisher Navoiyning harbiy mahorati bilan bog'liq jihati chuqur o'rganilmagan bo'lsa ham, Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida quyidagi voqea keltirilganiga guvoh bo'lamiz: Alisher Navoiy

podshoh Husayn Boyqaro saroyida faoliyat yuritgan paytda nafaqat podshohning yaqin maslahatchisi, harbiy yurishlarda ham yaqin hamrohi bo'lgan. Xususan, uning Mirzo Yodgorni yenggani bilan bog'liq voqea shoirning buyuk harbiy mahoratidan dalolat bersa, asarda keltirilgan Mavlono Soni'iy bilan bog'liq hikoyat uning adolatsizlikka qarshi murosasiz davlat arbobi ekanligini ham ko'rsatadi. Bu haqda Xondamir shunday yozadi: "Zolim kishilardan bo'lgan va bir qancha vaqt a'lo hazrat saroyida vazirlik kabi yuqori darajaga yetishgan Mavlono Soni'iy boshiga katta salla o'rab yurardi. Kunlardan bir kuni uning noma'qul ishlari olam sohibqironining quyoshdek nur sochuvchi ko'ngliga ma'lum bo'lgach, undan g'azablanib, uning boshidan sallasini olib tashlashlarini buyurdilar. Shunda o'sha yerda bo'lgan tengsiz Amir iqboli baland podshohga yuzlanib, quyidagi misrani tilga oldilar: **Misra:**

Chu bori sar sabuk kardiy, sabuk kun bori gardan ham.

(Mazmuni: Boshidagi yukni yengillatgan ekansan, endi bo'ynidagi yukni ham yengillatgin, ya'ni, sallasini olib tashladingmi, endi kallasini ham olib tashla) [Хондамир 2015, 35].

Manbalarda Yahyobeyning Sulton Sulaymon davrida adolatsizlikka qarshi ko'plab she'rlar yozganligi, bu borada murosasiz bo'lganligi haqida ko'plab a'lumotlar bor. Sulton Sulaymon og'li Shahzoda Mustafoni qatl ettirganidan so'ng yozgan marsiyasi buning yaqqol isbotidir.

Meded meded bu cihanım yıkıldı bir yanı

Ecel celâlîleri aldı Mustafa Hânı

Tohındı mihr-i cemâli bozuldı erkânı

Vebale koydılar âl ile Al-i Osmânı

Geçerler idi geçende o merd-i meydânı

Felek o canibe döndürdi şâh-ı devrânı

Yalancımın kun bühtanı bugz-ı pinhânı

Akıtdı yaşumımı yakdı nâr-ı hicrânı

Cinayet etmedi cânî gibi anın cânı

Boguldı seyl-i belâya tagıldı erkânı [Yahyabey 2016, 40].

Har ikkala ijodkor o'z ijodiy faoliyatini bevosita lirik she'rlar yozishdan boshlashgan. Va ikkalasining ham devon sohibi bo'lganligi, va keyinroq, muayyan tajribaga ega bo'lgandan keyin "Xamsa" yozishga kirishganligi ham ularning ijodiy faoliyatida ham umumiy o'xshashliklar borligini ko'rsatadi.

Yahyobey Toshlijali Usmonli turklar adabiyotida podshohning eng yaqin kishilardan biri sifatida, ham davlat arbobi, ham ijodkor sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa, Alisher Navoiy Xurosonda Husayn Boyqaroning "Amiri muqarrabi" va ijodkor shaxs sifatida faoliyat yuritdi. Ularning har ikkalalari ham buyuk ijodkor bo'lish bilan birga, kuchli davlat arbobi va harbiylik sohasida yaxshi malakaga ega bo'lgan shaxslar edi. Har ikkala ijodkor xam-sanavislikda o'z o'rni va yo'nalishiga ega bo'lgan shaxslar sifatida adabiyot tarixida nom qoldirdi.

Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" hamda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonlarining kompozitsion qurilishi

Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi birinchi doston – "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi") 1483-yilda yaratilgan edi. Doston 3988 baytdan iborat bo'lib, 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Shundan muqaddima 21 bobni o'z ichiga oladi.

Asar muqaddimasi "Bismillahir rohmanir rohim" oyatining tasvifi bilan boshlanib, Allohga hamd, Payg'ambarimiz (s.a.v.) ga na't bilan davom etadi. 12-bob salafar haqida, 13-bob Abdurahmon Jomiy madhiga bag'ishlanadi. Dostonning 14-15 boblari so'z ta'rifiga bag'ishlangan. Husayn Boyqaro madhiga bag'ishlangan 16-bobdan so'ng "Ko'ngil ta'rifiga" bag'ishlangan bob keltiriladi.

Muqaddimaning 18-20 boblari hayrat ta'rifidadir. Alisher Navoiy doston muqaddimasining so'nggi bobini Xoja Ubaydulloh Ahror madhiga bag'ishlaydi.

22-bobdan dostonning asosiy boblari boshlanadi. Asosiy qism maqolat va hikoyatlardan tashkil topgan 40 bobni o'z ichiga oladi. Maqolatlar muayyan bir axloqiy-falsafiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, shoir dastlab ushbu mavzuga munosabat bildiradi, mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon qiladi, so'ngra shu mavzuga mos ibratli hikoya keltiradi. Maqolatlarning barchasi ularga ilova qilingan hikoyatlar ham bir-biri bilan izchil bog'langan, mazmunan biri ikkinchisini davom ettiradi, to'ldiradi, rivojlantiradi.

Shu tariqa asosiy qism 20 maqolat va unga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlar bayoni tarzida davom etadi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Maqolat nomi	Hikoyat
Iymon sharhida	Shayx Boyazid Bistomiy va uning murid haqidagi hikoyat
Islom bobida	Ibrohim Adham va Robiya Adviya haqidagi hikoyat
Salotin (sultonlar) zikrida	Shoh G'oziy hikoyati
Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususida	Abdulla Ansoriy haqidagi hikoyat
Karam (xayr-u ehson) vasfida	Hotami Toyi hikoyati
Adablilik to'g'risida	No'shiravon va Nargis haqidagi hikoyat
Qanoat bobida	Qanoatli va qanoatsiz ikki do'st haqidagi hikoyat
Vafo bobida	Ikki vafoli yor hikoyati
Ishq o'ti ta'rifida	Shayx Iroqiy haqidagi hikoyat
Rostliq ta'rifida	Sher bilan Durroj hikoyati
Ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqida	Imom Roziy va Xorazmshoh haqidagi hikoyat
Qalam va qalam ahllari haqida	Yoqut haqidagi hikoyat
Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida	Ayyub va o'g'ri haqidagi hikoyat
Osmon tuzilishidan shikoyat	Iskandar haqidagi hikoyat
Jaholat mayining quyqasini ichadiganlar haqida	Isroiliy rind haqidagi hikoyat
Xunasasifat oliftalar haqida	Abdulloh Muborak haqidagi hikoyat
Bahor yigitligining sofligi haqida	Zaynobiddin va uning o'g'li haqidagi hikoyat
Falak g'amxonasi haqida	Go'zal malika va uning oshig'i haqidagi hikoyat
Xurosonning misli yo'q viloyati bayonida	Bahrom va bog' haqidagi hikoyat
Maqsadning o'talgani haqida	Xoja Muhammad Porso haqidagi hikoyat

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni sari' bahrida yozilgan.

Toshlijali Yahyobey "Xamsa"sining "Gulshan ul-anvor" dostoni 98 bob, 2914 baytdan iborat bo'lib, tasavvufiy yo'nalishda yozilgan va "Xamsa"ning boshqa dostonlari kabi zamona hukmdori Sulton Sulaymonga bag'ishlangan. Masnaviy shaklida bitilganligi, asosiy bo'limlardan keyin keladigan maqolat, hikoyat va qissalari bilan Nizomiyning "Maxzan ul-asror" turidagi asarlardan bo'lsa-da, tuzilishi jihatidan ulardan farq qiladi. Ushbu asarlarda ko'rilgan maqolatdan keyin birinchi bo'lib aytilgan mavzu bilan bog'liq hikoya shaklidagi kompozitsiya tartibi "Gulshan ul-anvor"da ko'rinmaydi.

Asar muqaddima, 4 asosiy fasl, maqolat, hikoyat va tamsillardan iborat.

Asosiy qism to'rt fasl, aziz avliolarning tasnifi va darajalari shaklida tartibga solinadi. Ushbu fasllarlar hikoyalar, tamsil (hikoyaga mos hayotiy misollar) va tanbeh, ya'ni nasihatlar bilan boyitilgan.

Birinchi faslda sultonlar qanday bo'lishi kerakligi bayon qilinadi. Johillarni tarbiyalash, johillarga nasihat qilish maqsadida yozilgan ikkinchi bobda mavzu yanada kengayadi. Bu bo'limda ilm va ibodatning ahamiyati, haromdan saqlanish va haqiqiy shayx qanday bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Noqonuniy munosabatlar, yomon axloq va soxta shayxlar tanqid qilinadi.

Uchinchi bobda o'tkinchi dunyo lazzatlari odamlarni aldamasligi kerakligi haqida yozilgan. To'rtinchi fasl qanoat haqida bo'lib, u inson iymonini mustahkamlashi haqida so'z boradi. Bu bobda mavzu kengayib, tarqalib ketganligi, mavzuning ma'lum bir tizimli davom etmaganligi diqqatga sazovordir. To'rtinchi bobda qanoat, toat, iztirob, tafakkur, jamoatdagi ibodatning ahamiyati, qalb pokligi va tush ta'biri haqida so'z boradi. Shoir bu boblarni hikoyalar, tasvirlar va nasihatlar bilan boyitgan.

To'rtinchi fasldan so'ng avliyolar tasniflangan boshqa bir bob keladi. Bob to'rtta alohida sarlavhadan iborat bo'lib, avliyolarni tavsiflaydi. Yuqorida zikr etilgan avliyolarning har bir guruhi to'rt xalifaning biriga ergashganligini ta'kidlagan shoir, ularning barchasining yo'li Muhammad (s.a.v.)ning oldiga borganini aytadi.

Avliyolarni yetti darajaga ajratgan Yahyo bu darajalarni hikoyatlar bilan tushuntirib, boyitadi. Asar murojaatida masnaviyning go'zalligi va o'ziga xosligini ta'kidlagan shoir boshqa masnaviylarda bo'lgani kabi yaxshi xattotni ham ulug'laydi, johil xattotni tanqid ham qiladi.

“Gulshan ul-anvor” dostonidagi maqolat va hikoyatlar

Maqolatlar	Hikoyatlar
Avvalgi fasl: podshohlar qanday bo‘lishi haqida	8 ta hikoyat o‘rin olgan
Ikkinchi fasl: g‘ofillar tarbiyasi va johillarga va‘z	Bir nechta hikoyat va tam-sillar
Uchinchi fasl: dunyoga muhabbat qo‘yish oxiratdagi qiyinchiliklarga sabab bo‘lishi haqida	Bir nechta hikoyatlar
To‘rtinchi fasl: qanoatli bo‘lish yaxshi xislatlardan biri ekanligi to‘g‘risida	Bir nechta hikoyatlar

“Gulshan ul-anvor” ham Navoiy dostoni singari sari’ bahri-ning sariyi musaddasi matviyi makshuf (muftailun muftailun foi-lun) vaznida yozilgan. Qofiya tizimi aa, bb, dd ... bo‘lgan masnaviyda murdaf qofiyalarining ko‘pligi diqqatni tortadi.

Dostonlardagi muqaddimaviy boblar qiyosi

Dostonlardagi muqaddimaviy boblarning qiyosiy tahlili ikki ijodkor g‘oyaviy va badiiy niyatining mohiyatini anglashda muhim o‘rin tutadi. Zero, “Xamsa” dostonlaridagi muqaddimalar voqelikka shunchaki an’anaviy kirish bo‘lmay, balki dostonlar mundarijasi uchun ochqich vazifasini ham o‘taydi. Shu ma’noda muqaddimalarda keltirilgan fikrlarga alohida e’tibor berish dostonlar tagzaminida yashiringan ramziy ma’nolarni ochishga yordam beradi” [Юсупова 2016].

“Hayrat ul-abror” dostonining birinchi bobi “Bismillahir rohmanir rohim» (“Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlay-man”) oyatining shoirona talqiniga bag‘ishlanganligi uchun “basmala bobi” deb ham ataladi. Ushbu bob bilan bog‘liq nazariy talqinlar o‘zbek adabiyotshunoslari A.Rustamiy, H.Karomatov, R.Vohidov, M.Muhiddinov, M.Imomnazarov, O.Davlatovlarning tadqiqotlarida uchraydi [Рустамий 1999].

Bu bob nafaqat “Hayrat ul-abror” uchun, balki “Xamsa” uchun ham kirish vazifasini o‘taydi, chunki keyingi dostonlarda biz bu ilohiy jumlaning uchratmaymiz.

Yahyobey Toshlijalining ikki ming to‘qqiz yuz o‘n to‘rt baytdan iborat bo‘lgan dostoni muqaddimasi esa uchta basmala, uchta hamd, uchta munojot hamda biri Me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlangan uchta na’t, Sulton Sulaymonga bag‘ishlangan maqto’v qismi hamda

asarning yozish sabablaridan iborat.

Dostondagi muqaddimaviy boblarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Bob nomi	Hajmi
Birinchi basmala	52 bayt
Ikkinchi basmala	38 bayt
Uchinchi basmala	31 bayt
Avvalgi hamd	70 bayt
Ikkinchi hamd	42 bayt
Uchinchi hamd	46 bayt
Birinchi munojot	37 bayt
Ikkinchi munojot	41 bayt
Uchinchi munojot	41 bayt
Nasihah (tanbeh)	7 bayt
Hikoyah	21 bayt
Birinchi na't	41 bayt
Ikkinchi na't	54 bayt
Uchinchi na't (Me'roj tuni ta'rifi)	72 bayt
Sulton Sulaymon madhi	52 bayt
Asarning yozilish sababi	48 bayt
Shayx Muhammad dede madhi	31 bayt
Imom A'zam hikoyasi	34 bayt
"Xamsa" sohibining uzri	65 bayt

Alisher Navoiy basmala bobining dastlabki 12 baytini "bis-milloh" oyatining umumiy tavsifiga bag'ishlaydi: oyat o'z shakli va mohiyatiga ko'ra butun borliqning nizomini ushlab turuvchi "jahon rishtasi", tiriklik asosi bo'lmish "jon rishtasi", abadiylik xazinasiga eltuvchi sinoatli tasbeh, ham dunyo, ham oxirat saodatini sayd etuvchi arqon, obihayot oquvchi ariq, Arshi a'loni yorituvchi qandilga o'xshatiladi. Keyingi baytlarda vahdat (birlik, Alloh taoloning bir-u borligi) xazinasiga eltuvchi yo'l sifatida ta'riflangan "bis-milloh"dagi har bir harfga ikki toifa – "ahli qabul" (qabul etganlar) va "ahli rad" (inkor qilganlar) uchun alohida ma'no yuklatiladi. Dastlab rad etuvchilarga to'xtalinar ekan, ushbu jumladagi har bir harfning bu toifa kishilarini jazolantirishga xizmat qildirilganligini ko'ramiz. Xususan, "س" – "sin" harfi haqida gapirilganda uning shakli nahang balig'ining umurtqa suyagidagi arradek bo'lib, rad

etuvchilar uchun ofatdek; "م" – "mim" harfi ilon nafasidek o't sochib, yo'l boshida og'zini ochgan holda yotadi degan tashbehlardan foydalaniladi. Shu tariqa Navoiy ushbu jumladagi qolgan harflarni ham mazkur maqsadga xizmat qildiradi va kitobat (harf) san'atining betakror namunasini yaratadi.

Ikkinchi toifa, ya'ni qabul qiluvchilarga to'xtalinganda endi bu harflarning ijobiy ma'no kasb etishini kuzatamiz. Xususan, "س" "sin" harfi endi salomatlik yo'lining zinasiga o'xshatilsa, "م" – "mim" harfi maqsad manzilidagi buloq boshiga nisbat berilganligini ko'rish mumkin. Bularning barchasida Navoiyning yuksak badiiy salohiyati namoyon bo'ladi.

Toshlijali dostonida esa Navoiy boshlab bergan bu usul yanada rivojlantirilib, dostonning dastlabki uch bobi "basmala"-ga bag'ishlangan, boshqacha aytganda, unda "bismilloh" oyatining kitobat san'ati asosidagi talqini 3 ta bobda alohida-alohida davom etadi. Toshlijali Yahyo ham "Gulshan ul-anvor" dostonini "Bismillahir rohmanir rohim" oyatini badiiy talqin qilish bilan boshlaydi:

Bismillahir rahmanir rahim

Kafile-i ilmi alim ü hakim [Yahyabey 2016, 11].

Dostondagi "sin" harfi bilan bog'liq talqinga e'tibor qaratsak. Navoiyda:

"Sin"i salomat yo'lining ziynasi,

Balki saodat yuzi oyinasi [Navoiy 1999, 6].

Toshlijalida:

Bası beka alemler ser-defteri

Sîni selamet ilinün serveri [Yahyabey 2016, 11].

Basmalaning o'zi va uni tashkil etuvchi harflar va motivlar bilan bog'liq o'xshashliklar ham talaygina. "Ha" saxovat eshigining halqasiga, "ra"lari jazba yetgan solikka, "nun" harfini kavsar suvi to'lgan qadahga o'xshatiladi. Shoir uning nuqtasini Ka'baning Hajar ul-avsd toshiga qiyoslaydi. Shoir ikkinchi va uchinchi basmalada ham go'zal o'xshatishlar bilan davom etadi.

Ikkinchi basmala:

Bismillahir rahmanir rahim

Serv-i gülistan-ı kelam-ı kadim [Yahyabey 2016, 12].

Uchinchi basmala:

Bismillahir rahmanir rahim

Sünbül-i gülzar-ı kelam-ı kadim [Yahyabey 2016, 13].

kabi baytlar bilan boshlanadi.

Dostonning ikkinchi bobidan boshlab Navoiy "Xamsa"sining yana bir o'ziga xos jihatiga duch kelamiz. Navoiygacha yozilgan "Xamsa"larda boblarga alohida sarlavha qo'yilmagan. "Hayrat ul-abror"ning ikkinchi bobidan boshlab Navoiy saj'ning go'zal namunasi orqali bobning umumiy mazmun-mohiyatini ochib beruvchi nasriy sarlavhalardan foydalanadi. Shoir sarlavhalarni nomlashda hamisha ham bir xil andozadan kelib chiqmagan: zarur paytlarda murakkab shakllarni qo'llagan, ayrim o'rinlarda oddiy ifoda usullaridan foydalanish bilan cheklangan. Aynan shu holatni "Gulshan ul-anvor"da ham uchratamiz. Masalan, dostonning yozilish sabablari bilan bog'liq bob sarlavhasi quyidagicha: **"Ahbar-i ahyar-i ulu'l-elbab ve izhar-i i' tizar-i sahibul-kitab"**. Aynan shu bobda Navoiyga quyidagicha ta'rif beriladi:

*Mir Nevayi gul-i bi-hardur
Hamsesi bir nafe-i Tatar"dur
Sözleridür işk odunun sarsarı
Her biri bahr-ı şazelün gevheri
Gerçi şakıl oldı dili zer gibi
Kiymetinün keşreti gevher gibi.
Vasf idemem zat-ı hiredmendini
Ayn-ı acem görmedi manendini [Yahyabey 2016, 15].*

Shu tariqa har ikkala doston muqaddimasi hamd, na't, o'zi ergashgan shayx madhi, o'zidan avval "Xamsa" yozgan shoirlarga bag'ishlangan boblar bilan davom etadi. "Hayrat ul-abror" dostoni muqaddimasi 21 bobni tashkil etsa, "Gulshan ul-anvor"da muqaddima 19 bobni tashkil etadi.

Xamsachilik tarixida doston yozgan deyarli har bir ijodkor o'zi ergashgan shayx haqida alohida bob ajratadi. Undan so'ng shayxlar, ularning darajalari haqida dostonlarida to'xtalib o'tadi.

Alisher Navoiy hamda Toshlijali Yahyobey dostonlarida ham shayxlar qanday bo'lishi haqida yozadi va ularni tasniflab chiqadi.

"Hayrat ul-abror"da jami 12 ta shayx tarixiy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonidagi Ibrohim Adham bilan bog'liq Ibrohim Adhamning Ka'baga namoz o'qish bilan borgani va Robiya Adaviyaga esa Ka'baning o'zi unga muhtoj bo'lib kelgani haqidagi hikoyat keltiriladi. Ibrohim Adham Xudoga xizmatning yo'li deb namoz va ibodatga beriladi. Robiya Adaviya esa niyozmand, ya'niki u oshiq, yonib-kuyib faqat Xudoni sevgan, u Alloh ishqini birinchi o'ringa qo'ygan edi. Navoiy mana shunday oshiqona sadoqatni zohiriy toat-ibodatdan ustun qo'ygan.

Bu bilan Navoiyni islom dinining mohiyatini soʻfiyona ruhda idrok etgan.

Yahyobey Toshlijali “Gulshan ul-anvor” dostonida islom shartlari, ibodat va islom masalalariga alohida oʻrin ajratadi. Buni dostonning har bir bobida koʻrishimiz mumkin. Dostondan oʻrin olgan Ibrohim Adham bilan bogʻliq hikoyatda Ibrohim Adhamning oxiratdan, qiyomatdan qoʻrqqani va taqvo yoʻliga kirgani haqida hikoya qilinadi.

Ibrohim Adham bir kechada shon-shuhratini oshirish uchun katta ziyofat uyushtiradi.

*Il gözine žahiri vıran olan
Batını gencıne-i yezdan olan
Mertebe-i saltanatından geçen
Gün gibi şevk ile velayet açan
şahlarun alemleri vü azamı
Kutblarun muhteremi edhemi
Bir gice bir alı ziyafet ider
Begleri dıvanına davet ider
Came-i fahirlerini giydi hep
Zıneti oldu aceb-ender-aceb
Yani bu oldu şarazı niyyeti
şayi ola Şöhret ile Şevketi* [Yahyabey 2016, 75].

Mehmonlar devonda uni kutib oʻtirgan chogʻida sultonning yuziga ari nish uradi. Yuz-koʻzlari shishib, boʻrtib turgan sulton shu holatda devonga keladi.

*Bir eşek arısı yüzini sokar
Yüzi şişer aklı şaşar küp düşer
Yaş tulumı gibi kabarur yüzi
Ayı ödine döner iki gözi
şişmez idi böyle şurür itmese
Daireden taşra mürür itmese
Yüzi havalandı mişal-i habab
Aşladı ah eyledi itdi hicab
Kılmasa dünyası ile iftihar
Bozmazıdı süratını rüzgar* [Yahyabey 2016, 78].

Devonda shovqin koʻtariladi va yigʻilganlar sultonga nima boʻlganini soʻraydi. Sulton ularga aridan yengilgan kishi dunyo sultoni boʻla olmaydi, deb javob beradi. U saltanatdan voz kechib, bu-tun mulkini xalqqa taqsimlaydi. Faqirlik yoʻlini afzal koʻrgan sulton karomatlar koʻrsata boshlaydi.

*Didi ki hiç ola mı şah-ı cihan
Bir eşek arısına maşlûb olan
Anmanuz ol padşehün şevketin
Bir eşek arısı boza süretin
Mail olup fakr u fenadan yana
şahluşından geçüp oldı geda
Mamelekin eyledi halka ata
Kıldı abasını kaba-yı beka
Geldi ana keşf u keramat-ı Hü
İtdi heyûlasını mir'ât-ı Hü
Ehl-i tarîkat ki güzêr itdiler
Ayn-ı tettebbula nâzar itdiler
Bir elem-i aleme bulsa vusûl
Anı bilür kim neden olmışdur ol
Kendüyi anlar bilür idrak ider
Mana yüzi haşîlini çak ider [Yahyabey 2016, 80].*

Mazhab ahli har bir narsaga uning mohiyatini to'liq anglagan holda qarashini ta'kidlagan Yahyobey Toshlijali dunyoni qadrlash kerak emas deb hisoblaydi. Demak, umrini oxirini so'fiylikda o'tkazgan Toshlijali Yahyobey o'z dostonida shayxlar va avliyolar uchun alohida bob ajratgani bejiz emas.

Dostonda shoir vahdati vujud, haqiqati Muhammadiya, ilohiy ishq haqida so'z yuritadi. Dostonda mavqeyi koinot bo'lgan inson so'fiylik odoblari, komil murshid, nafs uchun kurash, ba'zi tasavvufiy atamalar va mashhur mutasavvuflar, valiylik darajalari haqida so'z boradi.

Dostonlardagi shayxlar timsolini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- a) dostonning muqaddimasida zikr etilgan shayxlar;
- b) dostonning asosiy qismiga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlar qismida tasvirlangan shayxlar.

"Gulshan ul-anvor" dostonida zikri keltirilgan shayxlarning 4 tasi tarixiy shaxslar bo'lib, ular Muhammad Dede, Ibrohim Adham, Abdulloh Ansoriy, Jaloliddin Rumiylardir. "Hayrat ul-abror"da esa jami 12 ta shayx tarixiy shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa

Har ikkala dostonda No'shiravoni Odil, Ibrohim Adham, Abdulloh Ansoriy bilan bog'liq hikoyatlar mavjud. Alisher Navoiy dostonida No'shiravoni Odil haqidagi hikoyat adab bilan bog'liq tarzda talqin qilingan va No'shiravonning hali podshohlik taxtiga

o'tirmagan, ya'ni shahzodalik davrini o'z ichiga olsa, Toshlijali dostonida No'shiravoni Odil haqidagi hikoyat qahramonning podshohlik davriga mansub. Toshlijali No'shiravon timsoli orqali podshoh qanday sifatlarga ega bo'lishi kerakligini uqtiradi va mamlakat aholisi uchun No'shiravonni namuna sifatida ko'rsatadi.

"Hayrat ul-abror" dostonida shayx Abdulloh Asoriy haqidagi hikoyatda ibodatni do'zaxdan qutulish yo jannatga kirish uchun emas, balki Haq taolo buyrug'iga so'zsiz amal qilish deb bilish lozimligi to'g'risida so'z borsa, "Gulshan ul-anvor" dostonida keltirilgan Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoyatda ota-o'g'il munosabatlari tarbiya va odob masalalariga bog'liq tarzda talqin qilingan.

Alisher Navoiy shayxlar bilan bog'liq nazariy masalalarni dostonning maqolalatlar qismida bayon qiladi. Yahyobey Toshlijali esa dostonning so'nggi faslida valiylik bilan bog'liq darajalarni keltirib, ularni 7 ta deb ko'rsatadi.

Adabiyotlar

- Алиев, Г. 1985. *Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока*. Москва: Наука.
- Levend, A.S. 1965. *Ali Şir Nevar: hayatı, sanatı va şahsiyeti*. Ankara.
- Араслы, Н.Г. 1969. *Низами и турецкая литература*. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Баку.
- Islom ensiklopediyasi*, 156-157. 2011. Istanbul.
- Latîfî. 2000. *Tezkiretüş-şu'ara ve tafsiratü'n-nuzamâ*. Haz. Rıdvan Cânım, Ankara.
- ISLÖM ANS., 1997, C.13. 345.
- Arasly N. 1980. *Nizami va turk edabyati*. Baky: Elm.
- Юсупова, Д. 2008. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. Филол. фан. ном. дисс. Тошкент.
- Taşlıcalı Yahya Bey. 2016. *Gulsen ul-envar*. Istanbul.
- Юсупова, Д. 2016. *Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти*. Тошкент: TAMADDUN.
- Хондамир Гиёсиддин бинни Ҳумомиддин. 2015. *Макорим ул-ахлоқ* (Яхши хулқлар). Форсчадан К. Раҳимов таржимаси. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат университети.
- Юсупова, Д. 2016. *Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври)*. Тошкент: ТАМАДДУН.
- Рустамий, Алибек. 1999. *Бисмиллоҳнинг маъноси*. Тошкент: Фан.
- Кароматов, Ҳ. 1999. *Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил)*. Филол. фан. док. дисс. ... автореф. Тошкент.
- Воҳидов, Р. 1994. *Алишер Навоий ва илоҳиёт*. Бухоро.
- Имомназаров, М. 2015. *Навоийшуносликка кириш*. Тошкент.
- Муҳиддинов, М. 2005. *Комил инсон – адабиёт идеали*. Тошкент: Маънавият.

Давлатов, О. 2017. Алишер Навоий шеърятда Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадиий талқини. Филол. фан. бўйича фал. док. дисс. ... (PhD) автореф. Самарқанд.

Comparison of Alisher Navoi's "Hayrat ul-Abror" and "Gulshan ul-Anvar" epics by Yahyobey Tashlijali

Diyora Abduljalilova¹

Abstract

In literary studies, there are works created within the framework of certain literary traditions and interactions, which are important to study in a comparative way. In particular, the study of the works created within the framework of the eight-century-old tradition of homogenization based on the principles of interaction and reflection, objectivity and syncretism is one of the current issues. In this sense, researching the literary relations between the Uzbek and Turkish peoples, whose language, culture, customs and traditions are close to each other, on the basis of the tradition of homogenization, is the demand of the time. This article talks about the comparison between Alisher Navoi's "Hayrat ul-Abror" and Yahyobey Tashlijali's "Gulshan ul-Anvar" epics.

Key words: *Hamsa tradition, "Hayrat ul-Abror", "Gulshan ul-Anvar", plot, introduction.*

References

- Aliev, G. 1985. *Temi i syuzeti Nizami v literaturax narodov Vostoka*. Moskva: Nauka.
- Levend, A.S. 1965. Alı Şır Nevar: *hayatı, sanatı va şahsiyeti*. Ankara.
- Arasly, N.G. 1969. *Nizami i tureskaya literatura*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. Baku.
- Islom ensiklopediyasi*, 156-157. 2011. Istanbul.
- Latîfi. 2000. *Tezkiretü's-su'ara ve tabsiratü'n-nuzamâ*. Haz. Rıdvan Cânım, Ankara.
- ISLON ANS., 1997, C.13. 345.

¹ *Diyora A. Abduljalilova* – independent researcher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: d.abduljalilova@mail.ru

ORCID ID: 0009-0007-2656-9894

For citation: Abduljalilova D.A. 2022. "Comparison of Alisher Navoi's "Hayrat ul-Abror" and "Gulshan ul-Anvar" epics by Yahyobey Tashlijali". *Golden scripts* 4: 47-64.

- Arasly N. 1980. *Nizami va turk edabyati*. Baky: Elm.
- Yusupova, D. 2008. *Alisher Navoiy "Xamsa" sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi*. Filol. fan. nom. diss. Toshkent.
- Taşlıcalı Yahya Bey. 2016. *Gulsen ul-envar*. Istanbul.
- Yusupova, D. 2016. *O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti*. Toshkent: TAMADDUN.
- Xondamir G'iyosiddin binni Humomiddin. 2015. *Makorim ul-axloq* (Yaxshi xulqlar). Forschadan K. Rahimov tarjimasi. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at universiteti.
- Yusupova, D. 2016. *O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri)*. Toshkent: TAMADDUN.
- Rustamiy, Alibek. 1999. *Bismillohning ma'nosi*. Toshkent: Fan.
- Karomatov, H. 1999. *O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari (adabiy-tarixiy tahlil)*. Filol. fan. dok. diss. ... avtoref. Toshkent.
- Vohidov, R. 1994. *Alisher Navoiy va ilohiyot*. Buxoro.
- Imomnazarov, M. 2015. *Navoiyshunoslikka kirish*. Toshkent.
- Muhiddinov, M. 2005. *Komil inson – adabiyot ideali*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Davlatov, O. 2017. *Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqini*. Filol. fan. bo'yicha fal. dok. diss. ... (PhD) avtoref. Samarqand.

Epistolary genre in Eastern classical literature

Gulchin Sofieva¹

Abstract

Epistolary genres (Greek epistole - letter) are a special form of literature embodied in texts “in the form of letters, postcards, telegrams sent to an address to convey certain information.” Writing is an ancient popular epistolary genre. For people separated by a long distance, correspondence was the only means of communication. Over time, fixed etiquette formulas specific to certain types of letters (business, personal, etc.) were developed. Correspondence with relatives, acquaintances, friends, colleagues, etc. was conducted between Today, epistolary genres are experiencing hard times. This is primarily due to the development of scientific and technical progress and the increasing importance of oral speech. The distance communication function includes phone calls, correspondence on social networks, communication via e-mail, etc. took it upon himself. Paper letters in the usual format are used very rarely, in most cases as a business document. On the one hand, technical innovations expand the possibilities of communicators: the processes of transmitting and receiving information are significantly accelerated, the interlocutors’ time is saved, it is possible to add photo, video and audio materials to the message, and conduct a dialogue.

Key words: *Epistolary genre, writing, letter types, communication function, business document, technical innovations.*

Introduction

Derived from the root ketb meaning “to write” in the dictionary, it means “what is written”. However, the Arabs mostly use the words kitâb, risâle, ahd, testament and sahîfe instead. In addition to this, the names of written documents such as “ihbarnâme, temliknâme” were made with the word nâme from Persian in Turkish. If the person who wrote the letter makes some requests from the addressee, such

¹ *Sofieva Gulchin* – Odlat Yurdu University, Doctor of philosophy in philology, PhD.

E-mail: gulcinsofiyeva@hotmail.com

ORCID ID: 0000-0002-7596-1186

For citation: Sofieva, G. 2022. “Epistolary genre in Eastern classical literature”. *Golden scripts* 4: 65–76.

letters are called wills. In this respect, the letter that a person leaves to his relatives in the event of his death, containing his wishes for the sharing and disposition of his property, is also called “testament” or “testament”. In addition, letter is a type of literature (mektûbat, ünşeat, resâil). Based on various verses, the Qur’an can be accepted as a collection of letters containing the orders and warnings of Allah Almighty to His servants.

The oldest letters surviving today, BC II. These are letters written on clay tablets in cuneiform writing and sealed in clay envelopes, sent between Kültepe (Kaniş-Kārum) near Kayseri and the city of Assyria in Mesopotamia at the beginning of the millennium BC. Some letters are also mentioned in the Bible. The oldest of them is St. These are the writings of David and Suleiman, mostly about the construction of Masjid al-Aqsa and the Palace of Suleiman. A large part of the New Testament consists of invitation letters sent by Paul, Peter and John to various nations [Concordance to the Good News Bible, 1959, 668]. In the Qur’an, as in the Bible. A letter (kitâb) written by Solomon is mentioned. This letter is a letter sent to the queen of Sheba (Belqis), calling her people to give up worshipping the sun and obey Allah and Solomon. It is understood from the expressions conveyed from the mouth of Belkis in the Qur’an that the letter begins with the basmala (an-Naml 27/28-31). In the Arabs, the first to start the tradition of starting the letter in the name of Allah is Umayya b. It is rumored that he was Abu’s-Salt. Umayya started his letter with the expression “bismikellâhümme” [Kalkaşendî 1977, 480]. The Messenger of Allah also put this phrase, which is in accordance with the creed of tawhid, at the beginning of his letters in the early periods. Later, he used the expressions “bismillah” inspired by the 41st verse of Hud surah, “bismillâhirrahman” inspired by the 110th verse of the Isra sura, and “bismillahirrahmânirrahîm” inspired by the 30th verse of the Naml surah [Ibn Sa’d 1976, 263-264].

While there are those who understand the adjective “kerîm”, which determines the quality of the letter written to Belkis in the 30th verse of the chapter of Naml, with the apparent meaning such as “beautiful, valuable, important”, there are also those who interpret the letter as sealed. Sealing the letter has been a tradition since the day the letter first appeared. The bottom of the letters written on parchment, such as tablet letters and their envelopes, and the mouths of the cases in which they were put in rolls were also sealed. When the Prophet wanted to send a letter to the Persian kisra, he was reminded that the Persians did not read unsealed letters, and

he acquired an agate seal on which “Muhammad Rasûlullah” was written. Abdullah b. Abbas likens the unsealed letter to the fal-kumar arrow (*gufl*), which has no sign, that is, useless (Ibn Abdûrabbih, IV, 281). Afterwards, it was customary for people to sign letters they wrote to each other. Official letters, on the other hand, continued to be sealed - or marked with a special sign-even if signed by the authorized person. Another point that draws attention in the story of Süleyman – Belkıs is that the letter in question was taken by a bird. Pigeons have been used to send letters since ancient times. Muslims also followed this tradition and used homing pigeons (*al-hammâmü’z-zâil*, *al-hammâmü’l-havadî*) to deliver the letter quickly. The letters were written in gubari calligraphy (*kalemü’l-cenah* “wing writing”) on small-sized thin parchment so that they would not give weight to the pigeon, and these were sent two hours apart.

Private letters are private in the Muslim tradition. The Prophet points out that it is a sin for a person to look at the letter of his believing brother without the permission of the owner (Abu Dâvûd, “Vitir”, 23; Taberânî, *al-Mu’cemü’l-kebir*, X, 320; Hakim, IV, 300-301). However, in cases such as the possibility of informing military secrets and espionage activities, this privacy is removed. As a matter of fact, Hatib b. Abu Beltea’s letter, the woman who took him was caught on the way (Bukhari, “Isti’zan”, 23) and upon this incident, the verse that forbids those who are hostile to Allah and believers to be friends and to give secrets to them (*al-Mumtahine* 60/1) was revealed. In jobs that required secrecy, letters were written by secret clerks, and care was taken not to open them or pass them into the hands of others. In particular, some measures have been taken to protect the privacy of political letters and transactions or to prevent their falsification.

The Prophet sent many letters to his friends, army commanders and foreign statesmen. Besides his revelation scribes, he had scribes and translators who wrote his official correspondence. Most of the letters sent were written for the purpose of invitation to Islam. Among them, Bukhari gives the letter he sent to the Byzantine Emperor Herakleios in the chapter he opened on the method of writing letters to the People of the Book [“Isti’zân”, 24]. The Messenger of God started his letter with basmala, and after explaining his name and stating his qualification as a servant and messenger of Allah, he mentioned the name of Heraclius. By the way, it is noteworthy that he aimed to emphasize that the real owner of the property is Allah, by addressing him as “the elder of the Greeks” instead of “malik”. Then

comes the salutation chapter; however, since the addressee is not a Muslim, he gave the greeting, which means prayer, with the general expression “to those who have attained the right path”. At the end of the letter comes an invitation to Islam, which is the main purpose of its writing. Because the addressee is a Christian, the 64th verse of the chapter of Al-i Imran, which invites Muslims to a common word, that is, to the unity of Allah, has been included. The letter of the Prophet is short and concise, since it does not include unnecessary expressions. Some of his letters have survived to the present day; Among them, what they wrote to Mukavkis and the false prophet Musaylime are preserved in the Topkapı Palace Museum.

The Messenger of God and Hulefâ-yi Raşidîn gave great importance to the beauty and style of writing in their official correspondence. The Prophet wanted the person writing the letter to start with his own name and ground the letter he wrote, and stated that this would make the job easier [Taberânî 1983, 38]. While there are those who interpret the expression “grounding” in the hadith as a metaphor for addressing the interlocutor with humility, there are also those who understand it as preventing the dispersal of the excess ink in the writing by soaking it into the soil [Mubârekfûrî, VII, 410]. It is understood from the different narrations of the hadith that this second interpretation is more correct. As a matter of fact, it is known that chalk powder was sprinkled on the writing until the blotter was used. The administrators were asked to pay attention to the spelling of the letters. As a matter of fact, when Omar saw that “min Abu Musa” was written instead of “min Ebî Musa” in a letter he received from Abu Musa al-Ash’ari, he ordered him to punish his clerk [Belâzürî, 497; Beyhakî, II, 258]. There is no doubt that there were some difficulties due to correspondence in the periods when the Arabic script was newly developed and when there was no point and movement. Osman’s clerk, Mervân b. The reason given is that a letter he dictated to the referee was misunderstood because there was no dot or movement, or that Marwan deliberately wrote a letter that had a different meaning from the caliph’s mouth [Taberî, Târîh, II, 662]. Probably due to such reasons, the barîd organization was established in an early period with the resâil and inşâ divans.

1. The epistolary genre in Arabic literature.

The most common word used for letters in Arabic literature is risala. In addition, words such as *kitâb*, *hâtâb*, page, word, makâle, language, ma’luke, alûk, meyâmîr were also seen in the same position. It is more common to call official treatises in letter form and

long treatises as books. The plural of risala meaning "letter, booklet" is resâil, and the plural of treatise meaning "transmission of information and news from one person to another" (embassy, message) is *risâlât*. The Qur'an, there are the words risala and risala, which express the transmission of information, news, orders and prohibitions belonging to Allah to the servants. The person chosen by Allah to fulfill this duty is also called.

Umayyad Caliph Hisham b. It is recorded that it started during the reign of Abdülmelik (724-743). Sâlim Ebu'l-Alâ, one of the first scribes of the Umayyads, used the word risâle in the translation of the written document that Aristotle sent to his student Alexander the Great, containing information on how to govern the cities he conquered, from the Greek original, and called it "Risâletü Aristotâlis ile'l- Iskender gave the name "fi siyâseti'l-müdün". In his eulogy to the first Abbasid caliph, Ebü'l-Abbas es-Seffâh, the poet Abu Dülâme mentions a treatise belonging to the leader of Banu Asad, written by a scribe. Later, the meaning of the pamphlet as "a means of conveying information and news in writing" became widespread; It is rarely used in the first sense [Yakut 1909, II, 4-5; VI, 106, 166]. The name of the monograph booklets written in the form of articles on scientific and literary subjects is given the name of risale because the first examples of these were written formally in the style of letters and they were prepared upon request and sent to the relevant person. This feature is clearly seen in the epistles of Câhiz, one of the first examples of this type.

Since the letter is at the forefront of the composition types in Arabic literature, the basic features of a literary letter are that it is written in a natural, plain, fluent but literary expression, in accordance with the understanding of the person addressed and his social position, away from unnecessary lengths and artificial expressions [Ahmed al-Hâşimî 1965, 44-45]. The artistic value of a literary letter is based on arts such as metaphor, simile, metaphor, allusion, and tauriye, which add depth and descriptive power to the expression, especially internal rhymes (seci). In this respect, Ibn Tabâtabâ, who draws attention between the literary letter and the eulogy, sees the literary letter as a free meter, converted into prose (mahlûl) ode, and the eulogy as a treatise converted into poetry (ma'kûd), and says that the parts, rhetoric subtleties and methods of both are similar to each other (‘İyârü’s). -şi’r, pp. 6-7). Ebû Hilal al-Askerî sees similarities between the sermon and the literary letter at these points [Kitâbü’s-Şinâ’ateyn 1952, 136].

Contemporary scholars' letters are private-official, literary-non-literary, didactic and cliché letters, scientific, competent and regular letters, political, social, legal, commercial, religious, personal letters, prose and verse letters, short, medium and long letters. they have obeyed. In the classical classification, two basic categories were determined for Arabic letters, namely "*ihvâniyyât*" and "*dîvâniyyât*". It is necessary to add scientific treatises to these.

Ikhvaniyyat type letters are private correspondence between friends and relatives. Its subjects are the events of normal life such as birth, marriage, holiday and success celebrations, condolences, thanks, gift giving. In these, nostalgia is expressed with feelings such as love and longing for the person addressed. It has been deemed appropriate to use the long writing style (*itnab*) in such letters to describe the emotions. Since distances and long separations weaken the bonds of friendship and love, the letters received in these situations are seen as the most important factor that saves, maintains and strengthens the friendship as the proxy of the distant friend and the witness of loyalty. Writers before Kalkashendi mentioned several types of *ihvaniyyat* such as celebration, condolence, gift giving and showing compliments. Kalkashendi, on the other hand, determined seventeen categories for *ihvaniyyat*. These include requests for mediation, love, longing, invitation to visit, love, marriage proposal, declaration of apology, thanks, reproach, asking about the condition of the patient, conveying news. Letters written about private affairs between high-ranking statesmen such as caliphs, vizier and amir and those under them were also included in the *ihvâniyyât*, but they were seen as *ihvâniyyât* similar to official letters. While the majority of the letters written in prose form the *Ikhvaniyyat* type, there are also letters written in prose-verse and only in poetry. This type constitutes the first part of the letters exchanged between Abu Ishaq al-Sabi and Sharif er-Radi [Resâ'ilü's-Şâbî ve's-Şerîf er-Rađî, 1968, 62]. Narration in private letters.

As in other types of construction, letters also have introduction (*bidayet/sadr*), development (*mavzû*) and conclusion (*final/hatime*) parts. In correspondence among Muslims, the letter starts with a short *hamdele* and sometimes a *salvele* after the *basmala*, and then the main subject of the letter is passed. In contrast to this standard starting form seen in eastern letters, Andalusian letters usually begin with a prayer or a verse to the sender, or a direct introduction is made to the subject. These stereotypes do not exist in correspondence between Muslims and non-Muslims. In them, it begins with an

expression such as “This is a letter from so-and-so to so-and-so...”. The letters are mostly written with a prayer cliché, sometimes with verses, hadiths, poems, proverbs, etc. appropriate to the content. ends with. There are similar clichés in the sections of official letters (*dîvaniyyât*). In 90 (709), the governor of Egypt, Kurre b. The fact that these clichés were seen in Sharik’s letters indicates that there were clichés with the letter writing tradition in Arab society long before him [Becker 1906, 92-94].

The name *Dîvaniyyât* (*resâilü dîvaniyyât*) was given by Muâviye. He received it from *Dîvânü’r-reşail* (*Dîvân-ı İnşâ*), who was responsible for preparing the official correspondence of the state, which took place in the time of Abu Sufyan (661-680). However, since all the letters of the administration did not come from this divan, the term “official letters” (*resail officialyye*) was considered more comprehensive for the letters related to the state, administration and government affairs. These are administrative, political, judicial, judicial, legislative, economic, etc. Appointment-removal, *ijazet*, oath, celebration, peace, allegiance, *iqta*, testament, *mahr*, *tazkire* letters, *ahidnâme* written for the heir to the heir, trust given to an enemy or rebel, celebration of war or victory, threatening letters written for rebels, They are official letters such as declaration letters (*menşûrât/ edicts*) containing public statements. *İbnü’n-Nedîm* not only mentions many examples of such letters determined according to their subjects, but also records thirty types of letters from Kalkashendi *Dîvânü’l-inşâ*. In *Dîvaniyyât*, it is seen that a high level of literary language is used in addition to the subtle diplomacy style of today’s administrative letters. The letters of *dîvaniyyat*, written by the writers and scribes such as *Abbad*, *Kādî al-Fâzıl* and *İbn Nübâte*, have been evaluated as examples of construction at a high literary level by the scholars of literature and rhetoric. The best of them were kept as examples in the *divan*, and such official and literary letters were read to the public, their contents discussed and interpreted.

The art of writing a literary letter is called “*teressul*” (*Sinâatü’t-teressul*) and the writer is called “*müteressil*”. The members of the *Dîvân-ı İnşâ* would be chosen from among the authors and authors with the highest literary style. III. From the middle of the (IX.) century, handbooks began to be written for the clerks who would work at various levels of the state. *Ibn Kutayba*’s *Edebü’l-kâtib*, *İbn Ebû Tahir Tayfur*’s *Kitâbü’l-Mansûr ve’l-manzûm*, *Ebû Bekir es-Sûlî*’s *Edebü’l-küttâb*, *İbn Halef*’s *His Mevâddü’l-beyân*, *al-Meşelü’s-sâ’ir fî etab’l-kâtib ve’s-şâ’ir* and *al-Miftâhu’l-münşâ li-ḥadîkati’l-inşâ*

of Ziyâeddin İbnü'l-Esîr, Hüsnu't-tavessul to şinâ'ati't-teressul by Şe-hâbeddin Mahmûd al-Halebî, et-Ta'rîf bi'l-muşţalaḥi'sh-sharîf by Ibn Fazlullah al-Omerî and its commentary, Ibn Nâzırülceyş in Teşķîfü't-Ta'rîf is one of such works. With its fourteen volumes, the most comprehensive of such works is Kalkaşendi's Şubḥu'l-a'sâ fî şinâ'ati'l-in-şâ [İbn Fazlullah, 1992, 245]. In the mentioned works, the necessity of having a high-level literary and eloquent style, as well as a wide culture, scientific and literary formation information that must be read and memorized in order to grow up, moral virtues desired to possess, various personalities, and how the beginning, conclusion and content of the letters to be written to the authorities, the adjective, nickname and imprint clichés to be used for the administrators at various levels in the addresses, the principles of composition and spelling, the calligraphy and types, the letters and their qualities, the quality of the paper to be used in the letters, the types of pen and dipstick, ink, inkwell etc. It includes detailed information on the subject and various letter samples.

A large number of letter collections belonging to old and new times have been created. Of these, Ahmed Zekî Safvet's Cemheretü resâ'ilî'l-'Arab (I-IV, Cairo 1971) includes letter samples from the early periods of Jahiliyya, sadr-i Islam, Umayyad and Abbasids. Apart from this, Muhammad Kurd Ali's Resâ'ilü'l-bülegâ, Fâyiz Abdünnebî Felâh el-Kaysî's Edebü'r-resâ'il fi'l-Andelüs fi'l-ḳarnî'l-hâmisî'l-hijrî can be mentioned. In addition, among the old ones, Câhiz, İbn Hazm, İbn Zeydûn, İbnü'l-Mu'tez, Ebû Bekir el-Hârizmî, Bedîüzzaman el-Hamedânî, Ziyâeddin İbnü'l-Esîr, Ebü'l-Alâ el-Maarri, Ebû İshak es-Sâbî, Şerîf er-Radî, Şerîf el-Murtazâ, Sâhib b. Abbad, Ebü'l-Fazl İbnü'l-Amîd, Kādî el-Fâzıl, İbn Nübâte el-Misrî; There is a collection of letters and correspondence examples written by Mahmud al-Âlûsî, Kermeli, Cübrân Halil Cübrân, Mey Ziyâde, Mustafa Sâdık er-Râfiî, M. Reşid Rızâ, Şekîb Arslan and Cemîl Sıdkî ez-Zehâvî. M. Shukri al-Alusi, the introduction of the publication [Karlsson 1962, 65-77].

2. Epistolary genre in Persian literature.

There are two types of letters (nâme) in Persian literature: sultâniyyât and ihvâniyyât. Official letters sent by sultans and statesmen to each other or to those under their command are called sultâniyyât, and private letters written by commoners are called ihvâniyyât. The rules of letter writing in Iran began to be formed from the Sâmânî period, and in the 9th and 10th centuries, with the establishment of local dynasties in the east of Iran, and the use of Persian as a court and literary language, Persian gained importance in cor-

correspondence between emirs. During the period of the Ghaznids, Seljuks, and Kharizmshahs, when most of their official correspondence was in Persian, with the creation of the Dîvân-i Risâlât institution, the sultâniyyât type of letter writing recorded a literary development. As a result, letter writing was accepted as an art and included in the field of essay science, and sections explaining the rules of secretarial and letter writing began to be included in literary works such as *Ķâbûsnâme*, *Siyerü'l-mulûk* and *Çehar Maḳâle*. Works such as *Daşul-i Debîrî* and *Daşul'l-katib fî ta'yini'l-merâtib* were written during this period when letter writing acquired a literary quality.

During the period of Mahmud Ghaznavi, Vizier Abu'l-Abbas Fazl b. With the initiative of Ahmed el-Isferâyînî, Arabic was abandoned and Persian was used in official and administrative correspondence. As a result of the special interest of Iranian munshi, edips and scholars to write letters, both types of letters developed and new styles appeared. Especially in official correspondence, the inclusion of adjectives, titles, nicknames and special requests made this type of letter acquire a unique style and shape. VI (XII) and VII. In the (XIII.) centuries, the titles and adjectives used in the V. (XI.) century letters were replaced by long and long idioms. Special titles and adjectives quoted from Arabic letters or newly produced were used for every work and task in the divan; these began to take more place in the letters written to the higher authorities.

In Old Persian, letters are also seen with the titles of *menshur*, *tevki'*, *fetihnâme*, *shiketnâme*, *ahidnâme* and *sevgendnâme*. Persian literary letters were compiled in collections called "*mekâtîb*", "*munsheât*" or "*rukaât*". *Munshe'ât-ı Ebû Nasr Müşkân*, the letters of Sultan Mahmûd-ı Ghaznevî, narrated by Beyhakî in *Târîḥ*, collected in the book called *Fezâ'ilü'l-enâm min resâ'ili Ḥücceti'l-Islâm* by Imam Gazzâlî [Abdülhüseyin 1977, 131]. His letters containing his meetings about the personalities of the time can be counted among the examples of the V. (XI.) century. VI. (XII.) century examples of special letters are *Nâmehâ-yi Ḥüccetü'l-Islâm Aḥmed Gazzâlî* (Tehran 1356 H.), which reflects the form of correspondence between scholarly sheikhs of the period, *Namehâ-yi 'Aynü'l-Ḳudât-ı Hemedânî*, which contains special letters with Sufism. (Tehran 1348 hsh.), *Münşe'ât-ı Ḥâḳânî* (Tehran 1349 hsh.), which contains both private and official letters, can be shown. The letters of Reshiduddin Vatvât in the work *Ebkârü'l-efkâr fi'r-resâ'il ve'l-esh'âr* (*Nâmehâ-yi Reşiduddîn Vatvât*, Tehran 1338 h.) are examples of special letters of this century. Baḥa'eddin Muhammed b. Muayyed al-Baghdâdî's letters included

in et-Tevessül ile't-teressül also belong to this period. VII. The letters of Mevlânâ Celâleddîn-i Rûmî (Mektûbât-i Mevlânâ Celâleddîn, Istanbul 1356/1937), which are among the examples belonging to the (XIII.) century, contain mystical advice.

Conclusion

One of the tasks that will play an important role in the investigation of the fundamental problems of our literature is related to the separate research of genres and the determination of their form and content characteristics. Until now, this work has been carried out one-sidedly, given importance to certain genres and sufficiently analyzed, while others have been forgotten or not considered so important. However, in order to get a more complete picture of our literary history and literary theory, after involving all the genres, big and small, in the research, analyzing them separately, and determining the unique features of each of them, it is possible to examine the global problems of our literature in the light of the interrelationships of the genres.

References

- Abdülhüseyn Z. 1955. *Ez Güzeşte-i Edebî-yi Îrân*. Tahran.
- Ahmed el-H. 1965. *Cevâhirü'l-edeb*. Kahire.
- Buhârî, "İsti'zân", 23, 24, 25.
- Becker, C. 1906. *Papyri Schott Reinhardt*. Heidelberg.
- Ebû Dâvûd, "Vitr", 23.
- Karlsson, G. 1962. *Idéologie et cérémonial dans l'épistolographie byzantine*. Uppsala.
- Özaktürk, G. 2000. *Yazınsal Mektubun Tarihçesi*. Ankara.
- Hüseyn H. 1988. *Fenn-i Neşr der Edeb-i Fârisî*. Tahran.
- İbn Fazlullah el-Ömerî. 1992. *et-Ta'rif bi'l-muşṭalaḥi's-şerîf*. Kerek.
- Taberânî. 1983. *el-Mu'cemü'l-kebîr*. Musul.
- Özgüç, T. 1959). *Kültepe-Kaniş*. New Researches of the Center of Assyrian Trade Colonies. Ankara.
- Yâkût. 1909. *Mu'cemü'l-üdebâ*. London.

Sharq klassik adabiyotida epistolyar janr

Gulchin Sofiyeva¹

Abstrakt

Epistolyar janrlar (yunoncha epistole – xat) – “muayyan ma’lumotlarni yetkazish uchun manzilga yuboriladigan xatlar, otkritkalar, telegrammalar ko’rinishidagi” matnlarda mujassamlangan adabiyotning maxsus shakli. Yozuv qadimgi mashhur epistolyar janrdir. Uzoq masofa bilan ajralib turadigan odamlar uchun yozishmalar yagona aloqa vositasi edi. Vaqt o’tishi bilan ma’lum turdagi harflarga (ishbilarmonlik, shaxsiy va boshqalar) xos qat’iy etiket formulalari ishlab chiqildi. Qarindoshlar, tanishlar, do’stlar, hamkasblar va boshqalar bilan yozishmalar olib borildi Bugungi kunda epistolyar janrlar og’ir kunlarni boshdan kechirmoqda. Bu, birinchi navbatda, fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi va og’zaki nutqning ahamiyati ortishi bilan bog’liq. Masofaviy aloqa funktsiyasi telefon qo’ng’ir-oqlari, ijtimoiy tarmoqlarda yozishmalar, elektron pochta orqali muloqot qilish va hokazolarni o’z ichiga oladi. Odatiy formatdagi qog’oz harflar juda kamdan-kam hollarda, aksariyat hollarda biznes hujjati sifatida ishlatiladi. Bir tomondan, texnik yangiliklar kommunikatorlarning imkoniyatlarini kengaytiradi: axborotni uzatish va qabul qilish jarayonlari sezilarli darajada tezlashadi, suhbatdoshlarning vaqti tejraladi, xabarga foto, video va audio materiallarni qo’shish, dialog o’tkazish mumkin.

Kalit so’zlar: *epistolyar janr, yozuv, xat turlari, aloqa vazifasi, ish hujjati, texnik yangiliklar.*

Adabiyotlar

Abdülhüseyin Z. 1955. *Ez Güzeşte-i Edebî-yi Îrân*. Tahran.

Ahmed el-H. 1965. *Cevâhirü’l-edeb*. Kahire.

Buhârî, “İsti’zân”, 23, 24, 25.

Becker, C. 1906. *Papyri Schott Reinhardt*. Heidelberg.

Ebû Dâvûd, “Vitir”, 23.

Karlsson, G. 1962. *Idéologie et cérémonial dans l’épistolographie byzantine*. Uppsala.

Özaktürk, G. 2000. *Yazınsal Mektubun Tarihçesi*. Ankara.

¹ *Sofiyeva Gulchin* – Odlar Yurdu universiteti, filologiya fanlari doktori, PhD.

E-pochta: gulcinsofiyeva@hotmail.com

ORCID ID: 0000-0002-7596-1186

Iqtibos uchun: Sofiyeva, G. 2022. “Sharq klassik adabiyotida epistolyar janr”. *Oltin bitiglar* 4: 65–76.

- Hüseyn H. 1988. *Fenn-i Neşr der Edeb-i Fârisî*. Tahran.
- İbn Fazlullah el-Ömerî. 1992. *et-Ta'rîf bi'l-muşṭalaḥi's-şerîf*. Kerek.
- Taberânî. 1983. *el-Mu'cemü'l-kebîr*. Musul.
- Özgüç, T. 1959). *Kültepe-Kaniş*. New Researches of the Center of Assyrian Trade Colonies. Ankara.
- Yâkût. 1909. *Mu'cemü'l-üdebâ*. London.

TILSHUNOSLIK
LINGUISTICS**L. Z. Budagov lugʻatida eski oʻzbek adabiy
tili harbiy istilohlarining izohlanishi**MahliyoXon Tuxtasinova¹**Abstrakt**

Mazkur maqola Lazar Zaharovich Budagovning “Turk-tatar tillarining qiyosiy lugʻati” (“Сравнительный словарь турецко-татарских наречий”), uning tartiblanish metodi, tarkibiy qismlari va kiritilgan soʻzlarning izohlanishi semantik va etimologik jihatdan Navoiy, Bobur asarlaridan keltirilgan misollar asosida yoritilgan.

Turkiy lugʻatlar mamlakatimiz va chet el kutubxonalarida noyob yodgorlik sifatida saqlanib kelinmoqda. Ularning aksariyati yagona va qadimiy nusxa ekanligi bilan ahamiyatlidir. Lugʻatlar doimo turkolog-soʻzshunos olimlarning diqqatini oʻziga tortib kelgan.

L.Z.Budagovning asosiy ilmiy asarlari roʻyxatida II jildan iborat boʻlgan “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, с включением употребительнейших слов арабских и персидских и с переводом на русский язык” (Turk-tatar tillarining qiyosiy lugʻati) (turk-tatar lahjalarining qiyosiy lugʻati, shu jumladan arab va fors soʻzlaridan foydalanish va rus tiliga tarjima) alohida oʻrin tutadi. XIX asrning eng ulkan turkiy lugʻatlaridan biri boʻlgan ushbu lugʻatni tuzish uchun boy tilga oid va ekstrolingvistik materiallar muallif tomonidan bir qancha manbalardan misqolab yigʻib chiqilgan. Lugʻatga koʻplab sharqiy xalqlar tilidagi faol soʻzlar kiritilgan. Shu bois ular qiyoslash jarayonida xalqlarning yozma yodgorliklari, turkiy tillardagi soʻzlashuv va tarjima lugʻatlari hamda adabiy merosiga oid asarlar matnlaridan foydalanilgan.

Lugʻatda mavjud chigʻatoy tiliga oid leksemalar mavzu guruhlari ajratilgan holda tadqiq etilgan. Ulardan biri harbiy istilohlar, harbiy mansab, lavozim va unvonlarni ifodalovchi terminlar, jangovar harakat va taktik amaliyotlarni ifodalovchi terminlar, qurol-yarogʻ, aslaha-anjomlarni

¹ MahliyoXon Tuxtasinova *Shavkatjon qizi* – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: mahliyoshavkatjonovna@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-6849-0603

Iqtibos uchun: Tuxtasinova, M. Sh. 2022. “L. Z. Budagov lugʻatida eski oʻzbek adabiy tili harbiy istilohlarining izohlanishi”. *Oltin bitiglar* 4: 77–100.

ifodalovchi terminlar, qo'shin turlari va askariy qism nomlarini anglatuvchi terminlar, mudofaa va muhandislik inshootlari nomlarini anglatuvchi terminlar kabi mavzu guruhlariga ajratilgan holda tahlil etilgan hamda leksemlarning statistik tahlili keltirilgan. Lug'atda berilgan so'zlar izohli lug'at asosida hozirgi ma'nosi qiyoslanib o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *chig'atoy tili, qiyoslash, terminologik leksika, lug'at, bosh so'z, izoh, turkiy tillar, manbaa, ya'charçi, hiravul, tolyama, yo'l, mondu, uran, chuqal.*

Kirish

Muayyan adabiy tilning so'z boyligi o'z tarkibida maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikani u yoki bu darajada qamrab olishi bilan ham belgilanadi. Umumiste'mol so'zlardan farqli ravishda maxsus tushunchalarni anglatish, ifodalash uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan terminlar o'zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari zaminida tarkib topdi va rivojlandi.

O'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (VII–X), eski turkiy til (XI–XV), eski o'zbek adabiy tili (XV–XX asr boshi), sho'rolar davri va istiqloq davri o'zbek terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam o'n to'rt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir bo'lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi. Hozirgi turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili xazinasida muayyan darajada qo'llanishda davom etayotgan yoki bugun iste'moldan butunlay chiqib ketgan qadimgi turkiy tilga taalluqli leksik birliklar tarkibida terminologik leksika ham sezilarli o'rinni egallaganligi bilan xarakterlidir [Dadaboyev 2020,13].

O'zbek lug'atchiligi tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Hozirga qadar yetib kelgan lug'atlar ichida 1074-1075-yillarda Mahmud Koshg'ariy tomonidan tuzilgan "Turkiy so'zlar devoni", ya'ni "Devonu lug'atit turk" ulkan ahamiyatga egaligi bilan ahamiyatlidir. Zotan, arabzabon xalqlar uchun juda katta hududda istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar til xususiyatlari, chunonchi, alifbosi, tovush qurilishi, lug'at boyligi, so'z turkumlari va gap qurilishi haqida ma'lumot berish uchun mo'ljallangan mazkur asarning ilmiy ahamiyati haqida shu kunga qadar dunyo bo'yicha yaratilgan 1800 ga yaqin ilmiy izlanishlarda so'z yuritilgan [Dadaboyev 2020,16]. Shu kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi, O'rta Osiyo xalqlari uchun qimmatli yana bir lug'at L.Z.Budagovning "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" asaridir.

L.Z.Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug'ati xususida

Turkiyshunoslikda Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lugatit turk”idan keyin eng qimmatli asarlardan biri – “Turk-tatar tillarining qiyosiy lug'ati” (turk-tatar lahjalarining qiyosiy lug'ati, shu jumladan arab va fors so'zlaridan foydalanish va rus tiliga tarjima)dir. Ushbu lug'at XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan. Asar ikki jildidan iborat bo'lib, I jild (810 bet) 1869-yilda, II jild esa (415 bet) 1871-yilda nashr etilgan. Lug'at bor-yo'g'i 1500 adadda dunyo yuzini ko'rgan. Asar jami 16694 ta — birinchi jildda 11234, ikkinchi jildda – 5463 [Memetov 2019, 56] so'z haqidagi maqoladan tarkib topgan.

Lug'at XIX asrda tuzilgan 25200 leksemadan tashkil topgan katta lug'atlar turiga mansub [Yusupova 2012, 226]. 1960-yilda Moskvadagi “Hayka” nashriyotining Sharq adabiyoti Bosh tahririyati ushbu asarni faqat 1500 nusxada fotomexanik usulda qayta nashr etdi. Hozirda lug'atning xuddi shu nusxasi internetda pdf formatida ro'yxatdan o'tkazilgan. A.N. Kononovdan boshlab, turkiy olamda tilshunoslikning turli masalalarini ko'rib chiqqan va ko'rib chiqayotgan olimlar ushbu lug'atni asosiy manba sifatida foydalanishgan [Курышжанов 1963; Сыздиқова 1975; Баскаков 1985, 241-248; Благова 1985, 42-56; Сарибоев 1985; Севортян 1989; Нурмагамбетов 1994; Тасимов 1995; Гумерова 2012; Мамбетмуратова 2012; Галимова 2013, 41-44; Dadaboyev 2020].

Lug'at turkiy tillarning ikki asosiy tasniflash guruhi leksik materiallarini taqqoslash asosida qurilgan bo'lib, ular tarkibiga o'sha paytgacha hali ham intuitiv ravishda, ya'ni turk guruhlari (zamonaviy terminologiyaga ko'ra, o'g'uz yoki janubi-g'arbiy) va tatar (qipchoq yoki sharq)ning zamonaviy terminologiyasiga muvofiq yondashilgan. Lug'atda hozirgi zamon turkiy tillar – tatar, qirg'iz, boshqird, nog'ay, qirim-tatar, ozarbayjon, turk, turkman va boshqa tillarda kichik fonetik o'zgarishlar bilan ishlatilgan umumiy turkiy va turkiy xalqlar so'z boyligi keng aks etgan [Memetov 2019, 118].

L.Budagovning asosiy ilmiy asarlari ro'yxatida “Arab va fors tillarining eng keng tarqalgan so'zlari kiritilgan va rus tiliga tarjimasi bilan turk-tatar lahjalarining qiyosiy lug'ati” alohida o'rin tutadi. Lug'at tarkibidagi leksik material arab yozuvining alifbo tartibida tuzilgan. Birinchi jildda so'zlar faqat arab yozuvida, ruscha harflar bilan transliteratsiyasiz berilgan, ikkinchi jildda har bir leksik birlikning transkripsiyasi ruscha harflar bilan ko'rsatilgan. Tabiiyki, bu holat lug'atdan foydalanishni ancha osonlashtiradi.

كيمورماك *keymürmek* tarzida “yop=, yashir=”, لاچين ، لاچين *lachin* “ločin” holatida berilgani foydalanuvchiga qulaylik yaratadi.

Lug‘atshunos asarning muqaddimasida lug‘at talabalar, mansabdor shaxslar, tarjimonlar va savdogarlar uchun mo‘ljallanganligi, shu munosabat bilan lug‘atda “eng keng tarqalgan lahjalar guruhi”ni taqdim etganligini qayd qiladi. Shu o‘rinda, muallif solishtirish uchun eng ko‘p “ishlatiladigan”, ya’ni eng ko‘p tarqalgan turk lahjalar (tillar) miqdorini atayin cheklaydi. Muallifning fikriga ko‘ra, o‘sha davrda eng “keng foydalanilgan” yoki eng keng tarqalgan lahjalari (tillari): ozarbayjon, oltoy, boshqird, buxoro, chig‘atoy, qozon, qashqar, qirg‘iz, qo‘qon, qirim, qumiq, nog‘ay, sibir tatarlari, tatar, turk, turkman, uyg‘ur tillari bo‘lgan.

Lug‘at tuzish uchun muayyan tilga oid materiallar muallif tomonidan bir qancha manbalardan yig‘ib chiqilgan. Ushbu ish uchun tarixiy manba sifatida quyidagi asarlar xizmat qilgan:

- 1) Abul G‘oziyning asarlari;
- 2) Boburning Ilminskiy tomonidan 1857-yilda Qozonda nashr etilgan chig‘atoy lahjasidagi yozuvlari;
- 3) Qati Burxoniyning “Рукописный словарь персидского языка”;
- 4) Vamberining 1868-yilda Leybsikda nashr etilgan “Djagataische Sprachstudien” asari;
- 5) Alisher Navoiyning g‘azallariga chig‘atoy lahjasi lug‘ati, turk tilidagi tarjima bilan;
- 6) Ilminskiyning qirg‘iz lahjasiga oid materiallari;
- 7) Konstantinopolda chop etilgan “Qomus” – turk tilidagi izohlari bilan arab tili lug‘ati;
- 8) 1828-yilda Kalkuttada chop etilgan fors tiliga tarjima-si bilan chig‘atoy lahjasining “Калькутскій словарь джагатайского наречія съ персидскимъ переводомъ”;
- 9) 1866-yilda Sankt-Peterburgda chop etilgan V.V.Radlovning “Turk qabilalari milliy adabiyotlaridan namunalar” 1-qism, Oltoy kichik lahjasi;
- 10) Troyanskiyning “Qozoq lahjasi lug‘ati”;
- 11) Giganovning Tobol lahjasidagi lug‘at va o‘quv qo‘llanmalari;
- 12) Konstantinopolda chop etilgan Farhangi-Shuriyning turk tilidagi tarjimasini bilan “Fors tili lug‘ati”;
- 13) Hanjariyning lug‘ati;
- 14) Sengi-Lahi yoki Lahjat ul-lug‘ot;
- 15) 1864-yilda Qozonda chop etilgan noma‘lum muallifning

سراج القلوب Qalblar quyoshi – asli arab tilidan fors tiliga, fors tilidan chig'atoy tiliga tarjima qilingan Payg'ambarlar haqida qissa;

16) 1859-yilda Qozonda chop etilgan Riboti O'g'uziyning qozisi Burxoniddin ibn Nasriddin tomonidan hijriy 809-yilda chig'atoy tilida yozilgan Payg'ambarlar tarixi;

17) Alisher Navoiyning turkiy va forsiy tillar bahsiga oid ijod namunalari ("Muhokamat ul-lug'atayn");

18) Katrmerning 1841-yilda Parijda nashr etilgan "Qadimgi fors shohlarining qisqa tarixi" asari.

Shu sababli Budagovning qiyosiy lug'ati turkiy adabiy tillar, chunonchi, usmonli-turk, qirim-tatar va chig'atoy kabi tillar leksikonini qiyosiy ochib beradi.

Z.Budagov lug'at maqolalarini shakllantirishda V.Dalning "Толковый словарь живого великорусского языка"ni tuzishda qo'llagan metodikasidan foydalangan: so'zlarning joylashuvi, so'z maqolalarining ko'rgazmali materiallar, xususan, maqollar, matalar, turli fraziologik birliklar, etnografik materiallar bilan boyitgan. Budagov tomonidan qabul qilingan so'z shakllantiruvchi-uyali so'zlarning joylashtirilishi juda murakkab, ammo muvaffaqiyatli chiqqan [Memetov 2019, 55].

Otga xos lug'aviy maqolada asosiy bosh so'z variantlari sifatida avval uning otli yasalmalari, qismlar – "yasalgan va qo'shma so'zlar" asosiy tarkibi sifatida bosh so'z bo'lgan otli birikmalar va fe'lli birikmalar, turg'un iboralar va fraziologizmlar keltirilgan.

So'z shakllantiruvchi – uyali so'zlarning joylashtirilishi muallifga umumiy ildizga ega bo'lgan so'zlarning semantik bog'liqligi, turkiy tillar va lahjalarining so'z yasalishi hamda grammatik xususiyatlarini ochib berish va o'z navbatida, ushbu leksikografik asarda keng qamrovli umumturkiy lug'at tug'ilishiga imkon berdi. Yangi so'zlar yasalishi uchun asos sifatida xizmat qiluvchi yasama so'zlar ushbu qoidaga istisno tariqasida keltirilgan. Ammo ushbu tamoyilga barcha holatlarda ham amal qilinmagan.

L. Budagov lug'atda so'zlar yasalishidan tashqari har bir turk lahjalariga grammatik tavsif berib o'tgan. Lug'atdagi fe'l nisbatlari, sifatoshlar va boshqalarning yasalishini yoritishga bag'ishlangan grammatik tushuntirishlarning ko'pligi shu bilan izohlanadi. N.K.Dmitrevning fikricha, ushbu grammatik ekskurslar (chekinishlar) turkiy tillarning kelajakdagi qiyosiy grammatikasi uchun xizmat qilgan bo'lishi mumkin [Kagarmanov 2021, 3].

Tadqiqotchilar qiyosiy lug'atning quyidagi muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatishadi:

1. Ko'pgina so'zlar ularning etimologik tarkibi bilan qo'shilgan holda keltirilgan va bu jihat aksariyat muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

2. Ikkinchi ahamiyatli tomoni terminlar keltirilganda ularga qisqa ta'riflar berib o'tilgan va qaysi lug'at, manbada keltirilishiga havola ham berilgan. Istilohlarning ichida ma'muriy, huquqiy, ilmiy, diniy va boshqa istilohlar keltirilgan.

3. Uchinchi muhim jihati - geografik nomlar, turk eposi va folklori qahramonlari nomlari, turmush tarzidagi turli so'zlar, turk xalqlarining urf-odatlarini qisqa izohlar bilan berilgan.

Bu ma'lumotlar lug'atga nafaqat izohli, balki unga etimologik, qisman, ensiklopedik lug'at xususiyatlarini ham bera-di [Будагов 1869, 4]. Bunday xususiyatning yaratilishi lug'atdagi boy tilga oid ekstrolingvistik materiallar bilan boyitilganligida bo'lib, muallif so'zlarning yoritilishida ayni xalq ijodkorlarining badiiy adabiyotidan namuna keltirish orqali bayon etganligida ham ko'rish mumkin. Lug'atga ko'plab sharqiy xalqlar tilidagi faol so'zlar kiritilgan. Shu bois ular qiyoslash jarayonida Sharq xalqlarining yozma yodgorliklari, turkiy tillardagi so'zlashuv va tarjima lug'atlari hamda adabiy merosiga oid asarlar matnlaridan foydalanilgan. Xususan, L.Budagov A.Troyanskiyning tatarcha (Qozon) lug'atidan foydalangani kabi I.Giganovning lug'atlaridan ham istifoda etgan. Bulardan tashqari, L.Budagovning lug'atidan ozarbayjon, boshqirt, qozoq (qirg'iz), tatar (qirim), qumiq, no'g'oy, turkman, oltoy va tatar (sibir) tillaridagi ma'lumotlar ham o'rin olgan. Oltoycha ma'lumotlar V.Radlovning 1866-yilda chop etilgan "*Proben der Volksliteratur der turkischen Stamme Sud-Sibiriens*" kitobining birinchi bo'limidan tanlab olingan.

L.Budagovning *Proben*'ning 1868-yilda nashrdan chiqqan ikkinchi bo'limidan foydalangani haqida ham ma'lumotlar mavjud [Будагов 1869, 4]. Bundan tashqari umumturkiy, forsiy va chig'atoy tillariga oid so'zlarni izohlashda Abulg'oz, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridan namunalar keltirilgan. Masalan, hozirgi iste'moldagi "yoni"(da), "eni"(da), "yaqin"(ida) so'zlari turkiy tilda *اڭى* eni, chig'atoy tilida *اڭىدا-اڭى* - *enidä-eni*, Alisher Navoiy asarlarida *ياندە* - *yanında* shaklida qo'llanilgan. "Boburnoma" ning milodiy 1525-yil, (hijriy 932-yil) voqealari bayonida *alqış* = *الاقیش* - so'zi qo'llangan, *راقشيب داروازه نى اچارلار* - *Raiyatlar alqışib darvazani açarlar* [Bobur 1960].

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *olqishlamoq* "mamnunlik, tahsin bildirmoq, olqish so'zlari bilan tabriklamoq; tahsinlab

qarsak chalmoq" ma'nosini anglatishini qayd etilgan, shunga ko'ra yuqoridagi so'zning ma'nosi hozirgi vaqtda ham o'zgarishsiz qo'llanilmoqda [Madvaliyev 2020, 120].

Lug'atni o'rganish chog'ida muallifning har bir sohaga alohida e'tibor qaratganiga guvoh bo'lamiz. Tadqiqot jarayonida 6000 dan ziyod umumturkiy so'zlar mavjudligi, ularning 1917 tasi chig'atoy tiliga oidligi ma'lum bo'ldi. Chig'atoy tiliga xos so'zlarni quyidagi mavzu guruhlariga tasniflagan holda o'rganish maqsadga muvofiq deb topdik:

- a) urug', qavm, qabila nomlari;
- b) ijtimoiy-siyosiy istilohlar;
- c) harbiy istilohlar;
- d) diniy, falsafiy-tasavvufiy istilohlar;
- e) toponimlar;
- f) etnonimlar;
- g) kasb-hunar leksikasi;
- h) ta'lim-tarbiya leksikasi;
- i) vaqt istilohlari;
- j) qon-qarindoshlik terminlari;
- k) shaxsga oid leksemalar;
- l) somatizmlar;
- m) tibbiy terminlar;
- n) maishiy buyum leksikasi;
- o) musiqa istilohlari;
- p) zoonimlar;
- q) fitonimlar va h.k.

Yuqorida aytilganidek, "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" lug'at tarkibida jami 25200 ta leksema keltirilgan bo'lib, chig'atoy leksikoniga oid so'zlar jami 1917 tani tashkil etmoqda. Chig'atoy tiliga oid 112 ta leksema harbiy sohaga mansub bo'lib, ular sema jihatidan o'zaro omonimik hamda sinonimik holatlarda uchraydi. Aslida harbiy leksika o'zbek tili so'z boyligining ko'hna qatlamlaridan biri sanalib, til tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Moziyda bitilgan va hozirga qadar ma'lum bo'lgan manbalarning deyarli hammasida harbiy ish va harbiy san'atga doir istilohlar faol qo'llanganligi bilan ajralib turadi. Buni tarixiy-ilmiiy, biografik ruhdagi "Zafarnoma", "Boburnoma", "Shayboniynoma", "Tavorixi guzida. Nusratnoma", "Shajarai turk", "Riyozi ud-davla" kabi asarlari bilan bir qatorda "Qutadg'u bilig", "Qissasi Rabg'uziy", "O'q va yoy munozarasi", "Gul va navro'z", "Saddi

Iskandariy” singari didaktik-pandnoma, diniy, badiiy asarlar matnida ham kuzatish mumkin [Mirzayev 2017, 12]. L.Budagov lug’atida ham so’zlarning izohlanishida ayni xalqning badiiy adabiyotidan keng foydalanganiga guvoh bo’lamiz.

L.Budagov lug’atidagi harbiy istilohlar quyidagi tarzda tasniflandi:

1. Harbiy mansab, lavozim va unvonlarni ifodalovchi terminlar.

2. Qo’shin turlari va askariy qism nomlarini anglatuvchi terminlar.

3. Jangovar harakat va taktik amaliyotlarni ifodalovchi terminlar.

4. Qurol-yarog’, aslaha-anjomlarni ifodalovchi terminlar.

5. Mudofaa va muhandislik inshootlari nomlarini anglatuvchi terminlar.

H.Dadaboyev va H.Yodgorovlarning 2021-yilda nashr etilgan “O’zbek harbiy terminologiyasi” o’quv qo’llanmasida harbiy istilohlar tasniflangan holda ularning har biri yuzasidan muhim ma’lumotlar berilgan.

1.Harbiy mansab, lavozim va unvonlarni ifodalovchi terminlar.

O’rxun-Enasoy runik bitiklari, xitoy va arab muarrixlari qalamiga mansub tarixiy asarlar shundan dalolat beradiki, qadimgi turkiy qabila va urug’lar ko’pdan-ko’p harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etgan. Harbiy ish ko’pgina xalqlarda bo’lgani kabi ko’kturklar uchun ham umumxalq xarakterga ega edi. Ular juda yoshlikdan harbiy ish bilan shug’ullana boshlagan. Harbiy mashg’ulotlar har bir fuqaro uchun majburiy hisoblangan. Natijada harbiy qurilish, harbiy ish va harbiy san’at bilan bog’liq tushunchalarni ifodalovchi terminlar tizimi qadimgi turkiy tilda vujudga kelgan va faol qo’llangan [Dadaboyev 2021, 8].

Lug’atda harbiy ishlar uchun yig’iladigan soliqni yig’uvchi lavozim qayd etilgan bo’lib, u *shiydarliq* deb atalgan. Temuriylar saltanatida ushbu vazifani *daruya* bajargan. Bu lavozim mahalliy sulola vakillari yoxud nomdor sarkardalarga davlat oldidagi xizmatlari evaziga berilgan. Shu o’rinda chig’atoy tilida ham jangdagi jasorati yoki noyob san’at asari uchun beriladigan mukofot چۆلدو – *juldu*, No’g’ay va Qirim xonlari tomonidan mirzolarga beriladigan yuqori rutba قاغا ، قالغه – *qalya* deb yuritilgan, ushbu atama boshqa ikki unvon yoki taxallus bilan birgalikda uchraydi.

Tahlilga tortilgan *daruya* oʻzlashmasiga diqqat qaratsak, V.V.Bartold dorugʻaning harbiy amaldor tarzida davlat soliqlarini undirish, aholini roʻyxatga olish, qoʻshinga askarlarni qabul qilish, aloqa (pochta) bekat (yomxona)larini qurish, yigʻilgan soliqni davlat hazinasiga topshirish ishlari bilan mashgʻul boʻlganini taʼkidlaydi [Бартольд 1963, 468]. “Tarixiy harbiy terminlar lugʻati”da soliq yigʻuvchi harbiy-maʼmuriy amaldor *shiqdor* deb koʻrsatilgan va “Boburnoma”dan parcha berish bilan asoslangan:

Kichik Alikim, Koʻli Gil shiqdoridur, mardonalik izhori qildi [Бобир 1960, 170].

Bundan tashqari, dorugʻa qalʼa, qoʻrgʻon yoki shaharning harbiy komendanti, shuningdek, muayyan hududning rahbari sifatida faoliyat yuritib, harbiy, fuqarolik va moliya masalalarida masʼul hisoblangan. Lugʻatda chigʻatoy lahjasida harbiy komendant, yaʼni harbiy navbatchi قراول – *qaravul* leksemasi orqali ifodalangan boʻlib, ushbu lavozimga erishgan shaxslar urush davrida navbatchi vazifasini ham bajargan.

Ayyaqchi atamasi har bir davr yoxud xonliklarda turli soha amaldorlari nomlari singari harbiy lavozim nomlari turlicha boʻlgan, biri-biriga baʼzan omonimik, baʼzan sinonimik holatlarda uchragan. Tahlil markazida boʻlgan lugʻatda ayyaqchi vazifasini تيبكىچى – *tibikchi* hamda آيفاق – *ayyaq* leksemalari anglatadi, biroq har ikki soʻz semasiga ayro holatda nazar solinsa, tibikchi “aygʻoqchi, poyloqchi, quloq” va ayfoq “guvoh, aygʻoqchi, yetkazuvchi” semalarini ifodalashi ayon boʻladi.

H.Dadaboyev “Oʻzbek harbiy terminologiyasi” kitobida qayd etishicha, aygʻoqchilik (razvedka) vazifalari bilan mashgʻul boʻlgan yengil suvoriylar guruhi, yaʼni qarovul boshliqlari *qaravulbegi* deb atalgan. Amir Temur qoʻshinida ushbu lavozim Donaxoja, Mir Ali Toz, Toʻkal kabi shaxslarga nasib qilgan. Qoraxoniylar qoʻshinida jangovar tartib, safni tuzishga masʼul boʻlgan quyi martabali zobit, yaʼni *chavush* xabargirlik, darakchilik vazifasi bilan shugʻullangan. XIX asrda ushbu soʻz Turkiya, Eron va Ozarbayjonda “mirshab” Qirimda esa “ellikboshi” maʼnosini anglatgan. XV-XVII asrlarda *chavush* (cheush) rus tilida saroy soqchilarini ifodalashda qoʻllangan. *Chavush* termini “saroy soqchisi, jangovar yurish yoki harbiy harakatlarni nazorat qiluvchi” maʼnosida *yasavul* va *qurchi* istilohlariga mos tushgan [Dadaboyev 2021, 24].

Lugʻatda qayd etilgan chigʻatoy tilidagi ushbu guruhga mansub leksemalarni jadvalda keltiramiz:

1-jadval

كيشيك ، كشيک	<i>kešik</i>	xonning qo'riqchilari, qorovul, soqchi guruhi
ياتيش	<i>yatiš</i>	shohning tungi soqchilari
بلوج = يولاوچى	<i>yalavač=yalavčī</i>	xabarchi; elchi
شغدارلىق	<i>šiydarliq</i>	harbiy to'plovchi lavozimi
آيفاق	<i>ayʻaq</i>	guvoh, ayg'oqchi, josus
تیبیکچی	<i>tibikči</i>	ayg'oqchi, poyloqchi, quloq
چاپاول (چابمق)	<i>čapavul (čabmaq)</i>	chopqin; bostirish, talon-taroj
غزرجى ، غجرجى	<i>ɣajarčī</i>	yo'lboshlovchi, yo'l ko'rsatuvchi
قراول	<i>qaravul</i>	1) qorovul, urush davrida navbatchi 2) dushmanni qarshi olish uchun ma'lum joyga joylashtirilgan qo'ruqchi qism
الاغ ، ألقى ، اولاق ، غ	<i>ulaq, ulay</i>	1) to'rt oyoqli, yuk yoki ulov hayvonlari; 2) chopar; 3) ot, o'rta bo'lyi ot

2. Jangovar harakat va taktik amaliyotlarni ifodalovchi terminlar.

Tarixdan ma'lumki, Amir Temur va temuriylar davrida "qo'shin, armiya" ma'nosini ifodalash asosan Ko'kturk hoqonligi va Qoraxoniylar zamonida *sū* istilohi bilan yonma-yon qo'llangan *čerig* hamda fors-tojik tilidan o'zlashgan *sipah* terminlari istifoda etilgan. Ayrim manbalarda Xorazmshohlar davri harbiy terminlar tizimida faol ishlatilgan *jayš* istilohining ham iste'mol qilinganligini ko'rish mumkin. Amir Temur qo'shinida turli tuman, viloyat, o'lka, yurtlardan oliy farmonga ko'ra yig'ilgan otliq hamda piyoda jangchilar forscha-tojikcha *laškar* o'zlashmasi nomlangan.

Bugungi kunda "qurolli kuchlar, armiya" ma'nosida faol qo'llanayotgan *qo'shin* termini *qošun* shaklida o'zbek tiliga mo'g'ul tilidan o'zlashgan. Chingiziylar qo'shinida ushbu istiloh maxsus harbiy qismni bildirgan. Temuriylar davrida 50 tadan 100 tagacha jangchidan tashkil etilgan kichik harbiy bo'linmalar *qošun* deb yuritilgan. Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" asarining bir o'rnida Amir Temur 200 ta askardan to'rt, boshqa bir joyida 600 jangchidan yetti qo'shun tuzishga buyruq berganini ta'kidlaydi [Dadaboyev 2021, 67]. Abdurazzoq Samarqandiy 1409-yilning aprel oyida Umarshayx mirzo (Mironshohning o'g'li) g'o'lining besh ming kishidan iborat o'g'ruqi (oboz)idan tashqari, har biri 500 otliqdan

tashkil topgan 47 ta mukammal, ya'ni 23500 askardan iborat qo'shinni ko'rikdan o'tkazganini yozgan [Самарқандий 2008, 59]. 1393-yilning 26-aprelida Amir Temur va Sheroz hukmdori Shoh Mansur o'rtasida kechgan jangda *vafadar* va *emlik* nomlari bilan shuhrat qozongan Allohodbek hamda Shayx Nuruddinbek qo'mon-donligidagi qo'shunlar qavchinlardan tashkil etilgan va *boy qo'sun* deb atalgan ming kishilik *xás hazára* joylashgan [Яздий 1997, 153]. L.Budagov lug'atida قوشون ، قوشون *qo'sun* istilohi "qo'shin, shahar yoki viloyat ajratishi kerak bo'lgan jangchilar miqdori, qo'shin tarkibi, harakatga kelgan armiya, otryad, eskadron" kabi bir necha ma'nolarni anglatishi keltirilgan. Lug'atdagi bunday istilohlardan ayrimlarini keltirib o'tamiz:

2-jadval

اوران	uran	chaqiriq, tunda adashib qo'lganning do'stlari tomonidan chaqirilishi; urush vaqtida bir bo'linmaning boshqa bo'linmadan ajratish uchun ishlatiladigan atama yoki parol
باقمق	buq=	tuzoq qurmoq, poylab o'tirmoq
موندو	mondu	1) yerga o'tkir qoziqlar bilan qotirilgan va usti qora bo'z bilan yopilgan to'rdan iborat bo'lgan tuzoq; 2) xandaq va okoplarga joylashtirilgan va jang payti dushmani shu joyga yiqitib halok etuvchi qoziqlar; 3) xanjarsimon nayza, ohu shohi.

H.Dadaboyev "Tarixiy harbiy terminlar lug'ati"da yuqorida keltirilgan harbiy istilohlardan *mondu* – "xandaq sanchig'i, xandaq ichi va oldiga o'rnatiladigan uchli qoziq" ma'nosini anglatishi va Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidan olingan quyidagi bayt misol sifatida keltirilgan:

Yana xandaq olida mo'ndu tikib,

Qalin nayshakardekki hindu tikib [Навоий 1958, 1463].

"Pisib yotish, pistirmada turish" ma'nosini anglatuvchi *buq=* istilohi [Dadaboyev 2003, 28] Abulg'oziyning "Shajarayi turk" asarida uchrashi qayd etilgan: *Ulyerda mo'g'ullardin ko'p kishi buqub turub erdilar* [Абулғозий 1992, 62].

Shu o'rinda اوران *uran* istilohi haqida ham qisqacha so'z yuritsak. Mahmud Koshg'ariyning ta'kidlashicha, Qoraxoniylar cherigida o'z askarlarini dushmandan farqlash maqsadida hozirgi kunda *parol* o'zlashmasi bilan anglashilayotgan chaqiriq, xitob *im* istilohi bilan ifodalangan. Mo'g'ullar istilosidan keyin ushbu termin o'rnida *uron* so'zi qo'llanishga kirgan [Dadaboyev 2021, 110]. L.Budagov lug'atida ushbu istilohning "chaqiriq, tunda adashib

qolgan askarning do'stlari tomonidan chaqirilishi" ma'nosida ham qo'llanganligini keltiradi.

3. Qurol-yarog', aslaha-anjomlarni ifodalovchi terminlar.

Harbiy aslaha va anjomlarga "Harbiy atamalarining izohli lug'ati"da harbiy xizmatchilar ta'minoti tarkibiga kiradigan, shaxsiy qurol va narsalarini olib yurishlari uchun mo'ljallangan buyumlar komplekti sifatida izoh berilgan. Zamonaviy harbiy sohada mazkur komplekt "Ammunitsiya" deb atalgan bo'lib, askar va serjantlarining harbiy aslaha va anjomlari jumlasiga kamar, avtomat o'qdonlari va granatalar uchun mo'ljallangan to'rvalar, flaga va kurak uchun mo'ljallangan qopchiqlar, himoyalovchi qo'lqop va paypoqlar, buyumlar qopchasi kiritilgan. Ofitserlar anjomlari jumlasiga kamar, pistolet qini va dala sumkasi kirishi berilgan [Samarov 2020, 85].

Xitoy solnomalarining birida turkiy jangchilarning qurollari shoxsimon o'q-yoy hamda hushtakka o'xshash tovush chiqaruvchi o'q, sovut, nayza, qilich va dudama (og'ir, uzun) qilichdan iborat ekanligi qayd etilgan [Бичурин 1950, 229]. Oltoy o'lkasining Baliq Sook mavzesidagi mozar-qo'rg'ondan topilgan turk askariga tegishli qilich, dubulg'a, xanjar, sovut, o'q-yoy kabi qurollarning temir va kumushdan yasalgani, ularning yengil bo'lganini ko'rsatadi. Suvoriyning yonida egar-jabduq, o'q-yoy, o'tkir uchlari yuqoriga qarab joylashtirilgan o'qlar solingan o'qdon bo'lgan. Qilich chap tomonda ikkita kamar bilan qiyalatib taqilgan. Otliq jangchi kezi keldanda nayza va bolta bilan ham ta'minlangan, qalqon uzun halqasimon ilgak yordamida orqa yelkaga osilgan [Raspopova 1970, 86].

"Qurol-yarog', aslaha" ma'nosini ifodalash uchun *kedim* (hozirgi *kiyim* so'zining qadimgi shakli) istilohi qo'llangan. Qurolning qadimiy turlaridan biri *oq* istilohi bilan nomlangan. Uch tomoni yuqoriga qaratilgan o'qlar askarning chap yoki o'ng tomoniga kamar yordamida taqiladigan o'qdonga joylashtirilgan [Dadaboyev 2021, 129]. L.Budagov lug'atida *oq* اَيْتِك *ittik* istilohi orqali anglashilishi hamda bu leksemaning *ellik* ma'nosi ham mavjudligi keltirilgan.

Quyida L.Budagov lug'atida aks etgan ayni guruhga mansub istilohlar berildi:

3-jadval

دَپقور	<i>dapqur</i>	polk, askarlar bo'linmasi
اوپچين	<i>občín//opčín</i>	zirh, sovut

كوپه ، كپه ، كوبه ، كبه	<i>köbe, kübä, küpä</i>	sovut, zirh
چۇقال ، چۇقال ، چۇقال	<i>čuqal, čuqal</i>	zirh, ot sovuti
أرتوج = أرتوج	<i>artuj, ardj</i>	nayza
اوتاغه	<i>otağa</i>	dubulgʻa, zirhli kiyim kiygan sulton
باشقیان	<i>başqian</i>	tuyada tashiluvchi zambarak
قاپچور	<i>qapčur</i>	qurolning temir yoki poʻlat qobigʻi, ramkasi
إتیک	<i>ittik</i>	1) oʻq; 2) ellik
باشقۇ ، باشقۇ ، باشقۇ ، باشقۇ ، باشقۇ ، غ	<i>başaq, başay</i>	1) oʻq, nayzaning uchidagi temir boʻlagi; 2) yangilik, ilgʻor
اۋیۈنۈك	<i>üyünük</i>	kamon oʻqining uchidagi par
پۇلك ، پۇلك	<i>pöläk, büläk</i>	kamonning har ikki uchiga qistiriladigan va ular orqali kamon ipi oʻtkaziladigan qora parchalar
بیلدورگا ، بولدورگا	<i>bildürgä, boʻldürgä</i>	qamchining sopi; qilich dastasi uchidagi sirtmoq, qushlarni ovlash uchun tayoqlardan iborat toʻr
ایرس	<i>iris</i>	kishan

L.Budagov oʻz lugʻatida “sovut, zirh” maʼnosida كوپه ، كپه ، كوبه ، كبه *köbe, kübä, küpä*, اۋچین *občın* soʻzlari qoʻllanganini keltiradi. Koʻrinib turibdiki, zirh soʻzi uchta leksema orqali ifodalanmoqda. Qoraxoniylar cherigida “qurol, aslaha” maʼnosi *tol*= feʼlidan hosil qilingan *tolum* hamda *ton tolum* soʻzlari bilan ifodalangan. Bu davr qoʻshinida himoya aslahalarining yangi turlari qurollanishga kirgan. Chunonchi, Mahmud Qoshgʻariyning guvohlik berishicha, *kübä yariq* termin-birikmasi “sovut”, *say yariq* istilohi esa “zirh”ni ifodalashga xoslangan [Кошғарий 1963, 22]. Oʻtda toblangan temir parcha (plastinka)lardan yasalgan sovutning yana bir turi *quyaq* termini bilan yuritilgan. Askarning koʻkrak qismini qilich, oʻq, nayza, toʻqmoq zarbidan asrash maqsadida zirh, yaʼni *tura* tayyorlangan [Dadaboyev 2021, 130].

Z.Budagov *občın* leksemasi xususidagi fikrini Alisher Navoiy “Xamsa”siga murojaat qilgan holda “Farhod va Shirin” dostonidan bayt keltirish orqali asoslaydi:

ولیکن اوشبو پیکریای تافرق ،
بولوب اوت دیک تیمور اوبچین ارارق
فرهاد و شیرین

Va lekin ushbu paykar poy to farq,

Boʻlib oʻtdek temur oʻbchin aro gʻarq [Навоий 2018, 161].

Občīn termini “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati”da fonetik variant sifatida jangovar ot sovuti, zirh ma‘nosi *opčīn* leksemasi orqali ifodalanishi keltirilgan [Dadaboyev 2020, 156]. L.Budagov lug‘atining I jildi 108-sahifasida *občīn* so‘zini izohlash maqsadida keltirilgan baytda ham اوېچين tarzida berilgan. Baytdan ma‘lum bo‘ladiki, *občīn* – zirh temirdan yasalishi hamda u o‘qdan himoyalaniş maqsadida foydalaniladigan kiyim-anjomlardan biri bo‘lgan.

4. Qo‘shin turlari va askariy qism nomlarini anglatuvchi terminlar.

Sharafuddin Ali Yazdiyning qayd etishicha, Somona qal‘asidan Dehli tomon yo‘lga chiqqan Amir Temur qo‘shini yasoli 48 km (olti yig‘och) masofani tutgan.

Yurush chog‘ida asosiy kuchlardan ancha uzoq masofada *qaravul* deb atalgan soqchi otliqlar guruhi harakat qilgan. Dushman kuchlari haqida xabar keltirish, “til” o‘lja qilish vazifalariga xoslangan ushbu harbiy tuzilma XIX asrning oxirlariga qadar saqlanib qolgan. Saljuqiylar qo‘shinida ham kichik soqchi guruh (dozor) ma‘nosini anglatgan *qaravul* termini keyingi davrlarda “soqchi, posbon” ma‘nosini ifodalashga yo‘naltirgan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Anqara bo‘sag‘asidagi janggohga joylashgan Sohibqiron Shohmalikbekni ming kishilik qaravulga bosh qilib, Yildirim Boyazid cherigidan *til* olish uchun jo‘natgan [Dadaboyev 2021, 73]. *Qaravul* L.Budagov lug‘atida “qorovul, urush davrida navbatchi; dushmanni qarshi olish uchun ma‘lum joyga joylashtirilgan qo‘ruqchi qism” kabi ma‘nolarni ifodalashda qo‘llanuvchi atama sifatida keltiradi. Professor H. Dadaboyevning “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati”da *qaravul*//*qarovul* – soqchi, ayg‘oqchi qism (dozor, avanpost) kabi ma‘nolarni ifodalashi qayd etilib, quyidagi misollar keltirilgan (168-sahifa):

Bu mahalda qarovullar uch kishi dushmandin tutub kelturdilar [Яздий 1997, 122].

Qaravuldin xabar keldikim ... [Бобир 1960, 163].

Qarovullarg‘a aytdi, bugun jovning qarovulini ko‘rung [Абулғозий 1992, 138].

Qo‘shin turlari va askariy qism nomlarini anglatuvchi chig‘atoy lahjasida mavjud ba‘zi leksemalarni keltiramiz:

4-jadval

غول	<i>γol</i>	shaxsan xonning yonida turuvchi jangchilar qismi (markaziy qism)
-----	------------	--

بُق	<i>buq</i>	1) saf; 2) moʻgʻullarda boy ayollar va malikalar kiygan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bosh kiyim; 3) yoʻrgak.
مُجَار va بُلْجَار	<i>boljar va moljar</i>	1) qoʻshinning safarga otlanishdan oldin toʻplanadigan joyi; 2) qoʻshinning bir qismi turib jang olib boradigan toʻsiq, qum uyumi.
چاقار ، چارقار	<i>čaqar, čarqar</i>	qalʼaning tashqi himoyasi
مانکای ، مانکلا	<i>manglay, mangla</i>	manglay; armiyaning old qismi
چَڭداۋل ، چَڭداۋل ، چاغداۋل ، چَڭداۋل	<i>čaydavul, čangdaul</i>	qoʻshinning orqa qismi (arergard) qoʻmondoni
بویراکی ، بوگراکی	<i>büyräkči, bügräkči</i>	qoʻshinning jang paytida oʻng va chap qanotlardan hujum qiladigan qismi
ایر اۋل ، ھراۋل ، ھرۋل	<i>iyrul, haravul, huruvul</i>	avangard, oldingi qoʻshin ortidan boruvchi qism
تونغمە	<i>tunɣama</i>	zaxira guruh
قراۋل	<i>qaravul</i>	1) qorovul, urush davrida navbatchi; 2) dushmani qarshi olish uchun maʼlum joyga joylashtirilgan soqchi qism.

L.Budagov lugʻatida “qoʻshinning safarga otlanishdan oldin toʻplanadigan joyi” hamda “qoʻshinning bir qismi turib, jang olib boradigan toʻsiq, qum uyumi” maʼnosini beruvchi بُلْجَار va مُجَار maʼnosini beruvchi بُلْجَار – *boljar va moljar* istilohlari keltirilgan, istiloh maʼnosi yanada tushunarli boʻlishi uchun “Bobirnoma”dan parcha keltirgan:

كوپروكدین یوقاری ملجار قوباریلیب ایدی تفنك اند از لار ماجار اوستیدین بخش تفنك لار اتی لار


“Mir Muhammad jolobonni yuborildikim, koʻpruk solmoqqa munosib yer koʻrub, koʻpruk asbobini mavjud qilgʻay. Oʻrdu tushgandin bir quruhcha quyiyoq yer xushlab keldi. Jald muhas-sillar tayin qilildi. Koʻpruk solur yerning yovugʻida ustod Aliquli qozon qurub, tosh otmoq uchun yer xushlab, tosh otmoqqa ishtigʻol koʻrsatti. Koʻpruk bogʻlar yerdin quyiyoq Mustafo Rumiyy zarbzaniq arobalarini bir arologʻa kechurib, aroldin zarbzaniq ota kirishti. *Köprük-din yuqari moljar qoparilib edi. Tüfäkandäzlär moljar ustidin yaxši tüfäklar ottilar*” [Бобир 1960, 408].

Moljar istilohiga “Tarixiy harbiy terminlar lugʻati”da xan-da-q oldidagi tuproq uyumi (brustver) deya izoh berilgan [Dadabo-yev 2020, 123]. Bundan maʼlum boʻladiki, *moljar* qoʻshin safarga otlanish yoki maʼlum bir hududga yurish qilish chogʻida nafaqat

askarlar, balki qurol-yarog' kabi zaruriy anjomlar yig'iladigan manzil hamda shu joydan turib qo'shinning bir qismi jang olib boradigan joy, hududni anglatgan.

Qo'shin turli qismlardan tashkil topadi. O'rxun-Enasoy bitigtoshlaridagi ma'lumotlarga qaraganda, – deydi H.Dadaboyev, – xonlikda cherigning jangovar tartibi an'anaviy besh bo'lak *on* (o'ng qanot), *sol* (chap qanot), *yizäk* // *yäzäk* yoki *ilki sü* (avang'or), *ortu* (markaz) va *ked* (aryergard, soqa)dan tashkil topgan. Bir necha kunlik masofada asosiy kuchlarni g'animning hujumidan ogoh etuvchi soqchilar guruhi – *qarayu* harakat qilgan. Ko'kturk xoqonligi cherigi jangovar tartibi, ya'ni *tizigini* quyidagicha tasvirlash mumkin [Dadaboyev 2021, 60]:

1-rasm.



L.Budagov lug'atida chig'atoy lahjasiga mansub qo'shin (armiya) qismlari ham keltirilgan:

2-rasm.



مانکلا ، مانکای - *manglay*: - armiyaning old ilg'or qismi, avangard, oldingi qo'shin ortidan boruvchi qism esa هراؤل ، ایر اوئل - *iravul, haravul, huruvul* istilohi qo'llanilgan. Qo'shinning jang paytida o'ng va chap qanotlardan hujum qiladigan qismi بویراکچی ، بویراکھی - *böyräkçi, bügräkçi* leksemasi orqali anglashilgan. چاغداؤل ، جغداؤل - *čaydavul, čangdavul* qo'shinning orqa zahira qismi hamda shu qism qo'mondonini anglatgan. Jang paytida shaxsan xonning yonida turuvchi jangchilar qismi غول - *γol* deb atalgan, bunday qism Amir Temur va Bobur qo'shinlari tarkibida ham mavjud bo'lgan. Bobur qo'shini yasoli ham klassik besh qismdan iborat bo'lib, ular *hiravul // iravul, burang'or, juvang'or, g'o'l* hamda *chag'dovul* deb nomlangan. Bobur 1500-yili Saripulda Shayboniyxon bilan bo'lgan jangda o'z qismlarini ayni tartibda hujumga yo'llagan edi. Keyinchalik Bobur ushbu jangovor tartibga Amir Temur kabi o'zgartirishlar kiritib, uni yanada takomillashtirgan. Chunonchi, *g'o'l o'ng qo'l* va *so'l qo'l* bilan kuchaytirilgan. Bu qismlar qo'shinning birinchi qatori, ayni chog'da, Bobur qo'mondonligidagi asosiy qism, ya'ni *xossa tobinning* avang'ori vazifasini o'tagan. Mazkur qism o'z navbatida *o'ng yon* va *so'l yon* deb nomlangan bo'laklarga taqsimlangan. *Xossa tobin* Boburning *bo'y* so'zi bilan ifodalangan shaxsiy gvardiyasining avang'ori hisoblangan [Dadaboyev 2021, 82]. "Tarixiy harbiy terminlar lug'ati"da *g'o'l* istilohiga *qo'shin markazi* deya izoh berilgan hamda quyidagi misollar vositasida asoslangan:

Barang'ar, juvang'ar, g'o'l yasol yasab [Бобир 1960, 386].

Qilib andoq orasta yetti g'o'l,

Ki yel xayli topmay aro yerda yo'l [Навоий 1958, 1332].

Bundan ko'rinadiki, *g'o'l* istilohi qo'shin tarkibida turli o'rinlarda joylashtirilgan, biroq uning yana bir ma'nosi jang paytida xonning yonida turuvchi jangchilar qismi ekani va unga xonning o'zi qo'mondonlik qilishi har bir davrda o'z ma'nosida saqlanganligini ko'rsatadi. Qo'shin tarkibiga qo'shimcha ravishda zaxira guruh ham madad beruvchi qismlardan sanalgan va bu تونغمه - *tunyama* istilohi bilan yuritilgan.

5. Mudofaa va muhandislik inshootlari nomlarini anglatuvchi terminlar.

Markaziy Osiyoda mudofaa inshootlari va istehkomlarning harbiy ish va harbiy san'at tarkibida qaror topishi eradan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalariga borib taqaladi. Harbiy mudofaa inshootlarini barpo etish bir necha asrlik tarixga ega bo'lib, che-

gara hududlar (*uch*)da muhofazalangan qo'nimgohlar, turmush kechirish uchun qo'rg'on, qal'a va hisorlar qurilgan. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi saltanatlarining paydo bo'lishi mudofaa inshootlari ahamiyatining oshishida muayyan rol o'ynadi. Tabiiy, bu davrlardagi istehkomlar hajman kata bo'lmagan, ularda aholi muqim yashamagan, urush chog'ida zaxira ombori hamda mudofaa uchun joy vazifasini bajargan [Dadaboyev 2021, 166]. L.Budagov lug'atida chig'atoy tilidagi mudofaa va muhandislik inshootlariga doir istilohlar keltirilgan. Ularning ba'zilarini tubanda keltirib o'tamiz:

5-jadval

اوغروق ، أغروق ، أغرق ، أغرق	<i>oyruq, uyraq</i>	dastlab anglatgan ma'nosi palatka, keyinchalik qo'mondonning kuzatuv boshqaruv punkti
أَرْك	<i>ark</i>	qo'rg'oncha, qal'a ichidagi qo'rg'on mudofaa inshooti
اوتقال، اوتقۇل	<i>otqal, otqul</i>	o'tish joyi, kechuv
مورچال	<i>murchal</i>	qal'a atrofidagi xandaq, chuqur
قَيْتۇل ، قَيْتول	<i>qaytul</i>	lager
بېرسىق	<i>birsiq</i>	post-nazorat o'tish punkti, joyi
دېقۇر	<i>dapuqur</i>	askarlar bo'linmasi

Amir Temur, temuriylar, shayboniylar va uch xonlik davriga doir obidalarda qal'a ichidagi harbiy inshootni anglatuvchi arabcha *ark* so'zi faol qo'llangan. Hukmdorning o'rda (qarorgoh)ida joylashgan ark tabiiy tepa yoki sun'iy barpo etilgan do'nglik ustiga qurilib, baland devor bilan o'ralgan, bitta, ba'zan ikkita darvozasi bo'lgan. Ark ichida hukmdordan tashqari, arkoni davlat, sarkardalarning uylari, devonxona, zarbxona, masjid, sardoba va boshqa binolar joylashgan. *Buxoro arki, Qo'qon arki, Ko'hna ark* shular jumlasidanidir [Dadaboyev 2021, 170]. Lug'atda ham ayni shu sema أَرْك – *ark* istilohi orqali ifodalangan hamda bu so'zning nafaqat qal'a ichidagi qo'rg'on mudofaa inshooti, balki qo'rg'oncha – kichik qo'rg'on semasi ham mavjudligi keltirilgan. Qal'a har bir davrda ham mustahkam qo'riqlangan, ichki himoya tizimidan tashqari qal'a tashqi tomondan ham himoyalangan. مورچال – *murchal* so'zi qal'a atrofidagi xandaq, chuqur bo'lib, undan qal'ani tashqi himoyasi uchun foydalanilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, tekislikda qurilgan qal'a, hisor va qo'rg'onlar istisnosiz xandaqlar bilan ta'minlangan. Turkiy til-larga juda erta kirib kelgan *xandaq* o'zlashmasi chig'atoy tilida مورچال – *murchal* jang paytidagi egallagan pozitsiya ma'nosini

anglatadi. Mudofaa inshootlari, chunonchi, qal'a, qo'rg'on va shaharni suv to'ldirilgan xandaqlar bilan himoya qilish an'ana tusini olgan. O'ratepa, Xiva, Hazorasp, Jizzax, Qarshi, Termiz singari shaharlar mustahkam devor, keng va chuqur xandaqlar bilan mustahkamlanganligi bois ularni ishg'ol qilish oson bo'lmagan.

Kezi kelganda, xandaq nafaqat shahar, qal'a, qo'rg'on, balki yurish chog'ida qo'shin to'xtaydigan manzil atrofida ham qazilganini ta'kidlash zarur. Lashkar ahli tomonidan qazilgan xandaq tegrasi odam bo'yi barobar qalqon-turalar bilan tomdek berkitilgan, ichiga sanchqisimon tikanlar o'rnatilgan. Qo'shinning qishki qarorgohi – *qishloq* ham, albatta, xandaqlar bilan ehtiyot qilingan [Dadaboyev 2021, 171]. Qal'a, qarorgohlar bu kabi inshootlar vositasida mustahkam himoyalanganigina qolmay, dushman hujumiga qarshi turishda ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Xulosa qilib aytganda, chig'atoy tilida qo'llangan harbiy istilohlar o'sha davr harbiy tuzilish, qo'shin joylashuvi kabi qator harbiy soha xususiyatlarini yoritishda ushbu lug'at muhim ma'lumotlar manbasi bo'la oladi. Lug'atda ko'pgina turkiy tillar qatori eski o'zbek adabiy tili (chig'atoy)da bitilgan manbalarda qayd etilgan ko'pdan-ko'p so'z va istilohlarning izohi o'z aksini topgan. Shu kunga qadar turkiyshunoslikda lug'atning tuzilish prinsiplari, unda aks etgan so'z va istilohlarning izohlanish yo'llari, uning keyingi davr lug'atshunosligiga ta'siri masalasi maxsus tadqiq etilgan emas.

Shunday qilib, lug'at tuzish tamoyillari bo'yicha V. Dal tajribasidan foydalangan L.Budagov tarjima, izohli va etimologik nashrlarda materiallarni yoritish tamoyillarini bir asarda har jihatdan moslashtirgan holda keltirib, turkiy tillar leksikografiyasida yangi an'anaga asos soldi. Ushbu an'ana 70 yildan so'ng K.Yudaxin tomonidan “Киргизско-русского словарь” (“Qirg'iz-rus lug'ati”)ni tuzish va E.Sevortyan tomonidan “Этимологический словарь тюркских языков” (“Turk tillari etimologik lug'ati”)ni yaratishda davom ettirildi.

O'rta Osiyo xalqlarining tili uchun umumiy xususiyatlarni ko'rsatuvchi L.Budagov tomonidan tuzilgan “Turk-tatar tillarining qiyosiy lug'ati”ning tuzilishi, unda aks etgan eski o'zbek (chig'atoy)-cha so'zlarni leksik-semantik, tematik nuqtayi nazardan tadqiq etish, eski o'zbekcha so'zlarning izohlanish prinsiplarini aniqlash hamda lug'atda izohlangan eski o'zbekcha (chig'atoycha) so'zlarning statistik tahlilini Navoiy, Bobur va Abulg'ozī asarlari misolida tahlil etish chig'atoy tilining ayni zamonida O'rta Osiyoda egallagan

o'rnini ham belgilaydi. O'zbek lug'atshunosligining rivojiga munosib hissa qo'shadi.

Adabiyotlar

- Абдураззоқ Самарқандий. 2008. *Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн*. II жилд. 1405-1429 йиллар воқеалари. Тошкент: Ўзбекистон.
- Алишер Навоий. 1958. *Садди Искандарий. Илмий-танқидий матн*. Тузувчи: Порсо Шамсиев. Тошкент.
- Alisher Navoiy. 2018. *Farhod va Shirin*. Nashrga tayyorlovchi Vahob Rahmonov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Абулғозий. 1992. *Шажарайи турк*. Тошкент.
- Atabay, B.A. 2014. "Түркі халықтарының XIX ғасырдағы қоғамдық-саяси өмірі мен тұрмысының энциклопедиясы". *KazNU Bulletin. Oriental series* 3 (69): 53-57.
- Бичурин, Н. Я. 1950. *Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена*. 1. Москва – Ленинград.
- Будагов, Л. З. 1869. *Сравнительный словарь турецко-татарских наречий*. Том I.
- Бартольд, В.В. 1963. *Туркестан в эпоху монгольского нашествия*. Соч. Т.1.Ч.1. Москва.
- Баскаков, Н.А. 1985. «Река Каяла в «Слове» и река Сюурлий в русских летописях». *Слово о полку Игореве» и его время*, 241-248. Москва: Наука, 1985.
- Благова, Г. 1985. «Лазарь Будагов – лексикограф-энциклопедист». *Советская тюркология* 6: 42-56.
- Галимова, О.Н. 2013. «Однозначность и многозначность как показатели терминосистемы». *Филологические науки. Вопросы теории и практики* 5 (23): 41-44. Тамбов: Грамота.
- Гумерова, А.Т. 2012. «Арабизмы в философской лексики татарского языка». *Филология и литературоведение* 5.
- Dadaboyev, N. 2020. *O'zbek terminologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.
- Dadaboyev, N.A. 2020. *Tarixiy harbiy terminlar lug'ati*. Toshkent.
- Dadaboyev, N., Yodgorov, N. 2021. *O'zbek harbiy terminologiyasi*. O'quv-qo'llanma. Toshkent: Sahhob.
- Кагарманов, Г. Г. 2021. "Ученый-энциклопедист Л.Будагов и его фундаментальный словарь (к 200-летию со дня рождения)". *Проблемы востоковедения* 3: Ст. 63.
- Махмуд Қошғарий. 1963. *Девону луғотит турк*. III том. Тошкент.
- Меметов, А. 2019. *Вклад Л. Будагова в Крымское востоковедение*. И.А. Меметов, Т.Б. Усеинов, А.Н. Сухоруков. Симферополь: Издательство типография «АРИАЛ».
- Меметов, А. 2019. "Развитие востоковедения в Крыму (XI - начало XX века)". И.А. Меметов, Т.Б. Усеинов, А.Н. Сухоруков. Симферополь: Издательство типография «АРИАЛ».
- Mirzayev, I. 2017. "Eski o'zbek tili harbiy terminologiyasining

o'rganilishi". *O'zbek terminologiyasi: bugungi holati va istiqbol-lari*, 157-203. Toshkent.

Мамбетмуратова М.Т. 2012. «Из истории каракалпакской лексикографии». *Вестник Челябинского государственного университета. Филология. Искусствоведение* 5 (259): 100–103.

Распопова, В.И. 1970. "Согдийский город и кочевая степь в VII-VIII вв". КСИА, 122: 86-87.

Samarov, R, Alimov A. 2020. *Harbiy atamalarining harbiy izohli lug'ati*. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.

Шарафуддин Али Яздий. 1997. *Зафарнома*. Тошкент: Шарқ.

O'zbek tilining izohli lug'ati. 2020. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. V jild.

Заҳириддин Муҳаммад Бобир. 1960. *Бобирнома*. Тошкент.

<https://hdl.handle.net/2027/nnc1.0037118790>

<https://id.lib.harvard.edu/curiosity/islamic-heritage-project/40-990053882030203941>

Курышжанов, А. 1963. "Жүз жасаған кітап". *Қазақ әдебиеті* 39. 6-7.

Сыздықова, Р. 1975. "Қазақ лексикографиясының дамуындағы орыс ғалымдары мен авторларының қызметі". *Қазақ ССР Ғылым акад. Хабарлары. Тіл, әдебиет сериясы* 15: 3–9.

Сарибоев Ш., Нақисбеков О. 1985. *Қазақ тілінің аймақтық лексикасы*. Алматы.

Севортян, Э.В., Левитская, Л.С. 1989. *Этимологический словарь тюркских языков*. Москва.

Нурмагамбетов, А. 1994. *Бес жүз бес сөз*. Алматы.

Тасимов, А. 1995. *Туған тілдің бір бұтағы*. Алматы.

Interpretation of military terms in the old Uzbek literary language in the Dictionary of L.Z. Budagov

Mahliyokhon Tukhtasinova¹

Abstract

This article covers “Comparative dictionary of Turkic-Tatar languages” (“Сравнительный словарь турецко-татарских наречий”) of Lazar Zaharovich Budagov, its classification method, its components, and the semantic and etymological interpretation of the included words based on examples from the works of Navoi, Babur.

Turkish dictionaries are kept as rare relics in the libraries of our country and abroad. Most of them are unique and ancient copies. These dictionaries have always attracted the attention of Turkologists and lexicologists.

“Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, со включением употребительнейших слов арабских и персидских и с переводом на русский язык” in 2 volumes has a special place in the list of the main scientific works of L.Z. Budagov. To compile this dictionary, which is one of the largest Turkish dictionaries of the 19th century, rich linguistic and extralinguistic materials were collected by the author from several sources. Active words from the languages of many eastern nations are included in the dictionary. Therefore, the written monuments of peoples, colloquial and translation dictionaries in Turkic languages, and the texts of works related to their literary heritage were used in the process of comparing them.

The lexemes of the Chigatoi language available in the dictionary are divided into thematic groups and researched. One of them is military terms, terms representing military positions and ranks, terms representing combat actions and tactical operations, terms representing weapons, armor, terms representing the names of troops and military units, and the names of defense and engineering facilities are analyzed by dividing them into groups and statistical analysis of lexemes is presented. The words given in the dictionary have been studied by comparing their current meaning

¹ Mahliyokhon Sh.Tukhtasinova – doctoral student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-pochta: mahliyoshavkatjonovna@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-6849-0603

For citation: Tukhtasinova, M. Sh. 2022. “Interpretation of military terms in the old Uzbek literary language in the Dictionary of L.Z. Budagov”. *Golden scripts* 4: 77–100.

based on the explanatory dictionary.

Key words: *Chigatay language, comparison, terminological lexicon, dictionary, main word, explanation, Turkic languages, source, ya'char'chi, hiravul, tolyama, yo'l, mondu, uran, chuqal.*

References

- Abdurazzoq Samarqandiy. 2008. *Matlai sa'dayn va majmai bahrayn*. II jild. 1405-1429 yillar voqealari. Toshkent: O'zbekiston.
- Alisher Navoiy. 1958. *Saddi Iskandariy*. Ilmiy-tanqidiy matn. Tuzuvchi: Porso Shamsiev. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 2018. *Farhod va Shirin*. Nashrga tayyorlovchi Vahob Rahmonov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Abulg'oziy. 1992. *Shajarayi turk*. Toshkent.
- Atabay, B.A. 2014. "Tyrki xaliqtarımıñ XIX g'asirdag'i qog'amdiq-sayasi omiri men tırmısiniñ ensiklopediyasi". *KazNU Bulletin. Oriental series* 3 (69): 53-57.
- Bichurin, N. Ya. 1950. *Sobranie svedeniy o narodax, obitavishix v Sredney Azii v drevnie vremena*. 1. Moskva – Leningrad.
- Budagov, L. Z. 1869. *Sravnitelnyy slovar turesko-tatarskix narechiy*. Tom I.
- Bartold, V.V. 1963. *Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya*. Soch. T.1.Ch.1. Moskva.
- Baskakov, N.A. 1985. «Reka Kayala v «Slove» i reka Syuurliy v russkix letopisyax». *Slovo o polku Igoreve» i yego vremya*, 241-248. Moskva: Nauka, 1985.
- Blagova, G. 1985. «Lazar Budagov – leksikograf-ensiklopedist». *Sovetskaya tyurkologiya* 6: 42-56.
- Galimova, O.N. 2013. «Odnoznachnost i mnogoznachnost kak pokazateli terminosistemi». *Filologicheskie nauki. Voprosi teorii i praktiki* 5 (23): 41-44. Tambov: Gramota.
- Gumerova, A.T. 2012. «Arabizmi v filosofskoy leksiki tatarskogo yazika». *Filologiya i literaturovedenie* 5.
- Dadaboyev, H. 2020. *O'zbek terminologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.
- Dadaboyev, H.A. 2020. *Tarixiy harbiy terminlar lug'ati*. Toshkent.
- Dadaboyev, H., Yodgorov, H. 2021. *O'zbek harbiy terminologiyasi*. O'quv-qo'llanma. Toshkent: Sahhob.
- Kagarmanov, G. G. 2021. "Ucheniy-ensiklopedist L.Budagov i yego fundamentalniy slovar (k 200-letiyu so dnya rojdeniya)". *Problemi vostokovedeniya* 3: St. 63.
- Mahmud Qoshg'ariy. 1963. *Devonu lug'otit turk*. III tom. Toshkent.
- Memetov, A. 2019. "Vklad L. Budagova v Krimskoe vostokovedenie". I.A. Memetov, T.B. Useinov, A.N. Suxorukov. Simferopol: Izdatelstvo tipografiya «ARIAL».
- Memetov, A. 2019. "Razvitie vostokovideniya v Krimu (XI - nacha-

- lo XX veka)”. I.A. Memetov, T.B. Useinov, A.N. Suxorukov. Simferopol: Izdatelstvo tipografiya «ARIAL».
- Mirzayev, I. 2017. “Eski o‘zbek tili harbiy terminologiyasining o‘rganilishi”. *O‘zbek terminologiyasi: bugungi holati va istiqbol-lari*, 157-203. Toshkent.
- Mambetmuratova M.T. 2012. «Iz istorii karakalpakskey leksikografii». *Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. Filologiya. Iskusstvovedenie* 5 (259): 100–103.
- Raspopova, V.I. 1970. “Sogdiyskiy gorod i kochevaya step v VII-VIII vv”. *KSIA.*, 122: 86-87.
- Samarov, R, Alimov A. 2020. *Harbiy atamalarining harbiy izohli lug‘ati*. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
- Sharafuddin Ali Yazdiy. 1997. *Zafarnoma*. Toshkent: Sharq.
- O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. 2020. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. V jild.
- Zahiriddin Muhammad Bobir. 1960. *Bobirnama*. Toshkent.
- <https://hdl.handle.net/2027/nnc1.0037118790>
- <https://id.lib.harvard.edu/curiosity/islamic-heritage-project/40-990053882030203941>
- Kurishjanov, A. 1963. “Jyz jasag‘an kitap”. *Qazaq adabiet* 39. 6-7.
- Sizdiqova, R. 1975. “Qazaq leksikografiyasiniń damuındag‘i oris g‘alimdari men avtorlariniń qizmeti”. *Qazaq SSR G‘ilim akad. Xabarları. Til, adabiet seriyasi* 15: 3–9.
- Sariboev Sh., Naqisbekov O. 1985. *Qazaq tiliniń aymaqtıq leksikasi*. Almati.
- Sevortyan, E.V., Levitskaya, L.S. 1989. *Etimologicheskij slovar tyurkskix yazikov*. Moskva.
- Nurmagambetov, A. 1994. *Bes jyz bes söz*. Almati.
- Tasimov, A. 1995. *Tug‘an tildin bir bıtay‘ı*. Almati.

“Lahjat ul-lug‘ot” asarida ifodalangan zoonimlar

Umida Radjapova¹

Abstrakt

Ilmiy merosimizning muayyan qismini tashkil etgan qo‘lyozmalarni o‘rganish, tabdil va tahlil qilish bugunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Tadqiq etilayotgan “Lahjat ul-lug‘ot” asari mumtoz asarlarning til xususiyatlarini ochishda, ma‘no-mazmunini tushunishda dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur maqolada “Lahjat ul-lug‘ot” asarida keltirilgan zoonimlar o‘rganilgan – ularning nomlanish qonuniyatlari, sabablari va motivlari aniqlanib, tahlil qilingan. Asarda keltirilgan hayvon nomlari katta bir tizimni tashkil qiladi. Zoonimlarning yana bir turi – ornitonimlarga alohida e‘tibor qaratilgan. O‘zbek tilida zoonimlarning o‘ziga xosligi borasida Alisher Navoiy ham “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida alohida so‘z yuritgan. Turkiy xalqlarning hayvonot olamiga alohida e‘tiborini muchal hisobi ham isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: *zoonim, ornitonim, nominatsiya, muchal hisobi, burj, tadrijiy taraqqiyot, tarixiy-etimologik tavsif.*

Kirish

Tilshunosligimizda zoonimlar, jumladan, eski o‘zbek tilidagi hayvon nomlari bir qadar tadqiq qilingan [Щербак 1961, 82-150; Абдушукуров 1998, 20; Зарипов 2007, 98]. Tilimizda zoonimlar tizimi katta ko‘lamli va ko‘p qatlamli bo‘lishi bir necha omillar bilan bog‘liq. Bunda turkiy xalqlarning turmush tarzi, hayvonot olamiga alohida munosabati hamda asrlar davomida qardosh tillardan boshqa birliklar kabi zoonimlar ham o‘zlashib borganidir.

Mumtoz adiblarimiz asarlarida ilmiy nomi *Mustela erminea* (ruschada *горноста́й*) deb ataluvchi *qoqum* nomli jonzot uchraydi. B.Hasanov bu so‘zning to‘g‘ri shakli *qaqum* va oqsuvsar; oqsuvsar terisi va mo‘ynasi [Навоий асарлари учун қисқача луғат 1993,

¹ Radjapova Umida Baxramovna – katta o‘qituvchi, Urganch davlat universiteti.

E-pochta: radjapovaumida87@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-4998-7286

Iqtibos uchun: Radjapova, U. B. 2022. “Lahjatu-l-lug‘ot” asarida ifodalangan zoonimlar”. *Oltin bitiglar* 4: 101–116.

18] ma'nolarini anglatishini yozadi. Hozirgi paytda hayvonot dunyosidan bir qadar uzoqlashgan avlod uchun *qoqum* so'zi begona bo'lishi tabiiy. Lekin ijtimoiy tarmoqlar orqali bu zoonim haqida rus tilida ma'lumot olish, muhimi, video va foto manbalar orqali yaxshigina tasavvur olish imkoniyati katta [Горностай]. *Qoqum* — oqsichqon; oqsuvsar, uning terisi va mo'ynasi [Персидский-русский словарь 1983, 253]. A.O'razboyev *qoqum* sobol (suvsar) kabi kichik jussali hayvon, terisi oq va dumining uchi qora bo'lishi, "Muqaddimat ul-adab"da *os* آس deb izohlangani, terisi nihoyatda oq va muloyim bo'lib, undan po'stin qilingani, bunday po'stin qimmatbaho hisoblangani haqida yozadi. Ogahiyning "Riyoziy ud-davla" asarida ham *qoqumpo'sh* so'zi uchraydi. *Qoqumpo'sh* so'zi aynan qoqum kiygan degan ma'noni anglatadi. Mumtoz adabiyotda bu so'z majozan tongni anglatgan: "Hamul kecha abri nilgun lashkari mahsharnamun g'uboridek havo yuzin tutub, yuz sho'ru angiz bila andoq zamharirrezlik rusumin zuhurg'a etkurdikim, olam fazosin kofurjo'sh va ajzosin *qoqumpo'sh* qildi" ["Riyoziy ud davla", 272^a].

Turkiy xalqlarda hayvonlarning nomlanish tarixi

Turkiy xalqlarning hayvonot olamiga alohida e'tiborini muchal hisobi ham ko'rsatadi. Ajdodlarimiz arab istilosiga qadar o'zlarining yil hisoblariga ega bo'lganlar. Muchal haqida ma'lumot juda ko'p manbalarda, jumladan, Beruniyning "Osor ul-boqiya" hamda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarlarida ham batafsil berilgan. Muchal so'zi *much*a ismi va *much*a fe'lidan hosila bo'lib, qirg'iz tilida *muchu* – tug'ilgan yiliga yetmoq (o'n uchundo' mucho'du, andan kiin kucho'du – o'n uchida yoshiga yetdi, undan keyin kuch oldi) ma'nosida keladi. Yilnoma vazifasida muchal so'zi:

1. Har bir yili bir hayvon nomi bilan ataluvchi o'n ikki yillik davr.

2. Shu o'n ikki yillik davrga kiruvchi har bir yilning nomi.

3. Tavallud sanasi, tug'ilgan yil kabi uch ma'noda ishlatiladi. Bunda yosh hozirdagidek har yilda emas, balki muchal davri muddatiga yetganda nishonlanadi. Muchal yillari nomlari quyidagicha: *Sichqon*, *Sigir*, *Palang*, *Quy*on, *Baliq*, *Ilon*, *Ot*, *Qo'y*, *Maymun*, *Tovuq*, *It*, *To'ng'iz*. Har bir muchal yili 22-martdan boshlanadi.

O'zbek tilida zoonimlarning o'ziga xosliklari borasida Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da alohida so'z yuritadi. O'zbek

filologiyasida zoonimlarning badiiy vosita sifatidagi o‘rni ham maxsus tadqiq qilingan. B.P. Zaripov “Zoonimlarning badiiy san’at turlarini hosil qilishdagi ishtiroki” (Alisher Navoiy asarlari asosida) dissertatsiyasida Alisher Navoiy asarlari misolida zoonimlarning 20 dan ortiq badiiy san’at yaratishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

“Lahjat ul-lug‘ot” asarida keltirilgan hayvon nomlari

“Lahjat ul-lug‘ot” asarida keltirilgan hayvon nomlari katta bir tizimni tashkil qiladi. Jumladan, quyidagi qush nomlari izohlanib, turkiy bo‘lganlarining arabcha va forsha nomlari izohlangan: *ağaçqaqan quşu* (74), *anqa* (576), *arı quşi* (37), *atmaca quşi* (11), *balaban* (257), *balıkcı quşi* (252), *bayquş* (262), *bəbr* (221), *bıldırcın* (275), *boğurtlak* (292), *boyunburan quşi* (312), *bozbakkal* (287), *bülbül* (303), *çaylak* (354), *çıl* (362), *çoban aldangucu* (366), *çoluk (çulluk)* (373), *dəvə quşi* (413), *doğan* (568), *dudu* (427), *əbâbil* (9), *ənkad – angut quşi* (104), *gökçil* (721), *günəyik* (729), *güvərcin* (732), *hüdhüd quşi* (766), *hüma* (766), *incir quşi* (152), *ishak quşi* (138), *iskətə* (138), *qara bata* (597), *qara tavuk* (597), *qarg’a* (598), *qartal* (598), *qaya quşi* (621), *kərkənəz* (674), *kərkəs* (674), *qilkuyruk* (634), *kırlangıç* (626), *qız quşi* (628), *quğu* (653), *quş* (651), *kuyruksalan* (666), *quzgun* (650), *ləylək* (735), *martı quşi* (738), *məzkəldək* (740), *muymül* (753), *ögü* (197), *ördək* (170), *papağan* (221), *saqa quşi* (463), *saksağan – zag’izg’on* (511), *sarı asma* (506), *sərçə* (460), *sıgırcık quşi* (524), *sungur* (536), *sülün* (488), *şahin* (496), *tavşancıl quşi* (555), *tavus* (555), *toy quşi* (573), *toygar quşi* (573), *turaç quşi* (328), *turna* (564), *üvəyik* (209), *yalva: Bıldırcın*. (804), *yund quşi* (849) kabi.

Zoonimlarning bir turini hisoblangan ornitonimlar xususida Alisher Navoiy turkiylarda o‘rdakning o‘n ikkita (*ilbosun, o‘rdak, so‘na, barchin, jo‘rka, erka, suqtur, olmabosh, chaqirqanot, oldoldar, olapuka, bog‘chal*), qushning esa yetmishta nomi borligini, sortlar esa ularning hammasi uchun bitta *murg‘obi* so‘zi bilan cheklanishlarini aytadi. Otning o‘n uchta nomi va ularning bir-biridan farqi ko‘rsatilib, sortlarda bunday nomlar yo‘qligi, turkiydan foydalanishi ta’kidlanadi [Нурмонов 2014, 231].

Jonzot nomlarining ham yuzaga kelishi, ya’ni nominatsiya tamoyillari, mumtoz filologiya istilohi bilan aytganda, vajhi tasmiyyasi turlicha. Masalan, ingliz tilidagi 200 dan ortiq ornitonimni e’tiborli leksikografik manbalar asosida tahlil qilib chiqqan Nikulinaga ko‘ra, ularning 27 foizi ovozga taqlid; 9 foizi tashqi ko‘rinishga qarab; 8 foizi rangiga ko‘ra; 6 foizi harakatlaridagi asosiy xususiyatiga baho berish asosida; 6 foizi xarakteri; 4 foizi

uchish tarzi; 4 foizi yashash joyi; 3 foizi nima yeyishi; 3 foizi atoqli otlar; 2 foizi o'ljasi bilan muomalasiga qarab nomlangan [https://api-mag.kursksu.ru/media/pdf/020-009_i0HFz27.pdf].

“Lahjat ul-lug‘ot” asarida ham zoonimlar, jumladan, ornitonimlar haqida keng ma’lumotlar beriladi. Masalan, anqo عنقا haqida shunday yozilgan: “Nomi bor, o‘zi yo‘q bir qush. Ko‘pdan beri ko‘rinmagan kishi haqida arablar طارت به العنق degan maqolni ishlatadilar. **Sîmurg** va **sirenk** sîmurg kabi anqodir” deydi. Bu ornitonimlar juda qadimiy ildizlariga ega. Jumladan, **Semurg‘** “Shohnoma” [٧٧٨١. كتاب شاهنامه. لندن. جلد اول], “Mantiq ut-tayr” [Арт-топ 2006], “Lison ut-tayr” dostonlarida [Навоий 1996, 32] ham uchratamiz. “Shohnoma”da Semurg‘ Zolni tarbiyalagani aytiladi. “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr”da oliy hakim, ma’rifatda tengsiz qush sifatida tilga olingan. “Avesto”da uning nomi *mərəghô saênô* bo‘lib, lochin qush ma’nosini beradi. Hozirgi fors tilida مرغ qush ma’nosi beradi. R.Mahmudov yozishicha, O‘rta Osiyodagi turkiy xalqlar, shuningdek, boshqird va tatarlarga oid ertak va afsonalarda ham semurg‘ obrazi ko‘p uchraydi. Bu zoonim qozoq tilida *Samұryq*, kazak tilida *Samuryk*, tatar tilida *Semrug*, boshqird tilida *Samrau* tarzida uchraydi. Skif va sarmatlarning afsonalarida uchrovchi *Semargl* (Semurg‘), qadimgi Rusiyada hanuz funksiyasi ma’lum bo‘lmagan *Simargl* ilohasi nomining paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. “Muvaqqat yillar qissalari”da ta’kidlanishicha, *Simargl* ilohasining haykali Perun va boshqa ilohalarning haykallari qatorida Vladimir Svyatoslavichning buyrug‘iga asosan Rusiyaga xristian dini kirib kelmasidan avval, “til islohoti” amalga oshirilgan davrda Kiyevga o‘rnatilgan [Lowmianski 1986, 113-118]. Turkiy xalqlarda Semurg‘ning *Humo*, *Anqo*, *Davlat qushi*, *Baxt qushi*, *Marqumomo*, *Kuntubulg‘on*, *Bulbuligo‘yo* va boshqa variantlari bor [O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2004, 577-578]. Alisher Navoiy uning uyini Qof tog‘ida deya ta’kidlaydi:

Ham nishiman Qofi istig‘no ango,
Ham laqab ul Qof uza *Anqo* ango.
Shuhrati Simurg‘ ila ofoq aro,
Zoti mamlu charx oliy toq aro [Навоий 1996, 32].

Ushbu misralardan Semurg‘ning yana bir laqabi Anqo ekanligi anglashiladi. “Burhone qote”da ta’kidlanishicha, anqo bu semurg‘ning boshqa bir nomi. Arablar semurg‘ni anqo deb nomlaydilar.

Semurg‘ning yana bir analogi **Humo** “Avesto”da *hu-mayâ* yoki *hu-mâyâ* shaklida ko‘p bora qo‘llanganini kuzatish mumkin.

Pahlaviyda bu so‘z *humâk* tarzida qo‘llangan. “Shohnoma”da bu so‘z Uqobning o‘ziga xos xususiyati sifatida tilga olingan. “Shohnoma” fixristida esa uni *Adler* (Uqob) deya tarjima qilingan.

Shuningdek, “Lahjat ul-lug‘ot” asarida turli jinsga mansub hayvon nomlari joy olgan. Jumladan:

uy hayvonlari: *at* (11), *ayg‘ir* (119), *bəyg‘ir* (263), *boğa* (293), *buzag‘i* (287), *dəvə* (411), *əşək* // *eşək* (64), *qatır* (608), *qısraq* (631), *koduk* (642), *öküz* (196), *sığır* (523), *sıpa* (518), *suv sığırı* (538), *yund (ot)* (849), *ənik* (103), *gücən* – *quyon bolasi* (710), *qancıq* (616), *kəçi echki* (670), *kədi* – *mushuk* (672), *qoç* – *qo‘chqor* (640), *qoyun* – *qo‘y* (665), *köpək* (705), *qûsəm* – *suruvning oldida keladigan qo‘y yoki qo‘chqor*, *serka* esa *echki zotidan bo‘ladi* (717), *qo‘zu* (649), *mâstî* – *oyoqlari kalta it* (741), *oğlaq* (188), *tazı* (543), *təkə* (321), *zağar* – *cho‘pon itning bir turi* (410) *kabi*; *horuz* (390/381), *qaz* (606), *qulučka* (660), *qüməs* (726), *ördək* (170).

sudralib yuruvchi hayvon nomlari: *kələr* – *kaltakesakning bir turi* (684), *kərtənkələ* – *kaltakesak* (673), *qırq ayaq* (625), *soğulcan* (531), *sülük* (489), *sümüklü böcək* (490), *yılan* (822).

hasharotlar nomlari: *ağustos böcaği* (75), *arı* (37), *bit* (264), *boq böcaği* (293), *böcək* (278), *böcü* (278), *bûh* – *o‘rgimchak* (292), *büğələk* (297), *çakirgə* (346), *əvliya dəvəsi* (111), *güvə* (731), *hamam böcaği* (380), *ipək kurti* (123), *kələbək* (684), *kənə* (688), *pirə* (269), *sinək* (474), *taxta biti* (314), *tatarcık* (314), *təkə* (321), *təsbih böcaği* (317), *yıldız böcaği* (821).

yovvoyi hayvon nomlari: *arslan* (37), *ayıq* (121), *çaqal* (343), *gəlincik* (683), *gərgədan* (674), *qaraca* (597), *kərkənəz* (674), *kirpi* (696), *qunduz* (662), *qurt* (647), *maymun* (746), *misk kədisi* (748), *pars* (227), *porsuk* (285), *sansar* (465), *sığın* (523), *sırtlan* (521), *sincap* – *olmaxon* (477), *tavşan* (554), *təyin* (325), *tulki* (424), *yarasa* (784);

suv hayvonlari nomlari: *aqrəp* (574), *balıq* (251), *havyar* (385), *istakoz* (138), *istiridyə* (138), *qalqan* (613), *midyə* (747), *sakankur* (464), *turna* (564), *yılan balığı* (823) kabilarni uchratamiz.

Ularning har biri haqida juda ko‘plab mulohazalarni bayon qilish mumkin. Xususan, zoonimlarning ko‘chma ma‘nosi inson va tabiat munosabatlarining eng yorqin ifodalaridan biridir. Shuningdek, ko‘chma ma‘noda kasb etgan jonzot nomlari insonning o‘zini anglashga bo‘lgan intilishlari natijasi hamdir. Ayrim zoonimlarning sinonimiyasi, poetik vosita sifatidagi o‘rni haqida boshqa boblarda so‘z borishi mumkinligi bois ularning ayrimlari

xususida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Qo'y va qo'zi zoonimlari

Tadqiqotchilar turkiy qatlamga mansub so'zlarning ko'pchiligi bir bo'g'inli so'zlardan tashkil topganini ta'kidlashgan [Неъматов 1992, 76; Раҳматуллаев 2000, 11]. Haqiqatan ham, "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da berilgan 1544 ta bir bo'g'inli so'zlarning 855 tasi turkiy, qolgan 345 tasi arabcha, 340 tasi forschadir [Шодиев 2008, 10].

Asarda keltirilgan turkiy qatlamga mansub so'zlarning tarixiy-etimologik tavsifi ham yuqoridagi fikrlar to'g'riligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, bugungi kunda eng kichik ma'noli komponent deb qaralgan CVC (undosh+unli+undosh) ko'rinishida bo'lgan ayrim so'zlarning tarixan yasama bo'lganligini ko'rsatadi. Masalan, "go'sht, jun, sut olish uchun boqiladigan uy hayvoni" ma'nosidagi *qo'y* so'zini olaylik: Ul *qo'yni* ko'tarib, yozig'a eltib o'tlatur erdi. Bu so'z M.Koshg'ariy tomonidan *qoy*, *qon* tarzida ko'rsatilib [Кошғарий 1960, 154-155], uning dastlabki shakllari *qod* va *qoz* bo'lganini taxmin qilish mumkin. Chunki, "Qutadg'u bilig"da ham bu so'z *qoy* shaklida ishlatilsa-da, Hamal burjining nomi *Qozы* tarzida tilga olinadi [Содиқов 1989, 298]. Asarda Savr burjining nomi *Ud* tarzida ishlatilgani, shuningdek, *içak* so'zi bilan sinonimlik kasb etib, "sigir" ma'nosini berganiga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, bu so'z keyinchalik "ho'kiz" ma'nosida *uy* shaklida ishlatilgan [Навоий асарлари луғати 1972, 623]. Xuddi shu tarzda bu so'zning omonimi "biror makonga joylashtirmoq" ma'nosidagi fe'lning dastlabki shakli *qod* bo'lgan [Древнетюркский словарь 1969, 451-453]. Ushbu so'z tahlilida Sh.Rahmatullayev "*qoz*-, *qot*-" so'zlarini ham qamrab olib fikr yuritsak, qadimgi turkiy tilda "o'rin" ma'nosini anglatgan *qo* oti mavjud bo'lganiga, *qod*, *qoy*-, *qot*- so'zlari oxiridagi undoshlar aslida fe'l yasovchi ekaniga ishonch hosil qilamiz", deb yozadi [Раҳматуллаев 2000, 583]. Olim ta'kidlaganidek, ushbu misollardagi -d, -y "yo'nalish", -z, -t "qoldirish" ma'nosini ifodalagan bo'lib chiqishini *tuy* (bu o'rinda biror narsani yig'ishtirib, joylash, *tug*- fe'lining qipchoq lahjasidagi shakli) va *tut*- fe'llarini qiyoslash orqali ham ko'ramiz. Shu tariqa *qoy* va *qozы* so'zlarining ildizi umumiy deb hisoblasak, *qoy* so'zining o'zi *qo* o'zagidan hosil bo'lgan sanaladi.

Lekin bu masala anchayin murakkab bo'lib, N.A.Baskakov ancha yillar oldin ta'kidlagan bo'lishiga qaramay, "turkiy o'zaklarning qurilish muammosi va ularning fonetik tarkibi haqidagi munozara

hamda ularning tadrijiy taraqqiyoti (C)VC-CV(C)- (C)V(C)-CVCdan boshlanganmi yoki V>CV-VC-CVCdan boshlanganmi, bu narsa hozirgi paytgacha tortishuvchi va hal etilmay kelinmoqda” [Баскаков 1979, 141].

Demak, *qod* // *qoz* (“z” tishora undosh) // *qoy* qadimgi turkiy *qo* – “o‘rin” so‘ziga “joylashish” ma‘nosidagi -d// -y qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. Buni mazkur jonivorning dastlabki uy hayvonlaridan bo‘lganini taxmin qilish, ajdodlar tomonidan dastlab xonakilashtirilgan jonzotlardan ekanini hisobga olish bilan asoslash mumkin. Shunga ko‘ra, -d// -y undoshlari “joylashish” ma‘nosida ayni paytda ham ot, ham fe‘l hosil qilishi ayon bo‘ladi. Turkiy tillarda ot va fe‘l o‘rtasidagi bu tariqa yuzaga kelgan omonimlar maxsus o‘rganilgan [Щепбак 1961, 18-29; Капсибеков 1986, 271]. Yuqoridagi fikrga yana bir dalil sifatida quyidagi lisoniy faktga e‘tibor qarataylik: Mahmud Koshg‘ariy *qoy*ning *y* undoshi *nga* almashgan *qon* shakli ham borligini ko‘rsatgan [Кошғарий 1963, 154]. So‘zning bu shaklini qadimgi turkiy tildagi “ma‘lum bir sathdan joy olmoq” ma‘nosidagi *qon*- fe‘liga qiyoslasak, har ikkala so‘zning (*qoy* va *qon*) nomlanish tamoyili bir xil bo‘lganini kuzatamiz.

Hozirgi usmonli turk tilida *koyun*, ozarboyjon, turkman tillarida *g‘ojun*, oltoy, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, no‘g‘oy, uyg‘ur, gagauz tillarida *kojun*, tuva, xakas tillarida *xoi* bo‘lgan bu so‘zning oltoy oilasiga mansub mo‘g‘ul tilida *xoni(n)*, manjur tilida *xonin*, tungus tilida *konin* [Щепбак 1961, 110] bo‘lgani ham bu so‘zning naqadar qadimiyligiga dalolat qiladi. Sh.Rahmatullayev *qoyun* va *qонын* shakllaridagi -n qo‘shimchasini kichraytirish-erkalash ma‘nosini ifodalasa kerak, degan mulohazani bildiradi [Рахматуллаев 2000, 583]. Ibn Muhanna lug‘atida ham ushbu shakl keltirilgan [Мелиоранский 1900, 108].

Ilon zoonimi

Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk”da *o‘q ilon* zoonimini “o‘zini odam va boshqalarga otadigan ilon” deb izohlaydi [Кошғарий 1963, 36]. *ilon*//*yilon* so‘zining etimologiya xususida Sh.Rahmatullayev qadimgi turkiy tildagi “qimirla-”, “jil” ma‘nosidagi *uyul*- fe‘liga -an qo‘shimchasi qo‘shib yasalganini yozadi [Рахматуллаев 2000, 116]. Ko‘rinadiki, bunda zoonim etimologiyasi jonivorning tashqi belgisiga asoslangan. Forsiy *mor* so‘zi pahlaviy tilida *mâr* shaklida, sanskritcha “o‘ldiruvchi, qotil” ma‘nosidagi *mâra* so‘zi bilan o‘zakdoshdur. “Avesto”da *mairya* so‘zi “ziyonkor”, “zararkunanda” ma‘nosini beradi. Bularning barchasi

o'lmoq ma'nosidagi *mar* fe'lga bog'lanadi [Tabriziy 1997, 1933].

"Lahjatu-l-lug'ot" materiallari o'zbek mumtoz matnlarida uchraydigan sinonimlar, aniqrog'i sinonim so'zlar o'rtasida muayyan ma'no farqlarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Buni "Lahjat ul-lug'ot"dagi *at* (ot) maqolasi va o'zbek mumtoz matnlaridagi *ot* tushunchasini ifodalovchi so'zlar qiyosi orqali ko'rishimiz mumkin.

Ayrim tadqiqotchilar *ot* so'zini turk-mo'g'ul parallellaridan biri sifatida qayd etadilar [Нуриева 1985, 379]. A.M.Shcherbak esa, aksincha, bu so'zni turk va mo'g'ul tillari o'rtasida hech qanday aloqasi bo'lmagan so'zlar sirasida qayd etadi.

Qaysi aduv uzraki, yetkurdi *ot*,
Oni piyoda etibon qildi mot ["Riyozi ud davla", 256^a].

Ko'rinib turibdiki, parchada *ot* so'zining ham zoonim, ham shaxmat atamasi ma'nosi orqali iyyom san'ati yuzaga kelgan. *Piyoda* so'ziga ham urfiy, ham istilohiy ma'no berish hamda *mot* so'zining istilohiy va qilmoq fe'li bilan birikib anglatgan frazeologik ma'nosi bunga imkon bergan. Baytdagi *aduv*, *piyoda*, *mot qilmoq* so'zlarining mavjud ma'no tovlanishlarini e'tiborga olib, aytish mumkinki, *ot yetkurmak* fe'li orqali uchinchi ma'no – nomini baland qilmoq, shukuhidan larzaga solmoq mazmuni ham nazarda tutilgan. Bu holda baytda zulvujuh yuzaga kelgani ayon bo'ladi. Boshqa misollarga murojaat qilaylik: "ot va tevalarin serob qilib..." ["Riyozi ud davla", 269^b]. Bu kabi misollar Ogahiy tarixiy asarlarining nazmiy qismlari nasriy qismlarga nisbatan lingvoestetik jihatdan ustunligini ko'rsatadi. Bu, albatta, tabiiy holat. Ogahiyda otning maxsus bir turi *to'pchoq ot* birikmasi orqali ham ifodalangan: "... *to'pchoq ot* va zarrin liboslar in'omi bila sarafrizliq yetkurdi. ["Riyozi ud davla", 272^b]

Tavsani توسنى so'zi "Navoiy asarlari lug'ati"da "sho'x ot, o'ynoqi ot, to'pchoq" tarzida izohlanib, forscha so'z deb berilgan [Навоий асарлари луғати 1972, 584]. L.Budagov ham ushbu so'zni turkiy tillar uchun forsiy o'zlashmalardan biri hisoblagan [Бударов 394]. M.Mu'in mazkur so'zning "Devonu lug'ot it-turk"dan joy olganini qayd etar ekan, uning fors tilida qadimdan ishlatilib kelinayotganini "Lug'ati furs"dagi Minjik Termiziy qalamiga mansub bir bayt orqali ko'rsatadi va uning boshqa eroniy tillardagi shakli keltirilmagani o'quvchiga forsiy so'z emasligi xususida xulosa chiqarishi uchun asos bo'ladi. Fors tilida shu asosda *tavsani* توسنى (eski o'zbek tilida *tavsani*) – "sarkashlik qilish, bo'ysunmaslik" so'zi yasalgan. M.Mu'in bu so'zga "Lug'ati furs"dan joy olgan Og'ochiy qalamiga mansub

quyidagi baytni misol keltiradi:

Tavsaniy kardam nadonistam hame

K-az kashidan saxttar gardad kamon.

“Devon”da *tavsan tusan* تُسَن shaklida “toy” deb izohlangan. S.Mutallibov “bu so‘z Navoiy asarlarida *tavsan* tarzida sho‘x, o‘ynoqi ot ma‘nolarida uchraydi” – deb qayd etadi [Кошғарий 1960, 382]. “Alisher Navoiy asarlari tilininng izohli lug‘ati”da “tavsan”ning ma‘nolari misollar orqali izohlangan.

Asb so‘zi eroniy tillar uchun umumiy lug‘aviy birliklardan sanalib, uning turli eroniy tillardagi shakli bir-biriga yaqin. Ogahiyda ot so‘zining ma‘nodoshidan tashqari shaxmat atamasi sifatida ham ishlatilgan:

Summi *asb* etib tog‘ni gard gard,

Hamul nard etib kun yuzin lojuvard [“Riyozi ud davla”, 259^b].

Yilqi so‘zi. Bu so‘z “hayvon” ma‘nosida “Qudag‘u bilig”da bir necha bor ishlatilgan [Kutadgu bilig 1979, 539]. Ogahiy tarixiy asarlari tilida *yilqi* shaklidagi so‘z ikki xil ma‘no beradi:

1. Yillik, yilga oid: “...*har yilqi* (har yilgi) qarori voqe‘idin ziyoda in‘om qilib, ahli sipohni xurram va shodkom qildi” [“Riyozi ud davla”, 309^a].

2. Ot. “...*yilqi* yili sana ming ikki yuz ellikda...” [“Riyozi ud davla”, 276^a].

Muchal hisobidagi ot yili Ogahiy tarixiy asarlarida asosan *yilqi yili* shaklida ishlatilgan: “Hamul yil, ya‘ni *yilqi yili*... g‘azot savobi tahsili iroda qilib...” [“Riyozi ud davla”, 286^b]; “*yilqi yili* rabialavval oyining o‘n segizida dushanba kunikim, as‘adi soot va arshadi avqot erdi” [Jome‘ ul voqe‘ati sultoniy, 11^a]. Demak, Ogahiy davrida xalqona ifoda shunday bo‘lgan. Xorazmlik keksalar yaqingacha ot yilini yilqi yili deyishlari sababi shu bilan oydinlashadi.

Alisher Navoiy asarlari tilida bu ikki so‘z alohida shakllarga ega, ya‘ni “yilqi” (hayvon) *ilqi* ايلقى; “yilqi” (yillik, yilgi) esa *ilg‘i* ايلغى tarzida ishlatilgan [Навоий асарлари учун қисқача луғат, 1993 109]. Ogahiy tarixiy asarlarida sintaktik omonimlarga misol bo‘la oladigan badiiy barkamol o‘rinlar aynan *yilqi* so‘zi shakldoshligi bilan bog‘liq. Ularning tahlili, bir tomondan, eski o‘zbek tilidagi lug‘aviy omonimlar tabiatini o‘rganishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, Ogahiyning shakldosh so‘zlardan foydalanish bobidagi poetik mahoratidan zavqlantiradi. Masalan, “Jome‘ ul-voqe‘oti sultoniy”dan joy olgan masnaviylarning birida shunday satrlar bor:

Birov oldi komin surib *yiqisin*,
Na bir *yilqisin*, balki ming *yilqisin* ["Jome' ul voqe'ati sultoniy",
47^a].

Baytda qo'llanilgan *yilqisin* so'zining birinchisi "yilqisini", "ot-ulovini"; ikkinchi va uchinchi qo'llanishida "yilgisini", "yilligini" tarzida tushunish mumkin. Bunda baytning umumiy mazmuni "birovlar maqsadiga erishib (g'orat qilinganlar)ning ot-ulovini oldi, nafaqat bir ot-ulovini, balki ming ot-ulovini oldi" tarzida namoyon bo'ladi. Endi aynan shu baytni

Birov oldi komin surub *yilqisin*,

Na bir *yilqisin*, balki ming *yilqisin* – tarzida tushunib o'qisak, bayt mazmuni "birovlar maqsadiga yetgan holda (g'orat qilinganlar) ning yilqisini oldi. Ular nafaqat bir yilgi, balki ming yillik orzulariga erishdi" ko'rinishini oladi. Asarda so'z ketayotgan voqealar bayoni ham, baytning umumiy ruh va mazmuni ham, muhimi, eski o'zbek tilining grammatik qurilishi ham bunga imkon beradi. Shuning uchun ham badiiy barkamol satrlar nazmda bo'lsin, nasrda bo'lsin, grammatik qoidalarga to'la rioya qilingin holatdagina yuzaga keladi. Bu kabi baytlar Ogahiy Alisher Navoiyga badiiy mahorat bobida to'la ergashganligini ko'rsatib beruvchi faktik material hamdir. Qolaversa, baytda Ogahiy eski o'zbek tilining leksik va sintaktik imkoniyatlarini namoyon qila olgan. Umuman olganda, tilning qator sathlardagi imkoniyatlari uning sintaktik qurilishida namoyon bo'lishi ma'lum. Qizig'i shundaki, *yilqi* (chorva) va *yilqi* (yilgi, yillik) so'zlarining shakldoshligidan foydalanib, tajnis hosil qilish "Qutadg'u bilik"da ham uchraydi:

Tili yalg'an erning jafa qilqi ul,
Jafa kimda ersa o'shul *yilqi* ul.
Kishi yalg'anindan tilama vafa,
Bu bir so'z sinamish o'kush *yilqi* ul.

Ogahiy "Qutadg'u bilik" bilan tanish bo'lmagani aniq. Bunday faktlar esa buyuk iste'dodlar va maslakdoshlar g'oyibona bir-birlari bilan hamfikir bo'lishidan darak beradi.

Kumayt so'zi. "Chahorshanba kuni Yog'lito'pa mavzeidin davlat *kumaytig'a* rukub qilib, ... ["Riyo'z ud davla", 265^b]. Bu so'z Xorazmshoh Otsiz qalamiga mansub quyidagi qit'ada ham ishlatilgan:

اگر باد پایست یکران شاه

اکمیت مرا هم پای لنگ نیست [ذبیح الله صفا. تاریخ ادبیات در ایران 3731].

(Tarjimasi: "Agar shoh (Sulton Sanjar)ning yakroni (oti) shamoldek uchqur bo'lsa ham, bizning kumayt (ot) oyog'i ham

oqsoq emas”). Shu o‘rinda Zabihullo Safo *kumayt* so‘ziga “qizil rangli ot” deb izoh bergan.

Kumayt so‘zi L.Budagov tomonidan ham arabcha so‘z sifatida qayd etilgan ma’nosida berilgan. *Kumayt* “Navoiy asarlari lug‘ati”da “1. To‘riq, chopqir ot. 2. Qoramtil qizil ot” tarzida izohlangan bo‘lsa, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da faqat “To‘riq ot, chopqir ot” qismi berilgan [Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати 1983, 137]. Bu so‘zning “qoraga moyil qizil sharob” ma’nosi ham mavjud. “Burhoni qote”da “*kumayti nishot*” birikmasi “qizil sharob” tarzida izohlangan. *Kumayt*ning sinii ko‘pligi *kumt* dir.

Yakron so‘zi tarixan ikki qismdan iborat: *yak+ron*. *Yak* bir (1) ma’nosini berib, qadimgi fors tilida *aivaka*, avestoviyda *aeva* [Bahrami, Jonnaydi 1990, 27], pahlaviy tilida *ēv*, *ēvak* shakllariga ega bo‘lgan bo‘lsa, pushtu tilida *yo*, yag‘nob tilida *i* shakliga ega Mazkur sonning sharqiy eroniy tillardagi shakli fors tilidagi yoyi vahdat – birlik, yagonalikni ifodalovchi “yo”ning kelib chiqishini oydinlashadi. “Yo-yi vahdat” eski o‘zbek tilida ham keng qo‘llanilgan. Masalan, “... *mehribone* topmadim” (Alisher Navoiy) – “bir mehribon topmadim”; “zamon ko‘rmadi men kebi *nodire*” va hokazo. Xorazmiy tilida artikl masalasi A.A.Freyman tomonidan maxsus tadqiq qilingan [Фрейман 1951, 42-44]. Bir sonining yag‘nob tilidagi shakli xorazmiy tilidagi artikl evolyutsiyasini tasavvur qilishga yordam beradi. Shu tarzda Xorazm shevalaridagi *yap* so‘zining etimoni (*y*) *i+ap* (ob – suv) ekaniga shubha qolmaydi.

So‘zning ikkinchi qismi *-ron* esa forsiy *rondan* 1) راندن haydamoq; 2) yurgizmoq fe‘lining hozirgi zamon o‘zagi sanaladi [Персидско-русский словарь 710, 1983] va so‘z yasovchi sifatida haydovchi (*govron*); yurgizuvchi (*hukmron*); bo‘ysundiruvchi (*komron*) kabi ma’nolarni beradi. Demak, har ikkala qism birgalikda “bir (zarb bilan) yuruvchi” degan ma’noni beradi. Bunday talqinga shu tipdagi *yaknazar*, *yakson*, *yakrang* kabi so‘zlar ma’nolari asos bo‘ladi.

Mazkur so‘zning yuqoridagi tarzda tarixiy-etimologik tahlili uning onomasiologik jihatini yoritish uchun muhim. Qadimiy lug‘atlarda *yakron* “asil va yaxshi ot”; “sariq va qizil orasidagi bir tusli ot”, “yoli va dumi oq ot” [شمس الدين محمد بن ص ٣٤٢٢ خلف تبریزی . برهان قاطع ٦٨٣١] tarzida talqin qilingan. Demak, *yakron* uchun qayd etilganlardan birinchisi xos bo‘lib, nom uchun otning rangi emas, xususiyati asos bo‘lgan.

Adham “qorato‘riq ot” [Навоий асарлари луғати 1972,

31]: “Chobuksuvori qalam sahifayi maydonig’a bu yonglig’ *adham* surarkim,... [“Firdavs ul iqbol”, 1038]; “Shanba kuni andin nahzat *adhamig’a* rukub qilib, harakat alamin jilvag’a kirguzib, dabdabai tamom va kavkabi molokalom bila masnadi xulofotg’a nuzul qildi” [“Firdavs ul iqbol”, 1102].

“Yurumol ot” ma’nosidagi *takovar* ham mana shu guruhga mansub:

Bu yanglig’ ikki kun amvoji mansur,
Surub ul julg’ada har yon *takovar* [“Riyozi ud davla”, 263^b].

Bu so’z “chopqir ot” ma’nosini anglatganini Ogahiy Buroqni *takovar* deb ta’riflagani ham tasdiqlaydi:

Chu surdi lamakon sari *takovor*,
Bo’lub payki oning Nomusi Akbar [“Riyozi ud davla”, 247^a].

Ogahiy tarixiy asarlarida “ot” tushunchasini ifodalovchi so’zlardan biri *raxsh*dir:

Ang’a gom ursa *raxshi* bodraftor,
Botib to tizg’acha bo’lg’usi nokor
[“Riyozi ud davla”, 256^b].

Rustamning afsonaviy oti laqabi ham *Raxsh* bo’lgani ma’lum. *Raxsh* haqida “Farhangi “Shohnoma”da ma’lumotlar berilgan.

O’zbek mumtoz adiblari tilida *javod* so’zi ham ishlatilgan. Uning tulpor ma’nosini anglatishini arablar orasida *ان خَوادُ قَدْ يَعْتَرُ* – “Tulpor ham qoqiladi-ku!” maqoli mashhurligidan ham bilsa bo’ladi. *Javod*ning birlamchi ma’nosi “saxovatli” bo’lib, Ogahiy tarixiy asarlari faqat shu ma’no ko’zga tashlandi: “Ul (O’g’uzxon) basi *javod* va asru oqil erdi” [“Firdavs ul iqbol”, 84].

Lug’atda qo’llangan so’zlar mavzu nuqtayi nazaridan juda kengdir. Ularni mavzuviy-semantik guruhlariga ajratib tahlil va tadqiq qilish qaysi yo’nalishda salmog’i qay darajada ekanligini va aniq chegarasini aniqlash imkonini beradi. Mumtoz adabiyotimizning lingvopoetik jihatdan tahlil qilishda ham mazkur lug’atning so’z boyligi muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

Алишер Навоий. 1996. *Мукаммал асарлар тўплами*. 12-том. Тошкент: Фан.

Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983. жилдлик. 2-жилд.

Баскаков, Н.А. 1979. *Историко-типологическая морфология тюркских языков (структура слова и механизм агглютинативу)*.

- Москва: Наука.
- Bahrami, E., Jonnaydi, F. 1990. “Dictionary of the Avesta”. *Bonyod-e Nishopur* 1, 27. Teheran.
- Древнетюркский словарь*. 1969. Ленинград.
- Фрейман, А.А. 1951. *Хорезмийский язык*. Материалы и исследования I. Москва: Издательство Академии наук.
- Иброҳимов, С., Шамсиев, П. 1972. *Навоий асарлари луғати*. Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Капсибеков, Е.З. 1986. *Глагольно-именная корреляция гомогенных корней в тюркских языках*. Алма-ата: Наука.
- Lowmianski, H. 1986. *Studia nad dziejami Słowiańszczyzny, Polski i Rusi w wiekach średnich*. Poznań: UAM.
- Маҳмуд Замахшарий. 2018. *Муқаддимат ул-адаб*. I жилд. Исмлар боби. Нашрга тайёрловчилар А.Ўрозбоев, А.Матниёзов, Л.Абдукаримов. Тошкент: Наврӯз.
- Маҳмуд Кошғарий. 1960. *Девону луғотит турк*. Биринчи том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. Тошкент: Ўз ФАН.
- Маҳмуд Кошғарий. 1963. *Девону луғотит турк*. Учинчи том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. Тошкент: Ўз ФАН.
- Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy *Riyoz ud davla* O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. 5364/ II.
- Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy *Firdavs ul iqbol* O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. 5364/ I.
- Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy *Jome’ ul-voqe’oti sultoni*. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. №9786.
- Нурмонов, А. 2014. *Лингвистик таълимотлар тарихи*. Тошкент: Фан.
- Раҳимов, А.С. 2002. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида). Филол. фан. номз. дис. автореф. Самарқанд.
- Неъматов, Ҳ. 1992. *Ўзбек тили тарихий фонетикаси*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Навоий асарлари луғати*. 1972. Тузувчилар Иброҳимов С., Шамсиев П. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Навоий асарлари учун қисқача луғат*. 1993. Тузувчи Б. Ҳасанов Б. Тошкент.
- Kutadgu Bilig* III: 1979. indeksi neşre haz. Kemal Eraslan, Osman F. Sertka ya, Nuri Yüce. İstanbul : Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü.
- Раҳматуллаев, Ш. 2000. *Ўзбек тилининг этимологик луғати*. Тошкент: Университет.
- Содиқов Қ. 1989. “Қутадғу билик”нинг тил хусусиятлари”. *Ўлмас обидалар*, 298-300. Тошкент: Фан.
- Фаридиддин Аттор. 2006. *Мантиқут-тайр*. Тошкент: Фан.
- Шамсиддин Муҳаммад бин Халаф Табризий. 1997. *Бурҳони қомеъ*. Техрон: Амири кабир.
- Шодиев, Ф. 2008. *Ҳозирги ўзбек тилида бир бўғли сўзларнинг*

структур-семантик талқини ва деривацион хусусиятлари: Филол. фанл. номз. дисс. автореф. Тошкент.

Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2004. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

Персидско-русский словарь. 1983. В 2-х томах. Отв. Ю.А. Рубинчик. Москва.

Зарипов, Б. 2002. *Алишер Навоий асарлари тилида зоонимлар*: Филол. фан. номз. дисс. автореф. Тошкент. Фан.

Щербак, А.М. 1961. “Названия домашних и диких животных в тюркских языках”. Историческое развитие лексики тюркских языков, 82-172. Москва: Институт языкознания АН СССР.

[https://ru.wikipedia.org/wiki/ Горностай](https://ru.wikipedia.org/wiki/Горностай)

https://api-mag.kursksu.ru/media/pdf/020-009_i0HFz27.pdf

Zoonyms represented in “Lahjatu-l-lug’ot”

Umida Radjapova¹

Abstract

Nowadays, the study, translation and analysis of the manuscripts existing in our scientific heritage is considered one of the most urgent issues. The work “Lahjatu-l-luguot” that we are studying serves as a program for revealing the linguistic features of the works of our classical heritage and understanding their meaning. In this article, the zoonyms mentioned in the work “Lahjatu-l-luguot” are analyzed, their naming rules, reasons and motives are determined, animal names are analyzed in the understanding of the classic text. Animal names given in the work form a large system. Ornithonyms, another type of zoonyms, are analyzed. Alisher Navoi’s work “Muhokamat ul-lughatayn” also talks about the peculiarities of zoonyms in the Uzbek language. Most of them are unfamiliar to today’s generation. The reason for this is that for today’s generation, the imagination of zoonyms and ornithonyms used and interpreted by Alisher Navoi is not enough. The special attention of the Turkic peoples to the animal world is also proved by the muchal account.

Key words: *zoonym, ornithonym, denomination, muchal calculation, horoscope, gradual development, historical-etymological description.*

¹Umida B. Radjapova – senior lecturer, Urganch State University.

E-mail: radjapovaumida87@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-4998-7286

For citation: Radjapova, U. 2022. “Zoonyms represented in “Lahjatu-l-lug’ot”. *Golden scripts* 4: 101-116.

References

- Alisher Navoiy. 1996. *Mukammal asarlar to‘plami*. 12-tom. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. 1983. jildlik. 2-jild.
- Baskakov, N.A. 1979. *Istoriko-tipologicheskaya morfologiya tyurkskix yazikov (struktura slova i mexanizm agglyutinatsii)*. Moskva: Nauka.
- Bahrami, E., Jonnaydi, F. 1990. “Dictionary of the Avesta”. *Bonyod-e Nishopur* 1, 27. Teheran.
- Drevnetyurkskiy slovar*. 1969. Leningrad.
- Freyman, A.A. 1951. *Xorezmiyskiy yozik*. Materialy i issledovaniya I. Moskva: Izdatelstvo Akademii nauk.
- Ibrohimov, S., Shamsiev, P. 1972. *Navoiy asarlari lug’ati*. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
- Kapsibekov, Y.Z. 1986. *Glagolno-imennaya korelyatsiya gomogennix korney v tyurkskix yazikax*. Alma-ata: Nauka.
- Lowmianski, H. 1986. *Studia nad dziejami Słowiańszczyzny, Polski i Rusi w wiekach średnich*. Poznań: UAM.
- Mahmud Zamaxshariy. 2018. *Muqaddimat ul-adab*. I jild. Ismlar bobi. Nashrga tayyorlovchilar A.O’rozboev, A.Matniyozov, L.Abdulkarimov. Toshkent: Navro’z.
- Mahmud Koshg’ariy. 1960. *Devonu lug’otit turk*. Birinchi tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. Toshkent: O’z FAN.
- Mahmud Koshg’ariy. 1963. *Devonu lug’otit turk*. Uchinchi tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. Toshkent: O’z FAN.
- Muhammadrizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy *Riyoz ud davla* O’zR FA Sharqshunoslik instituti. 5364/ II.
- Muhammadrizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy *Firdavs ul iqbol* O’zR FA Sharqshunoslik instituti. 5364/ I.
- Muhammadrizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy *Jome’ ul-voqe’oti sultoni*. O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. №9786.
- Nurmonov, A. 2014. *Lingvistik ta’limotlar tarixi*. Toshkent: Fan.
- Rahimov, A.S. 2002. *O’zbek xalq dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o’g’li ijodi misolida)*. Filol. fan. nomz. dis. avtoref. Samarqand.
- Ne’matov, H. 1992. *O’zbek tili tarixiy fonetikasi*. Toshkent: O’qituvchi.
- Navoiy asarlari lug’ati*. 1972. Tuzuvchilar Ibrohimov S., Shamsiev P. Toshkent: Adabiyot va san’at.
- Navoiy asarlari uchun qisqacha lug’at*. 1993. Tuzuvchi B. Hasanov B. Toshkent.
- Kutadgu Bilig* III: 1979. Indeksi neşre haz. Kemal Eraslan, Osman F. Sertka ya, Nuri Yüce. İstanbul: Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü.
- Rahmatullaev, Sh. 2000. *O’zbek tilining etimologik lug’ati*. Toshkent: Universitet.

- Sodiqov Q. 1989. "Qutadg'u bilik"ning til xususiyatlari". *O'lmas obidalar*, 298-300. Toshkent: Fan.
- Farididdin Attor. 2006. *Mantiq ut-tayr*. Toshkent: Fan.
- Shamsiddin Muhammad bin Xalaf Tabriziy. 1997. *Burhoni qote'*. Tehron: Amiri kabir.
- Sherbak, A.M. 1961. "Nazvaniya domashnix i dikix jivotnix v tyurkskix yazikax". *Istoricheskoe razvitie leksiki tyurkskix yazikov*, 82-172. Moskva, Institut yazikoznaniya AN SSSR.
- Shodiev, F. 2008. *Hozirgi o'zbek tilida bir bo'g'nli so'zlarning struktur-semantik talqini va derivatsion xususiyatlari*: Filol. fanl.nomz. diss. avtoref. Toshkent.
- O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi*. 2004. Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- Persidsko-russkiy slovar*. 1983. V 2-x tomax. Otv. Y.A. Rubinchik. Moskva.
- Zaripov, B. 2002. *Alisher Navoiy asarlari tilida zoonimlar*: Filol. fanl.nomz. diss. avtoref. Toshkent. Fan.
- <https://ru.wikipedia.org/wiki/Gornostay>
- https://api-mag.kursksu.ru/media/pdf/020-009_i0HFz27.pdf

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo‘lyozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo‘ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar yil davomida o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta-siga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo‘yicha MS Word menejerini qo‘llash lozim.

Barcha qo‘lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

100–150 so‘zdan iborat o‘zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o‘ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi

qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr

sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?" *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 12. 2022-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot
agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan
ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62